

63
T-39



TEMUR TUZUKLARI

63	1832		
Г-39	А. Темур.		
Темур			
	тузуклари		
2019 й		18.000	

Китоб шу ерда кўрсатилган муддатдан
кечиктирилмаган ҳолда топширилиши шарт

Илгариги беримлар миқдори _____

63
738

AMIR TEMUR KO'RAGON

TEMUR
TUZUKLARI

Toshkent
"IJOD-PRESS"
2019

UO'K: 94(575.1)

KBK 63.3(50')

T-39

So'z boshi, tabdil, tarjima, izoh mualliflari:

Haydarbek Nazirbekovich Bobobekov – *tarix fanlari doktori, Turon Fanlar akademiyasi, Leybnits nomidagi Yevropa tabiiy fanlar akademiyasi va «Nuri Xudjand» nomli Markaziy Osiyo xalq akademiyasining akademigi;*

Ahmadjon Quronbekov – *Turon Fanlar akademiyasi akademigi, filologiya fanlari doktori, professor;*

Ibrohimjon Sulaymonov – *Turon Fanlar akademiyasi faxriy akademigi.*

Mas'ul muharrir: Halimboy Boboyev – *Turon Fanlar akademiyasi akademigi, yuridik fanlari doktori.*

Ilmiy muharrir: Qahramon Rajabov – *Turon Fanlar akademiyasi akademigi, tarix fanlari doktori.*

Taqrizchilar: Sotimjon Xolboyev – *Turon fanlar akademiyasi akademigi;*

Mavluda Bobobekova – *Turon fanlar akademiyasi akademigi*


Amir Temur Ko'ragon

Temur tuzuklari / Amir Temur Ko'ragon. – T.: "IJOD-PRESS" nashriyoti, 2019. – 160 bet.

ISBN 978-9943-5628-4-4

1856-yilda yirik shoir va mashhur tarjimon Rojiiy tomonidan fors tilidan o'zbek (eski o'zbek) tiliga «Temur tuzuklari» tarjimai qimmatli manba bo'lib hisoblanadi va uning aynan o'zini tabdil etib va hozirgi o'zbek tiliga tarjima qilib chop etilishi manbashunoslik va tarixshunoslik faniga hamda haqiqatni tiklashga ma'lum darajada hissa qo'shadi.

Kitob tarixchilar, huquqshunoslar, filologlar, shuningdek, doktorantlar, ilmiy xodimlar va barcha tarixga qiziquvchilarga mo'ljallangan.



UO'K: 94(575.1)

KBK 81.2 (5)

ISBN 978-9943-5628-4-4 © "IJOD-PRESS" nashriyoti, 2019

«Shaxsan men Sohibqiron bobomiz bizga meros qilib qoldirgan «Tuzuklar»ni o'qisam, xuddiki o'zimga qandaydir katta ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman».

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom KARIMOV

SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Temur tuzuklari»ga yuksak baho berib shunday yozadi: «Ulug' ajdodimiz, garchi buyuk bunyodkor va jahongir bo'lsa-da, kuch-qudrat zo'rlik va zo'ravonlikda emas, aksincha, adolatda, hamjihatlik va hamkorlikda ekani-ni nihoyatda chuqur anglagan. Uning davlatni oqilona boshqarish, o'ta mushkul va imkonsiz vaziyatda ham to'g'ri yo'l, tadbir topa olish qobiliyati, noyob aql-zakovati har qanday odamni hayratga soladi. Amir Temurdek buyuk va betakror siymoni har tomonlama tushunish, u barpo etgan qudratli saltanatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy asoslarini, Sohibqironning davlat boshqaruvi borasidagi ulkan salohiyati, mahorati, bilim va tajribalarini anglab yetishda «Temur tuzuklari» bebaho qo'llanma bo'lib xizmat qiladi»¹.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tilga olgan Amir Temurning «Tuzuklar» asari bir necha asrlardan beri dunyo kezib, olimlarni, davlat arboblarni, harbiy sarkardalarni harbiy strategiya va taktika borasida hayratda qoldirish bilan birga tarix va yuridik fanlariga qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun beqiyos manba bo'lib xizmat qilmoqda. Ko'plab davlat arboblari bu asardan dasturilamal sifatida foydalanib kelishgan.

¹Islom Karimov. Milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namu-nasi//Temur tuzuklari. T., 2013. 8–9-betlar.

Shu bilan bir qatorda, hozirgacha bu asarga turlicha qarashlar ham mavjud bo'lganligini qayd etishimiz lozim. Amir Temurning asariga kelsak, o'zbek olimlarimiz orasida turlicha fikrlar mavjud. Masalan, rahmatli akademik Bo'ri Ahmedovning yozganiga qaraganda, «Tuzuki Temuriy» asarini fors tiliga Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiy Arabistondan qaytishda Agrada boburiy Shoh Jahon (1628–1657)ning xizmatiga kirgan va o'shanda uning iltimosi bilan «Tuzuki Temuriy»ni eski o'zbekchadan fors tiliga tarjima qilib, mazkur podshohga taqdim etgan.

«Lekin Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiyning mazkur tarjimasi o'sha Yaman hukmdori Ja'far posho kutubxonasida ko'rgan nusxaga asoslanganmi, yo asarning Hindistonda ham o'shanday turkiycha nusxasi bo'lganmi, buni bilmaymiz»¹, deb davom etadi u.

«Temur tuzuklari»ni Turbatiy Hindistonda Shoh Jahonning topshirig'iga binoan tarjima qilishi hech qanday mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Chunki agar «Temur tuzuklari»ning nusxasi Hindistonda bo'lganda edi, Shoh Jahon o'zining tarixchilariga tarjima qilishni topshirishi mumkin bo'lar edi. Bundan tashqari, Shoh Jahon tarix bilimdonlaridan biri bo'lmish shayxulislom Muhammad Afzal Buxoriyga tarjimani tekshirib tuzatishni topshirganda Hindustonda mavjud bo'lgan «Temur tuzuklari»ga taqqoslab tuzatishni topshirar edi. U esa bunday topshiriq bermagan. Shuning uchun ishonch bilan aytish mumkin-ki, Turbatiy «Temur tuzuklari»ni Hindistonga kelmasdan avval fors tiliga tarjima qilgan va yangilik sifatida Shoh Jahonga bir nusxasini sovg'a etgan.

Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiyning o'zi «Qissa-yi Temur» nomli qo'lyozma kitob boshida aytadiki, «...ikki sharif haram sohibi va Yaman hokimi Ja'far Bostoniyning kitobxonasida bir kitobga ko'zim tushdi, uni [o'qib] ko'rsam boshdan-oyoq hammasi Sohibqiron Amir Temur

¹B. Ahmedov. «“Temur tuzuklari” haqida ikki og'iz so'z»//Temur tuzuklari. T., 1996, 4-bet.

Ko'ragonning o'z so'zlaridan [iborat] ekan, yetti yoshidan yetmish to'rt yoshigacha boshdan kechirgan voqealarni yozibdi, ya'ni qanday qilib o'zini sultonlik martabasiga yetkazgan va ne xosiyat birla yetti iqlim mamlakatlariga farmonravo bo'lgan. Uni boshdan-oyoq o'qib chiqsam podshohlik qonuni va davlat tuzumi, mulk olish qoidalarini, askar va raiyat intizomi, mulk va mamlakatni boshqarish usuli, urush va saf tuzish qoidalarini o'z ichiga olgan ekan. Uni fors tiliga tarjima qilib, kitob holiga keltirdim, toki podshohlarga qo'llanma bo'lar. Ul Sultoni Sohibqiron, ya'ni Amir Temur Ko'ragon o'z gavharbayon tili bilan shunday deb yozgandiki, «oxiri saodatli farzandlar va yaxshi tilakli vazirlarning oppoq yorug' dillariga ma'lum va tushunarli bo'lsinkim, o'n ikki ishni men o'zimga shior va kasb qildim». Shu sababdan tangri taolo menga ulug'lik ato qilib, samoviy qudrat bilan qo'llab-quvvatladi va sultonlik martabasiga yetkazdi»¹.

Ushbu parchadan yaqqol ko'rinib turibdiki, Mir Abu Tolib kutubxonaning o'zida asarni fors tiliga tarjima qilib, nusxa olgan. Keyin ushbu forsiy tarjimadan nusxalar ko'chirilib, butun dunyoga tarqalgan.

«Tuzuki Temuriy» asarining keyingi o'zbek tiliga tarjimalari haqida esa 1996-yilda chop etilgan «Temur tuzuklari» kitobining so'z boshisida shunday yozilgan: «Tuzuki Temuriy» to'liq ravishda Xorazm (Xiva)da Muhammad Yusuf ar-Rojiiy tarafidan 1273 (1856/57)-yili va Pahlavon Niyoz Devon tomonidan 1858-yili eski o'zbekchaga tarjima qilingan...

Asarning eski o'zbek tiliga qilingan yana bir nusxasi bor, lekin u to'liq emas. Unda tarix hazrat sohibqironning 39 yoshigacha bo'lgan davr voqealarini o'z ichiga olgan, xolos. Tarjima Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1821/22–1858/59)ning topshirig'i bilan Xo'jand qozisi Nabijon Maxdum tarafidan amalga oshirilgan.

¹Saltikov-Shedrin nomidagi Rossiya milliy kutubxonasi, qo'lyozmalar bo'limi, inventar № TNS 107.

Keyingi yillarda «Tuzuki Temuriy»ning hozirgi o'zbek tiliga qilingan to'la tarjimalari paydo bo'ldi»¹.

Bizning fikrimizcha, Muhammad Yusuf ar-Rojiiy tarjimasi eng qisqartirilgan variantdir. Bu variantga o'zbek tiliga Sog'uniiy tomonidan tarjima qilingan nusxaning mazmuni va hajmi ham to'g'ri keladi.

O'zbek tiliga nisbatan to'liq tarjima Pahlavon Niyoz Devon tomonidan amalga oshirilgan. 1996-yili chop etilgan «Amir Temurni yod etib» nomli to'plamda quyidagi jumalarni o'qiymiz: «Alisher Navoiy ijodini o'rganish va targ'ib etish davr talabiga aylangan kezlari, navoiyshunoslar birdan ko'payib ketganday, hozir Amir Temur, Ulug'bek, Bobur, Sulton Husayn Boyqaro haqida u yer-bu yerdan ko'chirib yozayotganlar urug'lab (?) ketdi. Haqiqiy asl asarlar turib, tarixiy manbalar va ilmiylikdan yiroq xalq og'zaki ijodi namunalariga yaqin Salohiddin Qorining «Temurnoma»si, Nabijon Mahmudning «Amir Temurning tarjimai holi»ga o'xshagan naqlu rivoyatlarga asoslanib yozilgan asarlar ham nashr qilinmoqda»².

Bu yerda muallif Nabijon Maxdum Xotif Xo'jandiyning «Tuzuki Temuriy» (Bu qo'lyozmada tuzuklar qismi yo'q, faqat tarjimai xoli, asosan, Amir Husayn bilan bo'lgan munosabatlari yozilgan. Qo'lyozmada asarning nomi ham yozilmagan, shuning uchun biz shartli ravishda uni «Zafarnoma» deb chop etganmiz) asarini e'tiborga olib, qo'pol xatoga yo'l qo'ymoqda. Chunki bu asar «naqlu rivoyatlarga asoslanib yozilgan asar» emas, balki «Temur tuzuklari» asari birinchi qismining to'liq variantidan olingan bo'lib, unda «Malfuzot» deb nomlanayotgan

¹«Temur tuzuklari» haqida ikki og'iz so'z. Qarang: Temur tuzuklari. T., 1996, 5-bet. Bu yerda Muhammad Alixonning xonlik davri xato yozilgan. 1821/22–1858/59 emas, balki 1822–1841-yillardir. Muhammad Alixon 1841-yil noyabr oyida o'zining ukasi Sulton Mahmud foydasiga taxtdan voz kechadi. 1842-yil bahorida esa Buxoro amiri Nasrullo Qo'qonni bosib oladi va Muhammad Alini, Sulton Mahmudxonni, Nodirabegim va boshqalarni qatl etadi

²B. Ahmedov. Amir Temurni yod etib. T., 1996, 4-bet.

tarjima asarning nomi esa «Qissayi Temur» deb ataladi. Asl fors tilidagi nusxa ham «Malfuzot» deb atalmagan, uning to'liq nomi esa fors tilida «Malfuzoti Temuri» («Мемуары Темура», «Высказывания Темура», «Temur so'zlari» yoki «Temur esdaliklari») deb yozilgan. TNS 33 raqamli fors tilidagi nisbatan to'liq nusxasining nomi esa «Malfuzoti Amir Temur» («Постановления Эмира Тимура») deb kartotekada yozilgan, 1766-yilda ko'chirilgan qo'lyozmaning birinchi varag'ida esa «Temurnomayi sohibqiron» deb yozilgan.

Kitobda Amir Temur bilan Amir Husaynlarning do'stlashishi, oralariga nizo tushishi, ularning birlari bilan bo'lgan janglari to'liq yoritilgan. Kitob Amir Temur bilan Amir Husayn o'rtasida do'stlik bitimi tuzilishi bilan tugatilgan. Bu qimmatli tarjima haqida biz «Tuzuki Temuriy» (T., 1999) va «Zafarnoma» (T., 2000) kitoblarida batafsil yoritganmiz va tarjimaning asl nusxasi kserokopiyasini ilova qilganmiz.

Shu kunga qadar, ayrim temurshunos olimlarning fikricha, 1991 va 1996-yillarda chop etilgan «Temur tuzuklari» va Sankt-Peterburgda saqlanayotgan «Tuzuki Temuriy» va «Malfuzot» qo'lyozmalari ham o'zbek tilidagi to'liq tarjimasi hisoblanar emish.

Bizning fikrimizcha esa, haqiqatan ham, Alixon To'ra Sog'uniy «Tuzuki Temuriy» (TNS 103. «Temur tuzuklari») qo'lyozmasining forscha variantini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Chunki chop etilgan «Temur tuzuklari»ni TNS 103 qo'lyozma matni bilan taqqoslab ko'rilganda, chop etilgan kitob matnining ko'p qismi mazmunan jumlama-jumla 103 raqamli qo'lyozmaga to'g'ri kelmoqda, faqat chop etilgan nusxada Alixon To'ra Sog'uniy tarjimasini H.Karomatov va B. Ahmedovlar tomonidan tahrir qilinib, hozirgi o'zbek tiliga tarjima qilinganligi va ayrim arxaik so'zlar hozirgi so'zlar bilan almashtirilganligi hamda boshqa chop etilgan toshbosma kitoblardan foydalanib, ayrim matn o'zgartirilgani va qo'shimcha qilinganligi yaqqol sezilib turibdi.

«Guliston» jurnalida 1967-yili e’lon qilingan «Temur tuzuklari» (Alixon To’ra Sog’uniy tarjimasini) 1991, 1996, 2011-yillarda chop etilgan «Temur tuzuklari» matnidan ancha farq qiladi.

Masalan, B. Ahmedovning yozishicha, Alixon To’ra Sog’uniy bir qator kamchiliklarga yo’l qo’ygan. Shuning uchun «mana shu kamchiliklarini bartaraf qilish zarur deb topildi. Ana shu maqsadda «Tuzuklar»ning yuqorida qayd etilgan tarjimasini asl nusxa¹6 hamda uning hijriy 1285 (milodiy 1868) va hijriy 1307 (milodiy 1889–1890) yillarda chop etilgan toshbosma nusxalari bilan solishtirildi va Alixon To’ra Sog’uniyning tarjimasini jiddiy ravishda tuzatildi. Bu o’ta og’ir ish iste’dodli yosh sharqshunos olim Habibullo Karomatov tarafidan bajarildi. Asarning mazkur nashri yuqoridagi nusxalar asosida qaytadan tarjima qilindi, desak ham xato qilmagan bo’lamiz².

B. Ahmedov fikriga biz ham qo’shilamiz.

Masalan, Alixon To’ra Sog’uniy «o’zbek» atamasini «mang’ul» deb tarjima qilgan, ayrim hollarda esa «zolimlar», «bu toifa», «dushmanlarim» kabi so’zlar bilan almashtirgan: «Mavorounnahr ahllari menim bu ishimdan xabar topdilar ersa, tezdanoq **mang’ullarga** qarshi ko’tarilishimni istar edilar, chunki ularning jabr-zulmlari xalqni butunlay bezdirgan edi. Katta-kichik To’ron ahllari men bilan bir ittifoqda bo’ldilar. Mamlakatning ulamo va mashoyixlari **bu toifani** hukumat ustidan haydash to’g’risida fatvo yozdilar. Bu ishga ulus amirlaridan, askar boshchilaridan ham qo’shiluvchilar bo’ldi. Bu haqda yozilgan ahdnoma fatvolarining nusxasi bu edi:

«Mavorounnahrdagi butun ahli islom, ulamo-mashoyix, sipoh-raiyatlar bo’lsun, Amir Temurni saltanat taxtiga loyiq ko’rub, unga Qutbi saltanat laqabini qo’yidilar. Musulmonlarning mol-jonlariga zulm qo’llarini uzatqon

¹O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo’lyozmasi, inv. № 8201.

²Temur tuzuklari. T., 1991, 11-bet.

ustimizdagi mang'ullardan bizni qutqazsin. Biz u bilan ittifoqdosh bo'lib, har to'g'rida yordam berishga ahd berib, unga bay'at qildik. Agar shu bergan ahd-paymonimizdan qaytsak, xudo yordamidan chiqib, shayton yordamiga kirgan bo'laylik». (Alixon Sog'unliy. Temur tuzuklari// Guliston, Toshkent, 1967. 15-bet).

1991-yili chop etilgan «Temur tuzuklari»da esa bunday yozilgan: «Movarounnahrda o'zbeklarning jabru zulmi ortib ketdi. Chunonchi, sayyid va sayyidzodalardan yetmish kishini asir olib band etdilar. Ilyosxoja bo'lsa davlat va siyosat ishlarida layoqatsiz bo'lgani tufayli ularning zulmu sitamiga barham berishga ojiz edi. Men bo'lsam o'z salobatim va haybatim bilan o'zbeklar ustidan g'alaba qildim va mazlumlarni zolimlar jabridan xalos qildim. Ilyosxoja amirlari va o'zbeklarning menga nisbatan dushmanlik qilishlariga sabab bo'ldi...

Movarounnahr aholisi mening bu ishimdan xabar topishi bilanoq, tezda o'zbeklarga hujum qilishim kerakligi haqida istak bildirdilar. Chunki ularning qalbi zolim o'zbeklar toifasidan butunlay bezigan edi. Movarounnahr aholisining kattayu kichigi menga birlashdi. Mamalakatimiz ulamo va mashoyixlari esa o'zbekiya toifasini yo'q qilish haqida fatvo yozib berdilar. Ulug' amirlari va qo'shun boshliqlarining ba'zilar ham bu ishga qo'shilib, bizga birlashdilar. Bu to'g'rida yozilgan ahdnoma va fatvolarining nusxasi bu edi: «To'g'ri yo'llik xalifalar, Alloh taolo ularning jamisidan mamnun bo'lsin, tutgan yo'llariga va qilgan ishlariga muvofiq Movarounnahrda butun ahli islom, sipohu raiyat yoxud ulamoyu mashoyix bo'lsin, Amir Temurga izzatu ikrom ko'rsatib, uni Amir Temur Qutbi saltanati Oliy deb atasinlar va uni Allohning [yerdagi] qudrat-saltanat taxtiga loyiq ko'rsinlar. Musulmonlarning yeri, nomusi, mol-mulki hamda joniga zulm-sitam qo'lini cho'zgan o'zbeklar toifasini daf qilishda va umuman, yo'qotishda Temurga [yordamlashish uchun] o'z mol va jonlarini [ayamay], tirishib harakat

qilsinlar. Biz o'z ahdu bay'atimizga sodiq qolurmiz. Agar bergan ahd-paymonimizdan qaytsak, Allohning qudratiyu quvvati va yordamidan chiqib, shayton qudrati va yordami yo'liga kirgan bo'laylik».

Bu fatvoni menga ko'rsatganlaridan keyin jang-u jadal bayrog'ini ko'tarib, o'zbeklar ustiga lashkar tortishga qaror qildim va mazlumlarni haqini zolimlardan olmoqchi bo'ldim.» (20–21-betlar).

103-raqamli qo'lyozmada bunday yozilgan: «Va chun o'zbekiya jamoasining zulm va taaddiysi Movarounnahrda ko'p bo'ldi, andoqkim yetmish sayyid va sayyidzodani asir etib erdilar. Va Ilyosxoja ularning zulm va taaddiysini man etmakda ojiz erdi, men satvot yuzidini o'zbeklarga tanbeh etib, mazlumlarni zolimlar qo'lidin xalos etdim. Va bu ma'ni Ilyosxojaning umarosi bila o'zbeklar inodiga sabab bo'lub, Tug'loq Temurxoniga noma bitdilarkim, Temur muxolifat alamin tikibdur va xon ushbu yolg'on so'zni rost bilib, mening qatlimga yorlig' sodir qilibdur. Va ul yorlig' mening qo'limga tushub, mutolaa qildim va ahd-vafosi uchun muxolifat qilmay sipohsolorliqni qabul etdim. Va o'z o'lmagim muoyana ko'rdum va aning ilojida mundog' tadbir etdimkim, barlos ulusining bahodir yigitlarini qoshimga jam etib, ularni o'zumga muttafiqlik qilg'aymen. Va avval ul kishikim, menga mutobiat va payravlik qo'lin berdi, Eku Temur erdi. Ikkilonchi, amir Joku barlos va o'zga bahodirlar dog'i jon-u ko'ngul bila mening mutobiatim ixtiyor etdilar.

Va chun Movarounnahr ahli bildilarkim, iroda qilib o'zbekiya xalqiga xuruj etkumdur va chun ularning ko'ngullari o'zbekiya zolimlaridan munharif bo'lub, yuz ayurub erdilar, Movarounnahr ahlining ulug' va kichiklari menga muttafiqlik bo'ldilar va ulamo va mashoyix ham o'zbekiya toifasining daf va raf'iga fatvo yozdilar va ba'zi umaro va ulus va qo'shunlar ham bu ma'niga ittifoqlik etdilar. Va qilg'on ahdu fatvo suvratinkim, bir qog'azga sabt etib va yozib erdilar va bu tariqa erdikim: «Xulafoyi

Roshidin rizvon Allohu taolo alayhim ajmayinning siyrat va suvratig'a muvofiq va mutobiqdur. Ulkim oni islom ahli lashkar va raiyat xayli, ulamo va mashoyix jamoasi yaxshi ko'rub va ulug'labdur, ya'ni qutb us-saltana Amir Temurni podshohliq laqabi bila mulaqqab qilibdurlarkim, molu jon bila o'zbekiya toifasining daf va raf'ig'a kushish qilurkim, ul toifa musulmonlarning mol va asbob va nomuslarig'a zulmu taaddi qo'lin uzotur erdilar va biz o'z ahdu biy'atimizda durust paymon bo'lurmiz. Agar ahd-u paymonimizg'a xilof etsak, Tangri Taoloning havl va quvvatidin chiqib, shaytonning havl va quvvatig'a doxil bo'lurmiz». Va chun ul fatvoni menga ko'rguzdilar, tiladimkim, urush va savash alamin tikib, o'zbekiyalar ustiga cherik chekib, mazlumlardin dodin zolimlardan olg'oymen».

Yana shuni ta'kidlashimiz lozimki, Alixon To'ra Sog'unliy va Habibullo Karomatovlar tomonidan «Temur tuzuklari»ning fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinib chop etilishi tarix va yuridik fanlari uchun, umuman, O'zbekiston xalqlari tarixini tiklashda munosib hissa qo'shganliklaridan dalolat berib turibdi.

Ammo qaytadan tarjimada ham xatolar o'tib ketgan va qo'shimchalar kiritilgan. Tarjimada muallif asl nusxa matniga qo'shimchalar kiritishi mumkin emas, qo'shimchalar havola (snoska) yoki izohda berilishi kerak edi.

1991-yilgi nashrda ilova qilinayotgan fors tilidagi parcha o'zbek tiliga tarjima qilinib, mazmuniga qo'shimcha kiritilgan. Masalan, forscha matnning 2-betidagi quyidagi «Daromadan va bar omadan be miyoni duston va dushmanon chenin kardam...» iborasini shunday tarjima qilishgan: «...do'st-dushman orasida muomala, murosayu madora qilish xususida ushbu tadbir va kengashlarni qo'lladim...» (14-bet). To'g'ri tarjima esa bunday bo'lishi kerak edi: «Do'st-dushmanning orasiga kirib-chiqishda shunday qildim...»

Keyingi jumlaforschada shunday boshlanadi: «Ki piri man be man navishtki...», ya'ni «Pirim menga yozdi-ki...». Bu jumlaning quyidagicha tarjima qilishgan:

«Pirim Zayniddin Abubakr Toybodiy menga yozmishlarkim...»¹. Alixonto'ra ham «Guliston»da (1967, №2) chop etilgan «Temur tuzuklari»da: «Pirim Abu Bakr Toybodiy menga yozmishlarkim...» (14-bet) deb yozgan.

Bu yerda tarjimonlar Zayniddin Abubakr Toybodiy ismini o'zlari qo'shib qo'rganlar. Masalan, TNS 103 raqamli «Tuzuki Temuriy»da ham shu jumlada piri nomi yozilmagan: «Pirim menga yozib erdikim...» (3-b varaq).

2013-yilgi nashrdagi matnda piri nomi yozilmay, havolaga tushirilgan va to'g'ri izohlangan: «Tuzuklar»ning Bombay nashrida kitob hoshiyasida shu o'rinda Zayniddin Abubakr Toybodiy nomi ko'rsatilgan»².

Yana bir misol. TNS 103 da quyidagi ibora yozilgan:

«**Ikkinchi** kengashkim, podshohlig'im unvonida qildim ushbu erdikim, chun Tug'loq Temurxon yana bir martaba Movarounnahr mamlakatiga lashkar chekti va ahdi sindurdi va Movarounnahr mamlakatini mendin olib, o'z farzandi Ilyosxoja'ga topshurdi va meni anga mubashshir va sipahsolor etti va Qochuli Bahodir bilan Qubulxonning ahdnomasini zohir qildi va men ulug' so'zi va ahdi muqtazosig'a sipah-solorliqni qabul etdim».

1991-yilda chop etilgan «Temur tuzuklari»da bu ibora bunday tarjima qilingan: «**Davlat qurish oldidan qilingan ikkinchi kengashim**. U shundan iborat bo'ldiki, Tug'luq Temurxon men bilan tuzgan ahdu qarorini buzib, ikkinchi bor Movarounnahr mamlakatiga qo'shin tortib keldi va hukumatni mendan tortib olib, o'g'li Ilyosxoja topshirdi. Meni esa bosh qo'mondon (sipahsolor) va maslahatchi qilib tayinladi. Menga Qochuvli-bahodir va Qubulxon tomonidan bitilgan ahdnomani ko'rsatdi. Men

¹14-bet. 1996-yilgi qayta nashrining 24-betida ham shunday yozilgan.

²Temur tuzuklari. T.: «O'zbekiston», 2013, 13-bet.

ulug' bobolarimizning so'z va nomalarini qabul qilib, sipohsolorlik qilishga rozi bo'ldim»¹.

Alixon To'ra Sog'uniy esa bunday yozgan edi: «Tug'luq Temurxon ichki ishlaridan tinchib olgach, besh yuz oltmish ikkinchi hijriyada Turon mamlakatlarini olish uchun yana qo'shin tortib, Movarounnahrda keldi. Menga bergan bo'ljari buzib, hukumatni mendan olib, o'g'li Ilyos Xo'jaga topshirdi. Meni unga vazir ham bosh qo'mondon qilib belguladi. Bu ishdan menim toriqqanimni ko'rgach, menim bobom Qochuvli Bahodir uning bobosi Qubulxon o'rtalarida tuzilgan ahdnomani ko'rsatdi. Bu to'xtamnoma xonliq – Qubul avlodida, qo'mondonliq – Qochuvli bolalarida bo'lsin deb, po'lat taxta ustida yozilmish edi.

Buni o'qib ko'rganimdan so'ngra ulug'lar to'xtami buzilmasin deb, qumondonliqni qabul qildim» (15-bet).

Bu jumla, 2013-yilgi nashrda mazmuni keyingi jumlada qaytarilganligi sababli yozilmagan.

1967-yili «Guliston»da e'lon qilingan «Temur tuzuklari»da yozilgan mo'g'ullarga qarshi kurashi umuman mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Chunki bu voqea 762/1361-yilda sodir bo'lgan. Amir Temur esa mo'g'ul xoni To'g'luq Temurxon davrida lashkarboshi bo'lib xizmat qilayotgan edi. Qanday qilib u mo'g'ul xoni xizmatida bo'la turib, mo'g'ullar toifasini yo'q qiladi? Masalan, Amir Temurning o'zi «Temur qissasi»da bunday bayon etgan: «Bu voqea shunday yuz berdiki, **sana yetti yuz oltmish ikki** (762/1361, mart)da To'g'luq Temurxon ikkinchi martaba Movarounnahrda lashkar chekdi va menga muhabbatnoma yubordi. Men istiqboliga chiqib uni ko'rdim. Va u ahdini buzib, Movarounnahrni o'g'li Xoja Ilyosga berdi, meni lashkarboshi etdi. Meni xafa ko'rib Qochuli Bahodir va Qubulxonning ahdnomasini chiqarib ko'rsatdi, bu ahdnoma po'lat varaqqa: «Xonlik Qubulxon avlodiga, lashkarboshilik Qochulining avlodiga mansub bo'lsin. Bir-biriga qarama-qarshilik ko'rsatmasin», deb o'yib yozilgan edi.

³¹ TT., 1991, 19-bet.

Uni o'qiganimdan keyin, shu ahdnomaga vafo tariqasida unga qarshilik qilmadim. Lashkarboshilikka rozi bo'ldim. Va lekin Xoja Ilyosning saltanat ishlariga uncha uquvi yo'q edi. Lashkari zulm-javrga qo'l cho'zdilar. Shu asnoda Movarounnahr aholisi menga kelib arz qildilarki, o'zbeklar toifasi Samarqandga chopqin yasab, ul mavzedan mingga yaqin bokira qizni olib ketdilar. Bu voqeani Ilyosxoja aytdim, uning hukmi o'zbeklarga ta'siri bo'lmadi.

Shundan so'ng sayyidlarning ulug'laridan bir guruhi mening oldimga kelib faryod chekdilarki, payg'ambar zurriyotidan yetmish nafar sayyid va sayyidzodani zolim o'zbeklar asirga olib ketib, qamoqqa tashladilar. Shunda islom g'ayrati ko'nglimda jo'sh urib, ularni asirlikdan ozod etgani otlandim va **o'zbek amirlari bilan urushib zafar topdim**. Yetmish sayyidni ularning bandidan ozod etdim.

Shu tufayli o'zbeklar men bilan nizolashdilar va makr yo'liga o'tib, To'g'luq Temurxonga mening ustimdan «Temur qarshilik bayrog'ini ko'tardi», deb yozdilar. Va u mening qatlinga yorlig' yubordi.

Bu yorlig' yo'lda mening qo'limga tushib, o'z ehtiyotimni qilib qo'ydim»¹.

E'tibor bering, **Amir Temur o'zbek amirlari bilan urushdi**. Adhamjon Ashirov va Asror Qayumovlarning yozishlaricha: «o'zbek etnonimining kelib chiqishi bo'yicha fanda yakdil fikr mavjud emas. Ayrim mualliflar (G. Vamberi, G. Xovors, M. P. Pilyo) Dashti Qipchoqda ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalarining bir qismi o'zlarini erkin tutganliklari sababli «o'zbek», ya'ni «o'z-o'ziga bek» deb atagan desalar, boshqalar (P. P. Ivanov, A. Y. Yakubovskiy, Xilda Xukxem) «o'zbek» etnonimini Oltin O'rda xoni O'zbekxon (14-a.) nomi bilan bog'laydi, boshqa yana bir guruh olimlar esa (V. V. Grigoryev, A. A. Semenov va B. Ahmedovlar) o'zbek nomi Oq O'rda (Dashti Qipchoqning sharqiy qismi)da ko'chib yurgan

¹ Amir Temur Ko'ragon. Temur qissasi. T.: «Fan», 1994. 29-bet.

turk-mo'g'ul qabilalariga taalluqli bo'lgan degan fikrni bildiradilar»¹.

Bo'ri Ahmedovning fikricha «...mana shu «o'zbeklar» va «o'zbek jamoalari», ya'ni XIII–XIV asrlarda Oltin O'rda tarkibiga kirgan Dashti Qipchoq o'zbeklari haqida so'z boradi. Amir Temur, xususan, Movarounnahrni o'z ta'siri doirasida tutgan Dashti Qipchoq feodallari va ayrim shahar va qishloqlarni egallab turgan ko'chmanchi o'zbek qo'shinlariga qarshi kurash olib borgan»². O'zbekiston milliy ensiklopediyasida B. Ahmedov bunday yozadi: «Dashti Qipchoq o'zbeklari – qadimdan Dashti Qipchoqning sharqiy qismida ko'chib yurgan turkiy-mo'g'ul qabilalari. Arlot, bahrin, burqutlar, do'rmon, iyjon, xitoy, qarluqlar, mo'yor, qipchoq, qiyot, qo'ng'iro't, qurlovut, mang'it, nayman, nukuz, tangut, uyg'urlar, markit, qo'shchi, o'tarchi, jot, chimboy, kenagas, uyshun, tuboyi, toymas, echki, tuman-ming, shodbaxtli, shunqorli va boshqa qabilalar XIII asr oxiri va XIV–XVI asrlarda o'tgan Sharq tarixchilari tomonidan umumiy bir nom bilan «o'zbek» deb atalgan. Hamdulloh Kazviniiy (1281–1350) ning «Tarixi guzida» («Tanlangan tarix») asarida Oltin O'rda xoni O'zbekxonga tobe yerlar va xalqlar haqida fikr yuritiladi va bu qabilalar «o'zbekiyon» («o'zbekiylar»), ular ko'chib yurgan yerlar, ya'ni Sharqiy Dashti Qipchoq esa «mamlakati o'zbek» («o'zbek mamlakati») deb ko'rsatiladi. «O'zbek» atamasi qabilalar uyushmasi va shu qabilalarga qarashli yerlarning nomi sifatida O'zbekxon davriga qadar ham qo'llanilgan. Masalan, Mirzo Ulug'bek o'zining «Tarixi arba ulus» («To'rt ulus tarixi») nomli tarixiy asarida, O'zbekxonning hokimiyat tepasiga kelishi zikrida, «o'zbek ulusi unga berildi», deb yozadi.» (O'zME, t. 3, 218-bet).

Bizning fikrimizcha, «o'zbek» atamasi O'zbekxon ismi bilan bog'liq emas. Chunki O'zbekxon ism bo'lmay,

¹O'zME, t.10, 488-bet.

²TT., 1996, 22-bet.

o'zbeklarning xoni ma'nosida ishlatilgan. O'zbekxonning asl ismi Sulton Muhammad (1282–1342) bo'lgan. O'sha davrda o'zbek qabilasi mavjud bo'lgan va u boshqalarga nisbatan katta va kuchli bo'lgan bo'lishi kerak. Chunki mantiqan qaralsa, hech qachon katta qabila kichik qabilaga qo'shilmaydi. Aksincha, kichik qabilalar katta qabilaga qo'shilib, birlashadi va qudratli bo'ladi. Shuning uchun ham bir nechta nisbatan kichik qabilalar o'zbek qabilasiga qo'shilib, birlashib ketadi va umumiy o'zbek nomini oladi.

Manbashunoslik va tarjima etish qonun-qoidalariga ko'ra, tarjimonlarning «o'zbek» atamasini «mo'g'ul» («mo'ng'ul») atamasi bilan almashtirishga haqlari yo'q edi. Bo'ri Ahmedov kabi bu «o'zbek» atamasiga havolada izoh berishlari lozim edi. Lekin matndagi atamani boshqa atama bilan almashtirish mutlaqo mumkin emas. Bu bilan tarjimonlar muallifga, ya'ni Amir Temurga hammuallif bo'lib qolmoqda! Tarjimonlar Amir Temurning ayrim tuzugini buzishgan, desak ham bo'laveradi.

2013-yilgi nashrda shunday bayon etilgan: **«Saltanatni o'z tasarrufimda saqlash uchun qilgan tuzukim.** Ushbu o'n ikki tuzukni o'zimga shior qilib olganimdan keyin katta ishonchu salobat bilan saltanat taxtiga o'tirdim. O'z tajribamdan sinab bildimki, agar qay bir podshoh shu o'n ikki narsaga ega bo'lmas ekan, saltanatdan bebahra qolur.

Birinchidan. Podshoh o'z so'ziga ega bo'lsin, ishini o'zi bilib qilsin, ya'ni sipoh va raiyat podshohning aytgan so'zini, qilgan ishini o'zi aytadi, o'zi qiladi, hech kimning bunga daxli yo'q, deb bilsin. Shunday bo'lgach, podshoh biror kimsaning saltanat martabasiga sherik bo'lgudek qilib aytgan gapiga va qilgan ishiga ergashmasin. Garchi yaxshi so'zni hammadan ham eshitish zarur bo'lsa-da, lekin boshqalar so'zda va saltanat ishlarida podshohga sherik yoxud undan ustun bo'lmasliklari shart». (Temur tuzuklari. T.: «O'zbekiston», 2013, 95–96-betlar).

Tarjimonlar esa bu tuzukni rad etib, tarixiy voqelikni buzib ko'rsatmoqda.

1991-yili chop etilgan «Temur tuzuklari»ning «Hindiston poytaxti (Dehliga lashkar tortish borasida qilgan kengashim» bo'limida «O'zim (ya'ni Amir Temur) o'ttiz ming otliq askar bilan g'o'lni boshqardim» (1991, 47-bet) deb xato yozilgan. Shu bo'limning o'zida taqsimlangan sonlarning yig'indisi $30 + 30 + 30 = 90$ bo'lmoqda, matnda esa «Hindiston yurishiga jamlangan lashkarlar umumiy soni to'qson ikki ming otliqqa yetgan edi» (64-bet) deb yozilgan. 1996-yili chop etilgan «Temur tuzuklari»da (60-bet), «Temur qissasi»da (T.: «Fan», 2004. 254-bet) va TNS 103-qo'lyozmada ham Amir Temur o'ttiz ikki ming otliq askarlari bilan bo'lganligi to'g'ri qayd etilgan.

1991 va boshqa yillarda Toshkentda nashr etilgan nusxalardagi jumla va iboralar TNS 103-qo'lyozma matni ham bir-biriga o'xshaydi.

Bir necha misol keltiraylik:

TNS 103 (1273/1856-yili forschadan eski o'zbek tiliga tarjima qilingan): «Va tajribamg'a yetushtikim, bir ish ko'rgon bahodir va mardona odam va azmu hazmlig' va tadbirlig' kimsa, ming tadbirsiz va hazmsiz kishidin yaxshiroqtur, nedinkim bir ish ko'rgan *kishi ming kishiga ish buyurur*».

«Temur tuzuklari»¹:» «Tajribamda ko'rilgankim, ish-bilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. Chunki tajribali bir *kishi ming kishiga ish buyuradi*» (15-bet).

TNS 103: «Qur'oni majiddin fol ochib, *Qur'on hukmiga amal qilur erdim*.

Va chun Tug'loq Temurxonni ko'rmokda Qur'ondin fol ochtim, surayi Yusuf folimg'a keldi. Va *Qur'oni majid hukmiga amal qildim*».

TT: «Lekin biron ishni qilmoqchi bo'lsam, kengashib olgach, keyin Qur'ondan fol ochardim va Qur'on hukmi bilan ish qilur erdim.

¹Toshkent, 1991. Keyinchalik TT.

Tugʻluq Temurxon oldiga borishdan avval Qurʻondan varaq ochsam «Surayi Yusuf alayhi-s-salom» chiqdi va ***Qurʻoni majid hukmiga amal qildim***» (17–18-betlar).

TNS 103: «Va saltanatim qavoidin oʻn ikki toifa bila marbut va mazbut va mustahkam qildim. ***Va bu oʻn ikki toifani falakning oʻn ikki burji va oʻn ikki oyi yongligʻ saltanatim korxonasida qaror berdim***».

TT: «Saltanatim qonun-qoidalarini ham shu oʻn ikki toifaga bogʻlab tuzdim. ***Bu oʻn ikki toifani saltanatim falakining oʻn ikki burji*** va davlatim korxonasining ***oʻn ikki oyi*** deb hisobladim» (64-bet).

TNS 103: «***Avvalgʻi toifa sodot va ulamo va mashoyix va fuzaloni oʻzumga yaqin etdim*** va hamisha alar majlisimgʻa kelib-ketib, borgohimgʻa zebu ziynat berdilar».

TT.: «***Birinchi toifa – sayyidlar, ulamo, shayxlar, fozillarni oʻzimga yaqinlashtirdim***. Ular mening saroyimga doimo kelib-ketib, majlisimni bezab turishdi» (64-bet).

TNS 103: «***Ikkilonchi toifa*** oqil va kengashdor va hazm va ehtiyotligʻ va qoʻhnakor va peshbin ***odamlarni xos majlisimgʻa*** yoʻl berib, alar bila suhbat tutub ***naf topib, tajribalar hosil qildim***».

TT: «***Ikkinchii toifa*** – aqlli kishilar va kengash sohiblari, ehtiyotkor arboblar, sergak va keyinini oʻylab, olisni koʻrib ish yurituvchi, keksa va tajribali ***kishilarni xos majlisimga kiritib***, suhbatlaridan, ishlaridan ***naf olib, tajriba hosil qilardim***» (65bet.)

TNS 103: «Andoqkim, ***Amir Husaynning bir zolim vaziri bor erdikim, sipoh va raiyatdin haq va nohaq*** gunohlar topib, tutor edi, to oz chogʻda ul xabis va betamiz ***vazir zulmining shumligʻidin Amir Husayn saltanatining uyi xarob boʻldi***».

TT.: «Chunonchi, ***amir Husaynning zolim bir vaziri bor edi. U sipoh-u raiyatga haq-nohaq*** jarimalar solar edi. Oradan koʻp vaqt oʻtmay oʻsha noinsof ***vazirning shumligidan amir Husaynning saltanat uyi xarob boʻldi***» (68-bet).

«Qissayi Temur»¹: «Amir Husaynning bir zolim vaziri bor erdikim, oz chog'da aning zulmidin Amir Husayn davlatining uyi xarob bo'ldi» (261-bet).

Bunday dalillardan ko'plab keltirish mumkin. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, hattoki tarjimada ham TNS 103 dagi ayrim ibora va so'zlar qo'lyozmada qanday yozilgan bo'lsa, shundayligicha qolganga o'xshaydi. Bu hol esa, TNS 103 va keyingi yillarda chop etilgan «Temur tuzuklari»ning tarjimonlari bir xil matnli fors tilidagi nusxadan foydalanishgan, deb aytishga asos bo'la oladi. Ammo tasodifan shunday bo'lib qolgan ham bo'lishi mumkin.

Yana shuni ham ta'kidlashimiz lozimki, shu kungacha chop etilgan barcha «Temur tuzuklari» va TNS 103 qo'lyozma «Temur tuzuklari»ning qisqartirilgan varianti bo'lib, uni «Qissayi Temur»² nomli kitobga (nisbatan eng to'liq eski o'zbek tiliga tarjima qilingan varianti) taqqoslanganda, ikkinchi tuzuklar qismi (maqola, kitob) deyarli hajm jihatdan va mazmunan bir-biriga juda yaqin, ammo «Temur tuzuklari»ning birinchi qismi (maqola, kitob) nisbatan juda qisqartirilgan. Nazarimizda, «Temur qissasi»ning birinchi qismidan faqat majlis va tuzuklari tanlab olinib, Amir Temurning tarjimayi holi va esdaliklari «Temur tuzuklari»ga deyarli kiritilmagan. Misol uchun, «Temur qissasi»dan «Temur tuzuklari»ga kiritilmagan bir parcha keltirmoqchimiz.

«...Amir Abul Barakot ...majlis tuzib, Termiz xoni xonzoda Abu Ma'oni va xonzoda Ali Akbarning ittifoqi bilan to'y qilib, saltanat da'vo qilganlarni chaqirdi.

Ular kelgandan keyin Amir Abul Barakot so'z boshlab:

¹«Malfuzoti Temuriy». Eski o'zbek tilida chop etilgan. Tabdil. T., 2000. TNS 107. 1274/1857-yili forschadan o'zbek tiliga tarjima qilingan.)

²Amir Temur Ko'ragon. Temur qissasi. («Qissai Temur», «Temur esdaliklari», «Malfuzoti Temuriy».) Hozirgi o'zbek tiliga tarjima. T.: «Fan», 2004.

«Alhamdu lillohikim, Turon mamlakati oqibatsiz hokimlar palid vujudidan pok bo'ldi. Endi agar ittifoq bo'lib o'zlaringiz orangizdan birovni ulug' og'a bilsangiz, inshoolloh jahongir bo'lursiz va agar ittifoq bo'lmasangiz, qabilalar maliklaridek tarqalib ketasiz va tez kunda Jeta kofirlari ustingizdan g'alaba qozongusidir. Endi sizlarning kengashingiz nedur?» – dedi.

...Amir Bayon Sulduz: «Bizlarning hech birimiz to'ra emasmizki, xonlik taxtida o'tirsak va xalq bizlarga itoat qilsa. Ammo Suyurg'atmish, Chingiz avlodidan va to'radir, o'sha xonlik taxtida o'tirsin va Amir Temur uning sarkardasi bo'lsin va bizlar itoat qilaylik», – dedi.

Amir Barakot: «Musulmonlikda sizlarning hamman-giz bir Chingiziy kofirbachchaga mute bo'lishingiz ravo bo'ladimi? Chingiz ham dasht ko'chmanchilaridan biridurkim, qahr qilichi bilan musulmonlarga g'olib bo'ldi va bu kun Amir Temurning qilichi Chingiz qilichidan kam emasdir va sizlar hammangiz Amir Husaynning dastidan qochib, sahro kezib, bekingan joyingizdan chiqa olmadingiz va Amir Temur Amir Husaynni tutmoqda sizlarning madadingizga muhtoj emas edi, hozir ham muhtoj emasdir!» – dedi. Yana ko'p so'zlardan so'ng Amir Abul Barakot ularga qarata: «Sizlarga turkona so'z aytaman. Sizlar hammangiz musulmon va islom dinida sobitdursizlar. Muhammad sallallohu alayhi vasallam-ning hamma ummatiga zohirdurki, Muhammad sallallohu alayhi vasallam mulkni mushrik, kofirlar, yahudiy va nasroniylardan qahr qilichining zarbi bilan oldi. Bas, mulk Muhammad sallallohu alayhi vasallam mulki bo'lur. Undan so'ng Xulafoyi Roshidin va Oli Muhammad-ning haqqidurki, ularga vorislik tariqasida yetdi. Va ular har kishini xohlasa o'zlariga noib qildilar. Bu kunki men Husayniy sayyidlaridandurman, Madina va Makka sayyidlarining jamoasi va ittifoqi bilan Amir Temurni Xulafoi Roshidining noib bilib, Turon musulmonlarining

ittifoqi bilan uni barcha islom ahliga hokim va amir bilurmiz!» – dedilar.

...Amir Kayxusrav turib: «Qur'a tashlaymiz! Har kimning otiga qur'a tushsa, bizlar hamma unga itoat qilurmiz!» – dedi.

Amir Abul Barakot uchovini otini va mening otimni qog'ozga yozib, joynamozni ostiga qo'yib, «Ilik suqib xatlarni joynamozni ostidan chiqaring!» – dedi.

Uch martaba shunday qildilar va har gal saltanat ruq'asi mening otimga chiqdi. Ular xijil bo'lib, o'z so'zlaridan qayta olmadilar»¹.

Yuqoridagilarni e'tiborga olib shuni aytish mumkin-ki, ushbu chop etilayotgan «Temur tuzuklari»² va barcha o'zbek tilida chop etilgan «Temur qissasi»³, «[Zafarnoma]»⁴, «Temur tuzuklari»ni⁵ ilmiy taqqoslab «Temur tuzuklari»ning tanqidiy matnini tuzish imkoni yaratiladi.

Ammo qanday bo'lishidan qat'iy nazar, 1856-yilda yirik shoir va mashhur tarjimon Rojiiy tomonidan fors tilidan o'zbek (eski o'zbek) tiliga «Temur tuzuklari» tarjimasi qimmatli manba bo'lib hisoblanadi va uning aynan o'zini hozirgi o'zbek tiliga tarjima qilib chop etilishi manbashunoslik va tarixshunoslik faniga va haqiqatni tiklashga ma'lum darajada hissa qo'shishiga ishonchimiz komil.

¹ Amir Temur Ko'ragon. Temur qissasi. T., 2004, 171–173-betlar.

² TNS 103, Qozi Muhammad Yusuf Maxdum al-mulaqqab bi-r-Rojiiy binni Qozi Xo'jamberdi al-mutaxallis bi-l-Xorazmiy.

³ TNS 107, Pahlavon Niyoz Devon tarjimasi.

⁴ Xotif Xo'jandiy tarjimasi.

⁵ Alixon To'ra Sog'uniiy va Habibullo Karomatovlar tarjimasi.

TEMUR TUZUKLARI

Hozirgi adabiy o'zbek tiliga tarjiması

Bismillahir rohmanir rohiym!

Ul o'xshashi yo'q, tengsiz podshohga olqishlar bo'l-sinkim, olam ahli tuzumini oliymaqom sultonlar va iqtidorli xoqonlar adolati va siyosati bilan tuzib, fuqaro va xalq rizosi, ulamo, shayxlar va fozil kishilar duosi bilan saltanat barqarorligini oshkor etib va to'g'ri yo'l va tadbir va kengash va maslahat bilan hukumat rivojini amalga oshirmog'i shuhrat qozongan. Ul rasul va payg'ambarlar sultoniga duo va alqovlarkim, Tangri Taolo so'zlarida unga barcha ishda kengashuv amri bayon qilingan. Va uning vujudi tufaylidin barcha mavjudot tuzumi qurilmish va uning sulolasi va safdoshlari va g'ayratigakim, har biri bir hidoyat yulduzi bo'lib, vujudlari sharafigin olam maydoni to'lmishdir.

Ammo endi donolik va jo'mardlik egalariga ravshan va oshkor bo'lsinkim, yuksak shonli sulton va zar sochuvchi xoqon, Doroyi davron va Sulaymoni zamon, Ollohning yerdagi soyasi va Rahmonning xalifasi, sulton ibn us-sulton Abu-l-Muzaffar va Abu-l-Mansur Abu-l-Fath hazrati Sayyid Muhammad Bahodurxon – (Olloh Taolo uning mulkini va sultonligini abadiy qilsin va olam ahliga uning yaxshiliklari va ehsonlarini oshirsin) – shohona va xusravona iltifotidan bu yo'qsul faqir va bu komil iqtidorli haqir, boshdan-bosh duogo'y va samimiy yaxshilik istovchi Qozi Muhammad Yusuf Maxdum – taxallusi Rojii binni Qozi Xo'jamberdi nisbasi Xorazmiyni (Olloh uning gunohlarini kechirsin, ayblarini yopsin) barcha o'ziga teng va loyiqalaridan mumtoz va sarafroz qilib, «Tuzuki Temuriy» otlig' kitobni, Amir Temur Ko'ragonning tilidan fors tilida bayon qilingan edi, turkiy tiliga tarjima qilishga buyurdi.

Va bu soʻzsiz bajarilishi kerak boʻlgan amrni olgandan soʻng, bu notavonning boshi falakka yetdi va zerikish asari ketdi va jonu dil bilan tarjima qilishga boshladi.

Bu toʻliq nusxa ikki faslda amalga oshiriladi.

AVVALGI FASL KENGASHLAR VA TADBIRLAR BAYONI

Va mulk olmoq va jahondorliq qilmoq va lashkarni tashkil qilmoq va dushmani tuzoqqa tushirmoq va muxoliflarni doʻst etmak va doʻst-dushmanlar orasiga kirmak va chiqmoq kengashini shunday amalga oshirdim.

Pirim menga yozgandiki, «Ey Abu Mansur Temur, saltanat ishida toʻrt ishni qoʻlga olgil, yaʼni kengash va maslahat, mulohaza va ehtiyot bilan ish tutgil va har podshohlikim, kengash va maslahatdan xoli boʻlsa, bir **johil** va nodon kishi yangligʻdurkim, barcha qilgan va **degani xato** boʻlgay va barcha aytgan soʻzlari va qilgan **ishlari** boshdan-oyoq nadomat va pushaymonlik hosil qilgay, bas, shunday ekan yaxshiroq ish uldurkim, saltanat ishlarini yuritir va iroda qilurda tadbir va maslahatlarga amal qilgaysen, to soʻnggida pushaymon boʻlmagaysen.

Tajribaga yetishtikim, podshohliq ishlarida bir hissasi sabr-u chidam qilmoq, yana bir hissasi bilib va yod tutub, oʻzni bilmagan va unutgan tutmoqdur. Va azm-u qaror va sabr-u toqat va mulohaza va ehtiyot va bahodirlik bilan barcha ishlar muyassar boʻlur».

Goʻyo ushbu maktubkim menga pirim yozib bergan edi, bir rahnamo edikim, menga yoʻl koʻrsatdi va saltanat ishida toʻqqiz hissasi maslahat va tadbir va kengash qilmoq va bir hissasi shamshir va qilich urmoq ekanligini ayon qildi. Va aytishlaricha, bir tadbir bilan ancha mulklarni olsa boʻladi va ancha katta sonli lashkarni magʻlub qilsa boʻlurkim, necha lashkarlarni qilich urmoqlari bilan muyassar boʻlmas.

Va tajribamga yetishtikim, bir ish koʻrgan bahodir va

mardona odam va mulohazali va ehtiyotkor va tadbirlik kimsa, ming tadbirsiz va ehtiyotsiz kishidin yaxshiroqdur, chunki bir ish ko'rgan kishi ming kishiga ish buyuradi.

Tajribamga yetishtikim, muxoliflarga g'olib bo'lmoq, lashkar ko'pligi bilan emasdir. Va mag'lub bo'lmoq ham lashkar kamligi bilan bo'lmas, balki g'olib bo'lmoq qo'llab-quvvatlash va tadbir bilandir.

Masalan, men kengashib, Amir Muso va Malik Bahodur o'n ikki ming otliq bilan turgan Qarshi qal'asiga ikki yuz qirq uch kishi bilan keldim, ular qal'aning ichida va atrofida joylashgan edilar. Shunda Tangri Taolo yordami va durust tadbir bilan Qarshi qal'asini egalladim. Va Amir Muso va Malik Bahodur o'n ikki ming otliq bilan kelib, meni Qarshi qal'asida qamalga oldilar va men Tangri Taolo qo'llab-quvvatlashiga tayanib, tadbir va ehtiyot yuzidin qal'adin chiqib, necha bora urushib, o'sha ikki yuz qirq uch lashkarim bilan ularning o'n ikki ming cherikiga zarba berib, necha farsang yo'l ularning izidin quvkladim.

Tajribamga yetishtikim, fikrlash va tadbir va kengashni oq ko'ngullik va hushyor odam bilan qilmoq kerakdir, garchi barcha ishning jarayoni taqdir pardasida yashirindir. Lekin Muhammad Mustafo (alayhi-s-salot va-s-salom) sunnatiga ko'ra, har ishnikim qildim, maslahat va kengash bilan qildim.

Va fikr mulohazali va kengashlik kishilar yig'ilib kelganlari uchun, yaxshi va yomon, foyda va ziyon qilish va qilmaslik bo'yicha har bir oldinda turgan ishni ulardin so'radim va ularning so'zlarini eshitgach, uning ikki tarafini mulohaza qildim va naf-u zararini xotirg'a kelturdim va ul ishning xatarlik yerlarini e'tibor ko'zi bila boqdim va har ishkim unda ikki xatar ko'rdim, uni tashladim. Va har ishkim, bir xatarlik bo'lsa, uni tanladim.

Shu yo'sinda, men Tug'luq (*TNS 103 qo'lyozmada Tug'loq deb yozilgan*) Temurxong'a ul vaqt to'g'ri maslahat berdimki, uning amirlari Jeta dashtida muxoliflik ko'rsatib, unga qarshi adovat bayrog'ini tikib erdilar.

U mendan kengash tiladi va men unga, agar ularni daf qilish uchun qo'shin yuborsang ikki xatar mavjuddir va agar o'zing borsang, bir xatar dedim.

U mening kengashimga amal qilib, o'zi jo'nadi. Shunda ish men aytganday bo'lib chiqdi. Va barcha ishni maslahat bilan amalga oshirardim va durust tadbir etib ish qilur erdim va har ishni boshlashda, so'ngini mulohaza qilib boshladim va yana tadbir va to'g'ri azm-u qaror va mulohaza va ehtiyotga amal qildim.

Tajribamga yetishtikim, ittifoq yuzasidin o'z aytgan so'zini ustidan chiqadigan va inkor qilinishi kerak bo'lgan ishni hech qanaqasiga ma'qullamaydigan va qilmaymiz degan ishlarining yaqiniga ham bormaydigan jamoagina kengash berishga yaraydilar.

Tajribamga yetishtikim, kengash ikki qismdur: biri til uchida va biri chin dildan. Va til uchida beriladigan kengashni eshitib, ko'ngul qulog'ida unga joy berdim va lashkarkashliklar chog'ida va urush va yarashda so'rab, amirlarim urushnimi yo yarashni xohlashlarini ko'ngullaridagi borini bilishga harakat qildim. Va agar sulh va yarash dan so'zlasalar, yarash manfaatlarini urush zarariga qiyoslab o'ylab ko'rdim. Va agar urushdin so'z so'rasalar, uning naf va foydasin sulh zarari bilan mulohaza qildim. Har qaysi nafda g'olib bo'lsa, uni ixtiyor etdim. Va har kengashkim lashkarimni ikki ko'ngillik qilur bo'lsa, uni eshitmoqdin saqlandim. Va har kengash beruvchi ikkilanib kengash aytur bo'lsa, uni qilmadim. Va har odamkim mardona va oqilona so'z aytur bo'lsa, uni eshitdim va hammadin kengash so'rdum, lekin har so'zning yaxshi-yomon tomonini mulohaza qildim va uning to'g'ri va savob tarafin ixtiyor etdim.

Shunday bo'ldiki, Chingizxonning nabirasi Tug'luq Temurxon Movarounnahrni bosib olishga azm etib, Xo'jand suyidin o'tgan chog'da, mening va Amir Hoji Barlos va Amir Boyazidni oldiga chaqirib, yorlig' yubordi va ular mendan kengash tiladilarkim, ahl-u ulusimiz

bilan Xuroson tarafiga borsakmikin yoki borib Tug‘luq Temurxonni ko‘rsakmikan? Va men ularga kengash berib dedimkim, To‘g‘luq Temurxonni ko‘rmoqda ikki foydador va bir zarar va Xuroson bormoqda ikki zarardur va bir foyda.

Va ular mening kengashimni qabul etmay, Xuroson tarafiga kettilar va men Xurosonga borish yoki Tug‘luq Temurxonni ko‘rishda ikki ko‘ngillik bo‘ldim. Bu bobda pirdan kengash tiladim va pir mening javobimda yozib yubordilarkim, «Hazrat Ali (karrama vajhahu)din savol etdilarkim, har qachon osmonlar kamon bo‘lub, yerlar unga kirish joyi, hodisalar uning o‘qlari bo‘lsa va odamiylar anga nishon bo‘lsa, o‘q otg‘uchi Tangri Taolo bo‘lsa, odamiylar qayerga qochsinlar? Va Ali (roziyallohu) javobda buyurdilarkim, odamiylar Xudoga qochsinlar va bas. Sen Tug‘luq Temurxonning oldiga borishing kerak. Va uning oldiga borib, o‘q va yoyini uning qo‘lidin olgaysen».

Va bu javob yetishgandin so‘ng, ko‘nglim quvvat topib, borib Tug‘luq Temurxonni ko‘rdim, lekin har ishdakim unga kengash qaror topti, Qur‘oni majiddin fol ochib, Qur‘on hukmiga amal qilur erdim.

Va Tug‘luq Temurxonni ko‘rish uchun Qur‘ondin fol ochtim, folimga surayi Yusuf tushdi. Va Qur‘oni majid hukmiga amal qildim.

TUG‘LUQ TEMURXONNI KO‘RISHDA KO‘NGLIM SHARQIDAN KO‘TARILGAN AVVALGI KENGASH

Tug‘luq Temurxon Movarounnahr mamlakatini chopmoq va toroj etmakka Bekchik ya Hojibek Erkit va Ulug‘ To‘q Temur va Jetaning yana boshqa amirlari bilan uch qo‘shin qilib tayin etgani qulog‘imga chalindi. O‘sha amirlarning uch qo‘shini Movarounnahr yaqinidagi manzilga tushibdurlar. Tug‘luq Temurxonni ko‘rishga borishdan oldin Movarounnahr viloyatini chopmoq va

talamoqlarining oldini olish uchun avval borib, tamagir amirlarga mol-dunyo berib tinchitay, deb o'zimcha kengash qildim. Va yuqorida zikr etilgan amirlarni ko'rganimda, mening obro'-e'tiborim va salobatim ularga ta'sir qilib, izzat-ikrom yuzasidan oldimga chiqtilar. Va ularning ko'ngullari ko'zlari yanglig' tang va tor erdi, ularga bergan sovg'a-salomim nazarlariga ko'p ko'rinib, Movarounnahrda chopqin yasamoqdin qo'l tortdilar. Va men borib Tug'luq Temurxonni ko'rdim, u meni ko'rganini o'ziga yaxshi fol va irim qilib, mendan kengash talab qildi va mendan har nima eshitsa, qabul etti. Shu asnoda Tug'luq Temurxonning qulog'iga yetdiki, o'sha uch qo'shinning amirlari Movarounnahr ahlidin faloncha tilla olibdurlar. Va u o'sha zahoti shu mablag'ni ulardan olishga soliq yig'uvchilar tayin etti va ularga Movarounnahrda borishni man etib, hammasini amalidan tushirdi. Va Hoji Mahmud Peshavoriyni ularning o'rniga tayin etti.

Bu xabar o'sha amirlarning quloqlariga yetgach, ular muxoliflik va yog'iylik bayrog'ini tikib orqaga qaytdilar. Shunda xonning devonbegisi va kengashchisi Bog'lon xoja bilan uchrashib, uni ham o'zlariga qo'shib, amirlar Jeta tarafiga ravon bo'ldilar. Va o'sha paytlarda Tug'luq Temurxonning amirlari Dashti Qipchoqda muxolifat bayrog'ini tikishibdi, degan xabar keldi.

Buni eshitgach, Tug'luq Temurxon mendin kengash tilab, Jeta dashti tarafiga yuz qo'ydi. Va Movarounnahrni menga topshirib, bu bobda ahd-u yorlig' bitdi va Amir Qorachor No'yonning tumoni (o'n ming kishisi)ni Movarounnahrda qoldirdi.

Va men Movarounnahr viloyatiga to Jayhun suyi qirg'og'iga qadar hukmron bo'ldim. Va bu kengash mening davlat va saltanatim ibtidosida erdi.

Va tajribamga yetibdurkim, bir durust tadbir yuz ming otlig'ning ishini qilur.

IKKINCHI KENGASHNI PODSHOHLIK MAQOMIDA QILDIM

Tugʻluq Temurxon ahdi paymonini buzib, yana bir martaba Movarounnahr mamlakatiga lashkar tortti va Movarounnahr mamlakatini mendan olib, oʻz farzandi Ilyosxoja topshirdi va meni unga maslahatchi va lashkarboshi qilib tayinladi. Bu qarorini Qochuli Bahodir bilan Qubulxonning ahdnomasini koʻrsatib dalilladi. Men ulugʻ soʻzi va ahdi taqozosiga koʻra lashkarboshilikka rozilik berdim.

Oʻzbekiya *(bu oʻrinda moʻgʻul xoni Oʻzbekxon urugʻlari koʻzda tutilgan. Bundan keyin uchragan «oʻzbek» nomi ana shu urugʻ ahllariga taalluqli. Hozirgi oʻzbek xalqi u davrlarda «turkiylar» umumiy nomi bilan atalgan. Amir Temur oʻzini turk ahli deb atagan)* jamoasining zulm va tajovuzi Movarounnahrda kuchayib, yetmish sayyid va sayyidzodani asir etib edilar. Va Ilyosxoja ularning jabr-zulmini man etishda ojiz edi. Men qahrim kelib, oʻzbeklarga tanbih berib, mazlumlarni zolimlar qoʻlidan xalos etdim.

Va bu mani Ilyosxojaning amirlari bilan oʻzbeklarning noroziligiga sabab boʻldi. Tugʻluq Temurxonga noma bitdilar, Temur muxolifat bayrogʻin koʻtaribdur. Va xon ushbu yolgʻon soʻzni rost bilib, mening qatlimgʻa yorligʻ chiqaribdi. Va bu yorligʻ mening qoʻlimga tushib, mutolaa qildim va bergan ahdim vafosi uchun muxolifat qilmay, lashkarboshilikka rozilik berdim.

Bu yorliqni eshitgach oʻlishimga aniq ishondim. Va buning chorasini topish uchun shunday tadbir qildim. Barlos ulusining bahodir yigitlari bilan ittifoq tuzib, ularni atrofimga toʻplayman. Va menga boʻysinib, mening izmimga yurishga rozi boʻlgan birinchi kishi Eku Temur edi. Ikkinchisi amir Joku Barlos va oʻzga bahodirlar ham jon-u koʻngul bilan mening qoʻl ostimga oʻtishga rozi boʻldilar.

Movarounnahr ahli oʻzbekiya xalqiga hamla qilishga

iroda qilganimni bilgach, ularning ko'ngullari o'zbekiya zolimlaridan qaytib, yuz o'giran edilar, Movarounnahr ahlining ulug' va kichiklari men bilan birlashdilar. Ulamo va mashoyix ham o'zbekiya toifasining bartaraf qilishga fatvo yozdilar. Va ba'zi amirlar va ulus va qo'shinlar ham shu ma'noda menga qo'shildilar. Va qilgan ahd-u fatvo mazmunini bir qog'ozga bitib, quyidagicha bayon qildilar: «Xulafoyi Roshidin (payg'ambardin keyingi to'rt xalifa) (rizvon allohu taolo alayhim ajmayin)ning tabiatlari va tutgan ishlariga muvofiqdur. Ulkim, uni islom ahli, lashkar va xaloyiq ahli, ulamo va mashoyix jamoasi yaxshi ko'rib va ulug'labdur, ya'ni saltanat qutbi Amir Temurni podshohlik laqabi bilan musharraf qilibdurlarkim, mol-u jon bilan o'zbekiya toifasini daf qilishga sa'yi harakat qilurkim, ul toifa musulmonlarning mol va asbob va nomuslariga javru zulm qo'lin uzatur erdilar va biz o'z ahd-u paymonimizda oxirigacha turamiz. Agar ahd-u paymonimizga qarshi ish tutsak, Tangri Taoloning irodasi va quvvatidin chiqib, shaytonning irodasi va quvvatig'a kirgaymiz».

Va bu fatvoni menga ko'rsatganlaridan so'ng, urush va savash bayrog'ini ko'tarib, o'zbekiya ustiga cherik chekib, mazlumlarni dodini zolimlardan olishni istadim. Bu kengash bilan otlanib, Amir Kulolni xizmatlariga bordim. Ular menga Xorazm tarafiga azm etkil dedilar. Shundan so'ng men, agar o'zbeklar ustidan zafar topsam, Samarqandning bir yillik molini nazr qilib hazratga topshuraman, deb niyat qildim. Va ul hazrat, ya'ni Hazrat Amir Kulol g'alaba va oq yo'l fotihasin o'qib, menga ruxsat berdilar.

Ul hazratning xizmatlaridin chiqqanimda, o'sha oltmish otlig' yonimda hamroh edi. Mening yurishga chiqqanimning xabarini Xorazmda Ilyosxoja eshitgach, Xayyuqning hokimi To'kal Bahodirga mening ustimga qo'shin tortib, meni yo'q qilishga noma bitdi. Va To'kal Bahodir ming otlig' bila mening ustimga yurish qilib keldi va men o'sha oltmish otlig' kishim va yo'lda kelib menga qo'shilgan Amir Husayn bilan unga ro'para bo'lib, urushmoqqa kirishtim. Uning ming kishisidin ellik kishi va

mening oltmish kishimdin o'n odam qolguncha urushdim, shu ma'noda g'alaba mening tarafimda bo'ldi.

Mening g'alabamning xabari Ilyosxoja va Jeta amirlariga yetgach, bir-birlariga Temur ajab iqqollik va olloh qo'llagan odamdir, deyishibdi. Va bu g'alabani o'zimga yaxshi irim va muborak fol etdim va o'zbeklar mening ishlarimga hayron qolishdi.

O'Z PODSHOHLIGIMNI TIKLASHDA AMALGA OSHIRGAN UCHINCHI KENGASHIM

Davlatimning ahvoliga putur yetib, saltanatim bunyodiga shikast yetgan edi. O'sha paytda mening bilan o'n kishidin ortiq odam hamroh emas edi va ularning ham yettisi otliq va uchovi piyoda edi. Mening qoshimda ulardan o'zga kishi qolmagan edi. Mening muhtaram turmush o'rtog'im bo'lgan Amir Husaynning hamshirasi-ni otimga mingashtirib, Xorazm sahrosida sargardon kezar edim.

Bir oqshom bir quduq boshiga tushdim. Shu kuni oqshom o'sha haromi uch bevafo piyoda uch otni minib qochdilar. Shundan so'ng yetti kishining orasida to'rt ot qoldi va men og'ir ahvolga tushib qolgan edim, lekin ko'nglim xotirjam edi. Hatto dilimdan o'tganlarini birovga bildirmadim va yanglishmadim.

Bu quduq ustidan ravon bo'ldim. O'sha vaqtda Alibek ustimga bostirib kelib, meni eltib burga bilan to'lgan bir uyga qamadi va menga posbonlar tayin etib, oltmish ikki kun meni bandda saqladi. Shunda o'z-o'zim bilan kengash qildim va bu kengashim Tangri Taolo qo'llab-quvvatlashi bilan foyda berib, epchillik bilagi bilan posbonlardan bir qilichni tortib olib, ularga hamla qildim. Shunda ular qochib ketdilar.

Undan so'ng men Alibekning oldiga bordim va Alibek meni tutqunlikda asraganidin uyalib va sharmanda bo'lub, uzrxohliq qilib, mening yaroq va otlarimni qaytarib berdi.

Va menga bir oriq ot bilan bir notavon tuya sovg'a qildi. Va birodari Muhammadbekning yuborgan sovg'a-salomlaridan tama qilib, bir qismini o'ziga olib menga ruxsat berdi. Men Xorazm biyoboni tarafiga ravon bo'ldim. Shunda o'sha o'n otlig' mening yonimga jam bo'lib, ikki kundan so'ng bir mintaqaga yetib keldik va bir uyga tushdik.

Shu asnoda u yerdagi turkmanlardan bir jamoa, meni o'g'ri deb o'ylab hamla qildilar va men Amir Husaynning hamshirasini uyda qo'yib, o'zim ul jamoatga qarshi jangga otlandim. Shu vaqtda turkmanlar orasidagi hoji Muhammad otlik bir kimsa meni tanib: «Bu Amir Temur-ku!» deb baqirdi va odamlarni urush qilmaslikka chaqirdi. Mening oldimga kelib tiz cho'kdi va men unga tasalli berib, o'z ro'molimni uning boshiga soldim. Va u birodarlari bilan kelib menga mulozim bo'ldilar.

TO'RTINCHI KENGASHNI SALTANATIM BOSHLARIDA QILDIM

Mening qoshimda oltmish otlig' yig'ilgach, o'zimcha kengash qildimki, agar ushbu tushgan mintaqada iqomat qilsam, mabodo bu yerning odamlari meni tutib, o'zbekiya jamoasiga xabar yetkazgaylar. Bu mintaqadan chiqib, odamlar yashaydigan joydan yiroq bir sahroda tushishni ma'qul ko'rdim, toki qoshimda lashkar jam bo'lib, ul yerdin Xuroson tarafiga ravon bo'lgaymen.

Alqissa, Xuroson sari ravon bo'ldim. Yo'lda Moxon hokimi Muborakshoh Sanjariy yuz otlig' bilan qoshimga kelib, yaxshi otlar tuhfa qildi. U yerning sayyidlari va o'zga odamlaridan ham bir jamoat menga qo'shilib, ul sahroda menga ikki yuzga yaqin otlig' va piyoda hamroh bo'ldi. Shunda Muborakshoh va Sayyid Hasan va Sayyid Ziyovuddin bu sahroda turish parishonlik va parokandalik boisidur deb menga arz ettilar. Biron tarafga borish kerak va yashash uchun bir viloyatni qo'lga kiritish kerak, deyishdi.

Va men o'zimcha kengash qilib, ularga xotirimga bu kengash keldiki, Samarqand tarafiga borgaymiz va sizlarni muzofot hududida tarqatib, o'zim Samarqand tegrasi-ga borgaymen va el va ulus orasiga kirib, ularni o'zimga ittifoqdosh qilgaymen, dedim. Va bir lashkar jam etib, sizlarni oldinga chaqirib, Jeta va Ilyosxojaning lashkari bilan urushgaymen. Va Movarounnahr mamlakatini qo'lga kiritgaymen, dedim. Va ularning hammasi mening ushbu kengash va tadbirimni qabul etdilar. Shu bilan otlanish fотиhasini o'qib ravon bo'ldim.

Va mana shu ikki yuz kishini Buxoro atrofida tarqatib, Amir Husaynning singlisi Turkon og'ani o'sha manzilda yashirib, o'zim Samarqand tarafiga ravon bo'ldim. Va Tamuka Tuchin o'n besh otlig' bilan kelib yo'lda qo'shildi. Shunda unga o'z sirimni aytib, uni Muborakshohning qoshiga yubordim va o'zim uluslar orasiga kirib, ikki mingga yaqin kishini o'zimga ittifoqdosh qildim. Ular qachonki men Samarqandda podshohliq tug'in tiksam, o'zlarini menga yetkazishadigan bo'ldilar.

Shundan so'ng kecha ichida Samarqandga kirib, ulug' opam Qutlug' Turkon og'oning uyiga borib manzil qildim va oqshom-u kunduz fikr-u tadbirda bo'ldim. Qirq sakkiz kunni yashirin holatda o'tkazdim. Shahar odamlaridan ba'zilari kelishimdan ogohlik topib, sirim oshkora bo'lishiga oz qoldi. Nochor shaharda hamrohim bo'lgan Malik otlig' kishi bilan oqshom ichida Samarqanddan chiqib, Xorazm tarafiga yo'l oldim. Piyodalardan ham bir jamoat menga hamrohliq qildilar va yo'lda turkmanlar galasidan necha otni qo'lga kiritib, piyodalarimni otlig' qildim. Va kelib Ochiqi mintaqasida Amudaryo suvi bo'yida bir past-baland yerda tushdim.

Va ushbu joyda haram ahli va Muborakshoh va Sayyid Hasan va men Buxoro atrofida qo'ygan jamoat kelib menga qo'shildilar. Va Temurxoja o'g'lon va Bahrom Jaloyir o'z qo'shinlari bilan kelib, xizmat va mulozimat qildilar va mening oldimda mingga yaqin otlig' jam bo'ldilar.

O'ZIMCHA [BESHINCHI] KENGASH QILIB, BOXTAR ZAMIN VA QANDAHOR TARAFIGA RAVONA BO'LDIM

Va ul mulkni qo'lga kiritdim. Shunday qilib, Boxtar zamin va Qandahor tarafiga yetib borgach, Hirman suyi (hozirgi nomi Hilmand) yoqasiga tushib, u yerda o'zim uchun bir yurt etdim.

Va necha kunlar lashkarga dam berib, suv bo'yida iqomat qildim. O'sha kunlari Garmser viloyatining lashkar va raiyatlari menga kelib qo'shilib, yana turk va tojikdan mingga yaqin otlig' qoshimda yig'ildilar. Shundan so'ng Garmser viloyati qo'lga kirdi.

Va o'sha vaqtda, Siyiston viloyatiga chopqin yasashga kengash qildim. Va bu xabar Siyiston viloyatining hokimiga yetgach, sovg'a va salomlar yuborib: «Dushmanlardin bir jamoa menga zulm etib, mulkimdin yetti qal'ani **egallabdurlar**, – deb mendan madad talab qildi. – Agar dushmanlar mendan qo'l tortishsa, lashkarning olti oylik maoshini yetkazurman», deb va'da qildi.

Va shunda kengash qilib, Siyiston tarafiga otlandim va u yerga borib, uning dushmanlari egallagan yetti qal'adan besh qal'ani kuch ishlatib bosib oldim. Shunda Siyiston hokimining ko'ngliga xatar tushib, dushmanlarini o'ziga do'st etib, agar Amir Temur bu mulkda iqomat qilur bo'lsa, mulk bizning qo'limizdan ketkusidur, deb kengash qilishibdi. Shundan so'ng Siyiston mamlakatining barcha lashkar va aholisini to'plab, mening ustimga keldilar. Siyiston voliysi o'z ahdigaga vafo qilmaganini ko'rgach, nochor ularning yo'lini to'sib, urushga mashg'ul bo'ldim. Shunda egnimga bir o'q tegdi va yana bir o'q kelib oyog'imga tegdi. Oxir ular ustidan zafar qozondim va bu mulkning suv va havosi mizojimga to'g'ri kelmagan uchun, u yerdin ko'chib, Garmserga keldim. Va to zaxmlarim yaxshi bo'lguncha ikki oy u viloyatda iqomat qildim.

OLTINCHI KENGASHNI PODSHOHLIK MANSABIGA KO'TARILISHIM CHOG'IDA QILDIM

Garmser viloyati qo'lga kiritilgach va yaralarim ham bitgach, shunday kengash ko'rdimki, borib Balx tog'istonida iqomat qilaman va u yerda to'planishib, cherik yig'ib, Movarounnahr mulkini qo'lga kiritishga yuz qo'yaman. Va chun bu kengashga qaror qildim, otlandim va o'sha qirq otlig'ning barchasi mening bilan hamroh edilar, ammo hammasi asil va aslzoda-amirzoda erdilar.

Tangri Taologa shukr etdimki, shunday parishonlik kunlarda bunday odamlar hech kim ularni majbur qilmasa ham, hech qanaqa maosh berilmasa ham kelib hamrohliq qilib, menga itoat qilishga rozi bo'lyaptilar va o'z-o'zunga dedimki, Tangri Taoloning menga lutfi ko'pdurki, bu yangi odamlarni hammasini menga mo'te etibdur.

Alqissa, undan so'ng Ko'histon tarafiga yurish qildim va yo'l asnosida, Yulduz binni Qorachor avlodidan bo'lgan Siddiq Barlos meni izlab sargardon kezib, o'n besh otlig' bilan kelib menga qo'shildi. Va men uning kelganini yaxshi irim bildim va bu kunlarda ov go'shti bilan vaqt o'tkazar edim va ilgari yurdim. Yo'l asnosida qarasam, bir jamoa bir qiyalik ustida turishipty va borgan sayin ko'payishmoqda. Va u yerda turib ularga qarovullarni yubordim, to xabar kelturgaylar. Va qarovullar ul jamoatga yetishib, Amirning qadimiy navkari Qironchi Bahodur ekan, yuz otlig' bilan Jeta lashkaridin ajralib, Amirni izlab sargardon yurgan ekanlar, deb xabar keltirdilar. Va men Tangri Taologa shukr etib, Qironchini huzurimga keltirishga amr etdim.

Va ul kelib tiz cho'kib oyog'imni o'pti va men unga tasalli berib, boshiga ro'molimni soldim. Shundin so'ng Arsaf darasiga yo'l oldim va bu daraga yetib u yerda manzil qildim. Va so'ng otlanib u daraga kirdim va u daraning o'rtasida bag'oyat xushhavo bir balandlik bor edi. Va men borib shu balandlik ustida joylashdim. Mening lashkariylarim atrofida joylashdilar. Men o'sha jum'a

oqshomida qaytadan jonlandim va kechasi bilan ko'z yummay bedorlik bilan o'tkazdim. Tong otgach namozga mashg'ul bo'ldum. Namozdin so'ng, qo'l ko'tarib duo qildim va duo qilurda ko'nglim buzilib, Tangri Taolodin menga bu sargardonlikdan najot berishini so'radim.

Va hanuz duodin forig' bo'lmagan ham edimki, yiroqdan o'sha balandlik yonbag'ridan o'tayotgan bir qo'shin ko'rundi. Va men o'tlanib, bular qanday odamlar ekan, ahvolni aniqlay, deb bu qo'shin izidan bordim. Va bularning hammasi yetmish otlig' ekan. «Ey bahodirlar, sizlar qanday kishilarsiz?» – deb ulardan so'radim.

Ular: «Biz Amir Temurning navkarlaridurmiz. Amirni izlab yuribmiz va uni topa olmayotibmiz», dedilar. Va men ularga: «Men ham Amirning navkarlaridan biridurmen, sizlarni boshlab Amirg'a yetkazsam, qanday bo'ladi?», – dedim. Ularning biri ot choptirib: «Bizlar Amirga yetkazadurgan bir rahbar topdik», – deb sardorlariga xabar yetkazdilar. Ular otlarining jilovini tortib, meni huzurlariga keltirishga hukm etdilar. Va ular uch qo'shin edilar, avvalgi qo'shinning sardori Tug'loq xoja Barlos edi. Ikkinchi qo'shinning sardori Amir Sayfuddin edi. Va uchinchi qo'shinning sardori Buyuk Bahodir edi. Ularning nazarlari menga tushishi bilan, o'zidan ketib, otdan tushib, tiz cho'kib, uzangimni o'ptilar. Va men ham otdin tushib, har qaysisini quchog'imga oldim. Va ro'molimni Tug'loqxojaning boshig'a solib, yaxshilab bezatilgan va zar bilan to'qilgan kamarbandimni Amir Sayfudinning beliga bog'ladim va to'nimni Buyuk Bahodirga kiydurdim. Va ularning ko'ngli bo'shab, ko'zlariga yosh oldilar. Va mening ham ko'nglim bo'shashdi. Va namoz vaqti bo'lgan edi. Jamoat bilan namoz o'qib, o'tlanib yurtga kelib tushdik.

Shundin so'ng majlis qilib to'y berdim. Va so'nggi kun, kichiklik va yoshlik vajhidin mendin ayrilib ketgan va ko'nglida Hinduston yerining irodasi bo'lgan Bahrom yetib kelib, menga mulozamat qilib, uzrxohliq ko'rguzdi va men uni yonimga olib, uzrini qabul etdim. Va ul miqdor mehribonliq qildimki, xijolatdin chiqti.

YETTINCHI KENGASHNI TAXTGA CHIQISH AYYOMIDA QILDIM

Lashkarim soni uch yuz o'n uch kishi bo'lganini ko'rgach, o'zimcha, avval, Ilyosxoja tarafidin Mengli Bug'o Sulduz bu qal'ada bo'lgan Olochu qal'asini ishg'ol qilamen, deb qaror qildim. Shu qaror bilan Olochu qal'asiga ravona bo'ldim.

Sher Bahromning qadimdan Mengli Bug'o bilan tanishligi bor edi. Men borib Mengli Bug'oni el qilurmen, deb iltimos etti. Sher Bahrom qal'a tegrasiga borgach, Mengli Bug'o, bu qal'ani Ilyosxoja menga topshirgan, agar men Amir Temurga el bo'lub, qal'ani topshirsam, mardlikdin yiroq va muruvvatdin qiroqdur deyapti, deb menga xabar berdi.

Va qal'ani bermoqdan bosh tortdi. Lekin shunisi borki, mening kelganim xabaridan ko'ngliga vahima tushib, qal'ani tashlab qochmoqqa yuz qo'ydi.

Va Ulonjodan qavmidin uning bilan birga qal'ada bo'lgan uch yuz odam, qadimdan mening mulozimlarimdan edilar, kelib menga qo'shildilar. Va ham ul vaqtda Balx tegrasiga chapovulga kelgan Tumon Bahodirning o'g'li Ilmos, mening tushkanimni eshitib, ikki yuz otlig' bilan kelib mening xizmatimga kirdi. Va men unga tasalli berib, ko'nglini ko'tardim.

Va bu yerdin, Termiz suyidin o'tib Jeta lashkarining xabarini keltirish uchun va ularning iroda va kengashidin ogoh bo'lgaylar, deb Tamuka Bahodirni uch otlig' bilan yubordim. Va Tamuka to'rt kundan so'ng kelib, Jeta lashkari Termiz viloyatiga yetib kelib, qatl va g'oratga mashg'uldurlar, deb xabar yetkazdi. Bu xabar menga yetgach, Darakez tarafiga yo'l oldim. Va munda kengash ko'rdumki, borib Darakezda iqomat qilamen va qulay vaqt topib Jeta lashkari ustiga bostirib boramen. Darakezga kelib, Elchi Bug'o maydonida Jayhun suyi qirg'og'ida tushdim.

Va mening Darakezga kelganimning xabari Ilyosxoja-ga yetgach, qo'shinlarini mening ustimga hujum qilishga tayin etti. Va ul vaqtda xabar yetishdikim, Jeta lashkaridagi Amir Sulaymon Barlos va Amir Muso Barlos va Amir Jaloluddin va Amir Hinduka Barlos, Jeta amirlaridan yuz o'girib, o'z lashkaridan ajralib, Ko'hna Termizga yetib kelibdilar. Va mening qoshimga yuborgan To'lon Bo'g'o, mening xizmatimga yetib kelib, ular ming otlig' bilan mulozimligimga kelayotgani xabarini arz etdi.

Ular kelishini o'zimga yaxshi irim qildim. Ular menga kechasi Jeta lashkariga hujum uyushtirish kerak, deb kengash berdilar. Men bu ishga otlanganimda Jeta lashkari yetib kelayotipti degan xabar yetdi. Va men o'z qo'shinlarimni tuzuk qilib, ular qarshisiga chiqdim. Va ularning lashkari bilan mening lashkarim orasida suv to'sig'i bor edi.

Shu asnoda bu yangi kengash ko'rdimki, muxoliflarni so'z va hikoyat bilan saqlab, qo'zg'alon o'tini tadbir suyi bila o'chirayin va ularni o'zimga rom qilayin. Va Abu Said nomli Jeta lashkarining sardoriga so'z aytdim va u aytgan gaplarimga ko'ndi, lekin o'zga amirlar unga qarshi chiqib, urushga qaror qildilar va mening ham g'ayratim o'ti shu'la chekib, o'z qo'shinlarimni tuzuk va tartibga keltirdim.

SAKKIZINCHI KENGASHNI JETA LASHKARIGA ZARBA BERISHDA QILDIM

O'z-o'zimga dedimki, agar Jeta lashkari bilan urush qilsam, ular ko'bdurlar, mabodo mening lashkarimga bir shikast yetishsachi, deb o'zimcha o'yladim. Shu holatda g'ayratim jo'shib, podshohlik da'vosi bilan chiqibsanmi, podshohlik martabasining loyiqi shuldurki, urushga azm etkaysen, yo zafar qozonib g'olib bo'lgaysen, yo o'lgaysen dedim.

Shunday azm-u qarorga kelgach, ko'rdimki, dushman uch qo'shin bo'lib, urush talab qiladur va men lashkarimni yetti qo'shin etdim va kengash qildimki, yetti qo'shinni

ularga birin-ketin yuboram. Va urush va savash o'ti avj olgandan so'ng hirovul (oldingi saf) toifasi kamondan o'q yog'dirish bilan mashg'ul bo'lsinlar, deb buyurdim va shig'ovul va chapovul (zarbdor guruhlar)ga amr etdimki, chapovul qilmoq bila bo'lsunlar va o'zum juvong'ar (o'ng qanot) va burong'ar (chap qanot) qo'shinlari bilan harakatga kirdim va avvalgi va ikkinchi hamlada Jeta lashkarining amir ul-umarosi bo'lgan Amir Saidning qo'shinlarini ko'tardim.

Shunda Haydar Andxuy bilan Mengli Bug'o jangovarlik va bahodirlik ko'rsatib, ro'paramga keldilar.

Va men tanho o'zim ularga yuzma-yuz bo'lib, avvalgi hamlada ularni tirqiratib, parishon qildim. Shundan so'ng Jeta lashkarining barchasi tarqalib, parokanda bo'lib ketdilar.

TO'QQIZINCHI KENGASHNI PODSHOHLIGIMNI TIKLASHDA QILDIM

Jeta lashkari amirlari ustidan zafar topgach, mening paydo bo'lganim xabari keng tarqaldi. Shunda adl va insof bilan ish buyursam va zolimlar qo'lini mazlumlardan qisqartirsam va xarob bo'lgan mamlakatni aholi va jamiyat bilan obod etsam va viloyatning yomonlarini yiroq mamlakatlarga yuborsam yo saltanatim qarorgohiga keltirib mahbus etsam, to mamlakat aholisi farog'at bilan mulk obodligiga sa'yi harakat qilsalar, deb niyat qildim.

Va yana saltanatim kengashini munda topdimki, jam etgan xazinamni ulashturgaymen va avval Qahlaqa qal'asini ishg'ol qilgaymen. Shu maqsadda lashkarimga pul berib, tuzuk va tartibga keltirdim. Jayhun qirg'og'iga yetib, Termiz kechuvidan o'tib, Qahlaqa sariga qarovullar yubordim. Va Jayhun suyi yoqasida necha kun iqomat qilib, qarovullar xabariga muntazir bo'ldim.

Mening xabarim Ilyosxoja'ga yetib borgach, Bekchik Bahodirning birodari Ipmun Bahodirni lashkar bilan mening ustimga hujum qilishga tayin etib yubordi. Va

mening qarovullarim g'ofil bo'lib, uyquga borganda, Ipmun Bahodir ulardin o'tib, kecha ichida kelib, menga tungi hujum uyushtirmoqchi bo'ldi. Va mening tushgan yerim shunday orol ediki, uning uch tarafi suv edi va orol tashida bo'lgan bir necha chodir Jeta lashkari torojiga ketti. Va odamlari kelib orolga kirdilar va men urushga tayyor bo'lib, orol yoqasida turdim. G'animning ko'ziga ko'rinmaganim sababli urushumga kelmadilar.

Va men to o'n kunga tegru o'sha oroldan chiqib, suv qirg'og'ida bir oy muddat, toki g'anim qo'rqib iziga qaytmaguncha Jeta lashkari qarshisida turdim. Undan so'ng men suvdin o'tib, ularning manziliga qo'ndim va bir jamoani ularning keynidin yubordim.

O'NINCHI KENGASHNI PODSHOHLIGIMNI MUSTAHKAMLASHDA QILDIM

Jeta lashkarini tor-mor qilgach, borib Badaxshon viloyatini olib, saltanatim ishlariga rivoj berishni ma'qul topdim. Bu kengash bilan suv yoqasidan ko'chib, Xulm mintaqasida tushdim. Shu yerda uning singlisi mening uyimda bo'lgan Amir Qazag'onning nabirasi Amir Husayn kelib, bir-birimizga mulozamat ko'rsatdik va to'ylar berdik.

Va kengashni munda topdimki, Badaxshonga bor-gaymen. Kunduz mintaqasiga yetib borgach, el yo'ldaroy sardorlari yig'ilib kelib menga qo'shulgunlaricha shu manzilda iqomat qildim. Har qaysisiga sarpo berib, tasalli ko'rguzdim. Mening lashkar tuzganim xabari Badaxshon shohlariga yetgach, urushga tayyorgarlik ko'rdilar.

Va shunda kengash ko'rdumki, ildamlilik qilib, ular lashkarini jam etkuncha qo'ymay zarba berayin. Bu kengash bilan ilg'or etib, Toluxonga yetib keldim. Mening Toluxonga yetganim xabari shohlar quloqlariga yetgach, murosa va madora yuzasidan kelib mulozamat qildilar. Va men ushbu kengashimdin rozi bo'ldim va ko'rdimki, xato qilmagan ekanmen. Va mening podshohligim Badaxshon viloyatida rivoj topti. Va Badaxshon viloyatining ko'p lashkari kelib, mening xizmatimni ixtiyor etdilar.

O'N BIRINCHI KENGASHNI SALTANATIM RIVOJIDA QILDIM

Badaxshon shohlari itoatimga kirgach, Xatlon tarafi-ga ravon bo'ldim. Va Xatlon mamlakatiga kelganimdan so'ng, Amir Husaynning yomon muomalasi tufayli Po'lod Bug'a bilan Sher Bahrom judo bo'lib, o'z ulusiga kettilar.

Va men borib Kulak dashtining vodiysida iqomat qildim. Va josuslar tayin etdimki, borib Jeta lashkaridan va Ilyosxojadan xabar keltirgaylar. Va josuslar o'n kundan so'ng xabar keltirdilarki, Jeta amirlari Bekchik Temurning o'g'li Kuch Temur va Temur Ko'bkon va Soriq Bahodir va Shabkum va Xojibekning birodari Tug'luqxoja yetakchiligidagi yigirma ming otlig' bilan Xaloqi mintaqasidan to Toshko'prikka tegru tushubdurlar. Va mening qoshimga elchi yuboribdurlarki, mening va lashkarimning ahvolini anglagaylar.

Va men lashkarimni elchining nazaridan ikki qatla o'tkazib, elchiga ruxsat berdim. Va kengashimni munda topdimki, elchining keynidin ravon bo'lgaymen. Lekin lashkarim mening fikrimga qo'shilmadilar. Va men lashkarimni o'zimga hamfikir qilishda mundoq kengash ko'rdumki, ba'ziga muruvvat, ba'ziga madoro qilgaymen va bir jamoani mol bilan aldab va bir jamoani so'z va ahd-u paymon bilan tasalli bergaymen.

Va bu holda xabar yetishtiki, mening navkarlarimdan bo'lgan Tug'loq Sulduz bilan Kayxusrav Jetaning olti ming lashkarini boshlab, mening ustimga hujum qilishga kelurlar. Va chun bu xabar lashkarim quloqlariga yetishti, ularning parishonxotirligi yanada ortib, o'ylanib qoldilar, lekin Amir Joku va Eku Temur va Amir Jaloluddin men bilan bir tan bir jon edilar.

O'N IKKINCHI KENGASHNI LASHKARIMNI BIRLASHTIRISH BOBIDA QILDIM

Amir Joku va Eku Temur va Amir Sulaymon va Amir Jaloluddinni xilvat va tanholikda oldimga chaqirib, ularni mening tarafimni olishga ko'ndirishni istadim. Ular bilan pinhona uchrashib, ularga aytgan so'zim shu bo'ldiki, ularni davlatimga sherik etdim, toki o'z izzatlariga qat'iy ishonch hosil qildilar. Mening tarafimga o'tmagan qolgan toifani bir-birdin xilvatga chaqirib, har qaysi bila alohida suhbat tutdim. Va ulardan ochko'z va tamagirlarini mol-u dunyo bilan aldadim va ul jamoakim nazarlari joh-u yuqori amal va mansab va mamlakatga egalikka ko'z tikkanlarini, mulk-u viloyatdin menga bo'ysungan yerlarni ularning nomiga yozdirdim. Va o'zga lashkarni luqma va kiyim-kechakka umidvor etib, chuchuk tillik va ochuq yuzlik **bilan ularni ko'nglini ovladim va qilgan xizmatlarini birini o'n hisobida tutib, hammasini xushdil qildim.** Shu bilan muvofiq va munofiq hamma mening tarafimga o'tib, ahd-u paymon bog'ladilarki, men bilan hamdillik va jonfidolik qilurda hech qachon ahdidan qaytmagaylar. Xotirim lashkardan jam bo'lgach, Ilyosxojaning urushiga tayyor bo'ldim.

Va uni hujumini qaytarish va urushining ravishida shunday kengash qildimki, ildamlilik qilib, burunroq tebranib, ul xabar topmasdin burun, unga turktoz va chapovul qilamen. Bu bobda Qur'oni Majiddin fol ochdim. Shunda folimga bu oyati karima chiqti: «Qanchadan-qancha kichkina guruhlar Ollohning izni bilan katta guruhlar ustidan g'alaba qozongan»¹. Va bu bashorat ta'sirida lashkarimni tuzuk qilib va yetti qo'shin tartib berib ravon bo'ldim. Va tong vaqti hirovul bo'lib kelayotgan Tug'loq Sulduz bilan Kayxusravning ustiga yetib, ikkilamchi hamlada ularni bosilturub, to Toshko'pruk yaqiniga

¹Qur'on, Baqara surasi, 249-oyat.

tugrukim, Ilyosxojaning manzili edi, ularni quvlab bosib bordim.

Oqshom tushishi bilan yetib borgan yerimda tushtim va o'z-o'zumga kengash qildimki, urush maydonini sovutmay, issig'ida va tez-tez o'ttuz mingga yaqin Ilyosxoja lashkarining ustiga chapovul qilayin. Va kengash qildimki, agar to'xtab qolsam, mabodo bir ish ro'y berib, uning ilojida ko'makka muhtoj bo'laman.

Amir Husayn mening ortimda manzil qilib edi, uning ko'magiga muhtoj bo'lmay, durust kengash bilan Ilyosxojani ustidan g'olib chiqdim.

O'N UCHINCHI KENGASHNI JETA VA ILYOSXOJANING LASHKARI USTIDAN G'ALABA QILISHDA AMALGA OSHIRDIM

Avval Ilyosxojaning lashkarini zarbdor bo'linmalaridan bir jamoa bilan bir muddat saqlayin.

Bu jihat bilan Amir Muayyad Arlot va Uch Qora bahodir va Amir Musoni ikki ming kishi bilan ko'pruk ustida Ilyosxojaning barobarida qo'ydim va o'zim besh ming otlig' bilan suvdin o'tib, Ilyosxoja lashkariga yaqin bir toqqa chiqdim va lashkarimga buyurdimki, oqshom ichida o'tni ko'p yoqqaylar. Va Jeta lashkarining nazari bu o'tlarga tushgach va ko'pruk ustida ham ulug' qo'shin va lashkarni ko'rgach, bezovta va beorom bo'lib, ul oqshomni Ilyosxojaning lashkari urushga tayyor holda o'tkazdilar.

Va men ul oqshom tog' ustida Tangri Taolo dargohig'a ajz-u niyoz aytarga mashg'ul bo'lub, Hazrati Rasuli akram (sallallohu alayhi vasallam) va uning oli va ashobiga ham salavot aytdim va uyqu bilan uyg'oqlik orasida qulog'imga bir ovoz keldi. Bir kimsa: «Ey Temur, fath-u zafar sengadur» – dedi. Tong otishi bilan, namozni jamoat bilan o'qidim, ul vaqt ko'rdumki, Amir Ilyosxoja barcha amirlari bilan o'tlanib, guruh-guruh bo'lib ravon bo'ldilar.

Mening amirlarim mendan ularning izidin borish hukmini tiladilar. Va men o'zim bilan kengash qildimki,

ularning izidin borishga shoshilmaslik keraktur, toki maqsadlari ma'lum bo'lgay. Va ular to'rt farsang yo'l yurib tushtilar va men alarning kengashlarini bildimki, maqsadlari meni tog'dan quyiga tushirib, maydonga kelturgaylar. Undan so'ng urush boshlagaylar. Va men zarba bergan hirovul amirlari, Ilyosxojadan panoh tilab kelgan edilar va u amirlarga ta'na qilib tanbih bergan edi. Bu vaqt ko'rdilarki, men ularning kengashlaridin voqif bo'lib, tashqari chiqmadim. Nochor qaytib menga choptilar. Va men mundoq kengash topdimki, tog' etagida bo'linmalarimni tuzuk qilib urushga kirayin.

Jeta lashkari kelib, tog' etagini olib urushni kutib turgan paytlarida men bahodirlarga amr etdimki, muxoliflarni o'qqa tutgaylar. Va ular shunday qilib muxoliflardan ko'b kishini yarador etdilar. Va oqshom tushgach ko'rdilarki, hech ish eta olmog'usidurlar. Tog'ni qamalga olish uchun tog' etaklarini o'radilar. Va men ul oqshom mundoq kengash topdimki, lashkarimni to'rt bo'linma etib, ularga o'zim hamla qilib chopqin yasagayman. Va bu kengashim amirlarim ko'ngliga o'lturdi va ma'qul tushti, tongga yaqin otlanib, to'rt tarafdin muxoliflarga chopqin yasadim. To Jeta lashkari o'zlariga kelguncha, mening bahodirlarim ularni parokanda va parishon etib, ikki tarafdin urush kishilari o'ldilar. Shu bilan Jeta lashkari «alfaror» (qochdik) deb, qochmoqqa yuz qo'yidilar. Va men Ilyosxojaning yaqiniga yetib borib: «Yo'l bo'lsin?» – dedim. Va mening ovozim Ilyosxojaning qulog'iga yetgach, g'azab yuzidin lashkariga qichqirdilar. Va lashkariylari qaytib, to oftob chiqquncha ikki lashkar orasida otishmoq va urushmoq davom etdi. Sog'doqlarda o'q qolmagandan so'ng, g'animlar qochmoqqa yuz qo'yidilar, to ulki to'rt farsanglik yerda yurtlari edi, u yerga shikastahol borib tushtilar.

Va men ham ular keynidin qolmay borib, o'sha yer yaqinida tushdim. Jeta lashkari o'zlarini mag'lub va xo'rlangan ko'rdilar, qaytadan urush qila olmadilar. Va men lashkarimni Ilyosxoja lashkarining tegrasida taratib, urush qilishga kirishtim.

Shunda Ilyosxoja chiday olmay, Xo'jand suyidin o'tdi. Undan so'ng men ham ular keynidin bormoqni qo'yub, g'olib va zafar bilan Movarounnahrqa qaytdim.

UNDAN SO'NG SALTANATIM ISTIQLOLIDA KENGASH QILDIM

Va bu kengashlar shulardan iborat edi: amirlarim har qaysinisi o'zini buyuk amir bilib, o'zlarini bir-biridin ulug'roq tutar edilar. Ularni o'zimga bo'ysindirib, mute qilishni xohladim. Avval Movarounnahrda podshohlik nog'orasini chalib, saltanat tug'ini tikkan Amir Qazag'anning nevarasi Amir Husaynni o'zimga sherik qilib, u bilan madoro qildim. Va u garchi yuzaki menga do'stlik izhor etar edi, ammo hamisha nifoq va hasad maqomida edi.

Va Movarounnahrda o'zi podshoh bo'lishni istardi. Unga ishonchim yo'q bo'lgani uchun Xoja Shamsuddin ning mazoriga eltib, ont ichirdim va menga do'stlikka xilof ish qilmayman, deb ahd va so'z berdi. Va yana uch qatla Qur'oni Majiddin do'stligim bobida ont ichdi. Ahdu paymonni buzgani oxir uni mening qo'limga tushishiga sabab bo'ldi.

Amir Bayon Sulduzning o'g'li Shayx Muhammad o'zini ulug' amir tutar edi, uni oldimga chaqirib, yetti qo'shin el bila o'zimga mute va mulozim qildim. Va o'zim bilan kengash qildimki, Xudo bordur va unga sherik yo'qtur, bas, uning mulkining egasi dog'i bir bo'lmog'i keraktur.

Va bu chog'da Bobo Alishoh mening qoshimga kelib dediki: «Ey Temur, Tangri Taolo buyurubdurki, agar yerda va osmonda ikki Xudo bo'lsa, olamga fitna tushgusidur». Va men uning so'zi bila hidoyat topib, Qur'oni Majiddin fol ochdim. Shunda ushbu oyati karima folimga chiqti: «Inna jaalnaka xalifatan fil arz» («Biz seni yer yuziga xalifa qildik»)¹.

Va bu folni muborak va yaxshi irim bildim va davlat

¹Qur'oni karim, Sod surasi, 26-oyat.

va saltanatga o'zlarini sherik bilgan amirlarni mute etarga kengashlar qildim. Va avval Amir Hoji Barlosning manzil va yurtig'a borib, uni o'zimga ittifoqdosh qildim. Va Amir Bayon Sulduzning o'g'li Amir Shayx Muhammad hamisha sharob ichib, g'afiat va beg'amlik bilan kun kechirar edi, oxir qilmishlari jazosiga giriftor bo'lib, olamga vido etti.

Uning viloyatini tasarrufimga oldim. Va Amir Boyazid Jaloyir Xo'jand viloyatini o'z qaramog'iga olgan edi, unga nasihat qildim, ammo nasihatim asar qilmadi, to ulkim ulus odamlari unga qarshi hujum qilib, uni tutib qoshimga keltirdilar.

Va Elchi Bug'a Sulduz Balxda podshohlik bayrog'ini tikkan edi. Va Amir Husaynkim, bobosi Amir Qazag'onning taxtgohini talab qilur edi, unga egallab turgan joyini tashladim. Muhammadxoja Opardiykim, aymoqlardan menga qo'shilgan edi, Shibirg'on viloyatlarig'a tarqalib, menga muxolifat va yog'iylik ko'rsatardi.

Unga boshqa viloyat berib, uni o'zumga navkar qildim. Va menga muxoliflik qilib yurgan Badaxshon viloyatlarini tasarrufimga kirgizib, har qaysisiga muloyimat va sozgorlik qildim.

Ular bir-birlariga nosoz va murosasiz bo'lib, hammalari mening oldimga keldilar. Va Kayxusrav va O'ljoyturdi Xatlon va Arhang viloyatiga egalik qilib tarqalib ketgan edilar. Kayxusravga madad va ko'mak yubordim, to borib O'ljoyturdining viloyatini egalladi. Shunda O'ljoyturdi panoh so'rab mening oldimga keldi.

Va Amir Xizr Yasuriy va Axtom Yasuriy bilan birgalikda Toshkand viloyatida tarqalgan edi. O'ljoyturdi bilan Kayxusravni yarashtirdim. Ularga bir jamoatni hamroh etib yubordim, borib Axtom Yasuriyni chopib taladilar. Va Amir Xizr ojiz bo'lib, mening oldimga panoh izlab keldi.

Movarounnahr viloyatini ola g'animlikdin pok etgach, lashkarim quvvat topib, barlos ulusi nomdor bo'ldi va Chig'atoyning tuman va qo'shinlari baland ovoza bo'ldi. Va barcha el va qo'shin va tuman va xodimlarga hukmron bo'ldim.

Lekin Movarounnahrning ba'zi qal'alari Amir Husaynning tasarrufida edi. Va mening hukmim u yerda joriy emas edi.

Va Amir Husayn mening azamat va shavkatimni ko'rgach, hasadining tomiri harakatga kelib, muxolifat bayrog'ini tikib, ahdini sindurdi. Va men unga ko'p yon bosdim va u mening tarafimga hech kelmadi. Va hiylalar bilan Qarshi qal'asini mendan oldi. Va Amir Musoni yetti ming otlig' bilan Qarshi qal'asiga tayin etib, yana besh ming otlig' ham yubordi.

Va meni tag-tugim bilan qo'porish fikrida bo'ldi. Bu jihatdin saltanatim g'ayrati tug'yon etib, Qarshi qal'asini undin olmoqchi bo'ldim. Ba'zi amirlar kengash berdilarki, borib urush bilan qal'ani ishg'ol qilaylik deb.

MEN QARSHI QAL'ASINI OLISH KENGASHINI MUNDOQ QILDIM

Agar istasam urush bilan qo'lga olaman. Mabodo yana lashkarimga biron yomon ko'z tegmasin, deb o'yladim. Urushda necha xatar xotirimga keldi. Urushni qo'ydim va kengashni munda qildimki, Xuroson tarafiga ravon bo'lgaymen, to qal'adorlar xotiri jam bo'lsun. Undan so'ng orqaga qaytib, ilg'or etib, qal'aga chopqin yasab ishg'ol qilaman.

Alqissa, ko'chib Xuroson tarafiga ravon bo'ldim va Omuya suyidan o'tganimda, Xuroson tarafidan Qarshi tarafga borayotgan bir karvon kelayotgan edi. Va karvonboshi menga sovg'a keltirdi. Men undan Xuroson amirlarining ahvolini so'radim va o'zimning Xurosonga borayotganimni ham unga izhor etdim.

Va ularga ruxsat berib, karvon ahliga bir josus ham qo'shib yubordim. Va o'zim, josus xabar kelturgunga qadar, suv yoqasida joylashdim. Korvoniylar Amir Musoga xabar yetkazdilarki, Amir Temurni Omuya suyi yoqasida ko'rdik, Xurosonga ketayotgan ekan, deyishibdi. Va Amir

Musoga va Amir Husaynning lashkariga bu xabar yetgach, xushdil bo'lib, iqomat gilamini solib, aysh-u ishrat bisotini yoydilar.

Va bu xabar menga yetib kelgach, lashkarimdin yuz qirq uch bahodir va mardona va ish ko'rgan va ish qilgan va sinalgan kishilarni ajratib, suvdin o'tib ilg'or etdim. Shirkat otlik joyga yetib, unda bir kecha-kunduz turdim. Undan so'ng ilg'or etib, Qarshining bir farsanglik yeriga tushib, buyurdimki, narvonlarni arqonlar bilan bog'lab tayyor etsinlar. Shunda Amir Joku tiz cho'kib arz ettiki, bahodirlardan bir jamoat keyinda qolibdur, ular kelguncha to'xtab turmoq zaruriydir. Shu onda xotirimga bahodirlar kelguncha o'zim tanho borib qal'ani ko'rsam, degan fikr keldi.

Alqissa, yonimga qirq otlig' bahodirni hamroh olib, Qarshi qal'asi tarafiga bordim. Qal'aning qorasi ko'rungach, bahodirlarga to'xtanglar, deb amr etdim. Va uy xodimlarim Mubashshir bilan Abdullani yonimga hamroh olib, xandaq yoqasiga bordim, ko'rdumki, xandaq suv bila to'ladur. Va yon-atrofga boqdim, qarasam suv yuzida bir qayiq bor ekan. Otimni Mubashshirga topshirib, o'sha qayiqqa o'tirib o'tib devorini tomosha qildim va atrofini kezib, zina va narvon qo'ygudek yerlarini ko'rdim. Undan so'ng qaytib kelib, otlanib o'zumni bahodirlarga yetkazdim.

Shu orada keyinda qolgan bo'linma ham narvonlar bilan yetib keldilar. Undan so'ng hamma qurollanib, narvonlarni ko'tarib, qal'aga yuz qo'ydik va hamma qayiq bilan xandaqdin o'tib, zina va uzangi (narvon) bilan qal'a devoriga chiqtilar. Va chun qirq mardona kishi qal'aga kirdi, men ham uzangi bilan qal'aga kirdim. Ul holda karnoy va burg'u chalmoqqa kirishtilar.

Alqissa, Tangri Taolo tavfiqi bilan qal'ani egalladim. Bu xabarni Amir Husayn eshitgach, makr-u firib bilan do'stlik va oshnolik libosida meni tuzoqqa tushirib, asir olmoqchi bo'ldi.

UNING MAKR-U HIYLASIDIN XALOS BO'LISHGA MUNDOQ KENGASH QILDIM

U mening qoshimga Qur'on yuborib ont ichib ediki, men unga do'stlik va qarindoshlik rioyasidin o'zga ish qilmog'imdur. Va yana deb ediki, xotirimda o'zga ish bo'lib, ahdimni buzib senga yomonlik qilur bo'lsam, Xudoning ushbu Mushafi meni tutsun.

Va men uni musulmon bilur edim, so'ziga inondim va e'timod ettim, u mening qoshimga yana kishi yuborib xabar berdiki, agar bir-birimiz-ga inonur bo'lsak, Tangi Chakchakda bir-birimiz bilan muloqot etaylik va shu yerda ahd-u paymonimizni yangilaylik. Va bu so'zdin maqsadi makr-u hiyla bilan meni qo'lga olish edi.

Va men bildimki, uning ahd-u paymoniga hech qanday ishonch yo'qtur. Ammo Qur'onning hurmati uchun u bilan muloqot etarga qaror qildim va kengash qildimki, avval mardona bahodirlardan bir jamoani Darai Chakchakning atrofiga yuborib bekitaman, undan so'ng o'zim bir jamoa bilan borib Amir Husayn bilan muloqot etamen. Va Amir Husaynning xizmatidagi do'stlarimga xabar berdimki, meni Amir Husaynning irodasidin ogoh etkaylar. Va mening do'stlarimdan bo'lgan Sher Bahrom meni Amir Husaynning irodasidin ogoh etti.

Shunda Amir Husayn uni o'ldirdi va o'zi ming otlig' bilan mening ustimga ravon bo'ldi. Men daraning boshiga kelgan vaqtda bu xabar menga yetishti. Va lashkarimning tuzukini tartibga keltirdim, Amir Husayn lashkarining oldingi qanot bo'linmasi ko'rindi va qarovullar, bu Amir Husaynning qo'shini, o'zi hali kelmayapti, deb xabar kelturdilar. Sizni tanho keladi deb eshitib, tutgani qo'shin yuboribdur.

Va men ham urushga tayyorlandim. Va mening qoshimda ikki yuz otlig' lashkarim bor edi. Sabr etib turdim, toki Amir Husaynning bo'linmasi daraga kelib kirdilar. Shunda o'zimdan burun yuborgan otlig'larimga

amr etdimki, ularning qaytib chiqar yo'llarini to'sgaylar. Shundan so'ng o'zim ularga ro'baro' bo'lib, muxoliflarni ul darada o'rtağa olib ko'pisini tutib qo'lga oldik va asir etdik. Shundan so'ng odamlarimni jam va tuzuk qilib, Qarshiga ravon bo'ldim.

Va tajribamga yetishibdurki, do'st har yerda ishga yarar va Amir Husaynga bu bayt mazmunin yozdim. Bayt:

*Sabo beguy ba on yori domi makr nihanda,
Ki makr boz nagardad, makr ba makr ko'nanda.*

Va bu bayt tarjimasini Rojiyi faqir ushbu bayt bila ado qildi, bayt:

*Sabo de makr domin qurg'uvchini makkora yoringa,
Ki tushmas makr domi qaydig'a makkoradin o'zga.*

Va mening bu maktubim Amir Husaynga yetib borgach, uyotli bo'lib, mendan uzrxohliq qildi. Undan so'ng men unga ishonchimni yo'qotdim va so'zlariga inonib aldanmadim.

TURON ZAMINNI O'ZBEK TOIFASINING O'LMAY QOLGANIDAN POK ETMAKDA QILGAN KENGASHIM

Jeta va Ilyosxojaning lashkarini Movarounnahr din chiqarib, Xo'jand suyidin o'tkazganimdan so'ng, o'zbeklarning ba'zi bo'linmalari Movarounnahrning qal'alarida mustahkam o'rnashib olgan edilar va ularga qo'shin yubormoqchi bo'lganimda mabodo ish uzoqqa cho'zilmasaydi, deb xotirimga tushdi.

Shu orada menga o'zbeklar qal'alarda o'ta mustahkam joylashib olishipti, degan xabar yetib keldi. Shundan so'ng ularga bostirish uchun qo'shin yuborishni ma'qul ko'rmay, Ilyosxoja tarafidan bir yorlig' yozdim va ul yorlig'ni bir o'zbekka berib va bir bo'linmani ham unga hamroh etib jo'natdim va o'zlaringni ko'rsatib, gard-u g'ubor

ko'taringlar, deb buyurdim. Va ular Ilyosxojaning talab qilgan yorlig'ini o'zbeklarga yetkazib, ularning qo'shinlari ko'targan gard-u g'uborni ko'rgach, kechama-kecha qal'alarni bo'shatib badar kettilar.

Va Movarounnahr sohasi meni o'ldiraman deb qasd qilgan o'sha zolimlar vujudidan pok bo'lib, bu mamlakat mening tobiatimga o'tdi. Va men qarindoshlik rishtalarini rioyasini saqlab, Balx va Hisor va Shodmon viloyatini Amir Husaynga berdim. Shunga qaramay u mening muruvvat va ehsonim qadrini bilmay, meni yo'q etmak qasdida bo'ldi.

UNI [AMIR HUSAYNNI] YO'Q QILMOQ KENGASHINI MUNDOQ QILDIM

U mening fath-u nusratim natijalarini ko'rgach, rash-ku hasadining tomiri tebranib, menga va mening uyimdagi singlisiga ozorlar yetkazdi va Movarounnahrni mendan olishga qasd etti. Va meni o'lturmakka kamar bog'ladi. Va bir necha bor men bilan jang qilishga keldi. Har keldanda mag'lubiyatga uchradi. Uning insof va beadolatligi haddan oshib, menga g'olib bo'lolmasligi va meni yo'q qilolmasligiga ishonch hosil qildi.

Shundan so'ng uning yomon muomalasi jihatidan amirlari undan yuz o'girdilar. Negaki, Xatlon hokimi Amir Kayxusravning ukasini besabab va beayb o'ldirdi. Shu bilan Amir Kayxzusrav Xatlonda yog'iy bo'ldi. Uning amirlari hamma unga qarshi edilar va u esa ularni o'ziga xayrixoh sog'inib, Balxdan yurush qilgali mening qasdimga qo'sh chiqardi.

Bu xabar menga yetgach, kengashimni shunday qildimki, qoshimdagi bor jamoat bilan Balxga yuz qo'yub, Balx shahrining tegrasiga borib tushdim. Amir Husayn urishgani chiqib, tob berolmay qal'aga kirib qamaldi. Shu bilan boshiga har kelgan ish keldi.

Va menga yomonliklar qilib, qilgan yomonliklaridin vahimaga tushub, bizlarni endi o'ldirsa kerak, deb o'ylab yurgan kishilar bor edi.

ULARNI EL ETMAKDA MUNDOQ KENGASH QILDIM

Amir Husaynni qo'lga tushurganimdan so'ng, uning amirlari va navkarlari gumon ettilarki, men ularni o'lturgaymen. Garchi ularni o'ldirish fikrida bo'lsam ham, ammo sipohiy bo'lganlari uchun kengashni munda ko'rdumki, ularga rahm-shafqat ko'rsatib, sipohiygarlik ishlariga tayin etgaymen. Uning amirlari Badaxshonda hokim edi va bir necha bor menga ro'baro' bo'lib, qilich ko'targan edi. Amir Husayn o'lganini bilgandan keyin, mening siyosatimdin qo'rqib, o'zlarining tayyorgarligini ko'rib, bir joyga to'planishdi. Agar men ularni tutib keltirishga lashkar yuborur bo'lsam qilmishlariga loyiq edi. Lekin bu ishda o'zimni hech narsa ko'rماغanga solib, kengashni munda ko'rdumki, majlislar va mahfillarda ularning yaxshi tomonlarini eslab, bahodirlik va mardonaliklari ta'rifini qildim. Shu bilan uning do'stlari Amirning senga marhamati ko'pdir, deb unga yozdilar va u menga arz qilib, muruvvat va inoyatimga suyanib, menga panoh izlab keldi.

XUROSON MINTAQASINI EGALLASHDA QILGAN KENGASHIM

Balx va Hisor va Shodmon Badaxshonot mamlakatlari menga tobe bo'lgach va Amir Husayn ham o'lgach, bu xabar Xuroson hokimi Malik G'iyosuddinga yetib bordi. U o'z-o'zidan titratmaga tushib, cherik yig'moqqa kirishib, yurt chegaralarini mustahkamlamoqchi bo'ldi. Va men kengashni munda ko'rdumki, Xuroson ahlini g'aflat uyqusiga solayin. Bu jihatdan Samarqand tarafiga yo'l oldim.

Shu payt pirimning «Malik G'iyosuddin xotirjamliq bilan o'lturubdur», deb yozgan nomasi menga yetib keldi. Ul nomani o'qigandan so'ng kengash qildimki,

Xurosoniylarning xotiri men tarafimdan jam ekan, ular ustiga turktoz va chapovul qilayin. Bu kengash bilan Balx tegrasidan yiroq bormay qaytib, Balxda qo'ygan lashkar bilan ilg'or etib, Hirotga yetib keldim.

G'aflat uyqusidagi Malik G'iyosuddin noiloj Hirot shahridin chiqib, xazina va dafinalari va Xuroson mamlakatini menga tortiq qildi. Xuroson amirlarining hammalari menga itoat qildilar.

SIYISTON, QANDAHOR VA AFG'ONISTON MULKINI QO'LGA KIRITISHDA QILGAN KENGASHIM

Xuroson mamlakati menga bo'ysungach, amirlarim kengash berdilarki, ushbu yuqorida aytilgan uch mulkni egallashga lashkar yubormoq keraktur. Va men, agar lashkar yubormoq bilan hech ish muyassar bo'lmasa, nochor o'zim u taraflarga bormog'im keraktur, dedim. Hozircha oldimda ishim ko'btur.

Kengashni munda ko'rdumki, ul diyorlar hokimlariga huzurimga kelish yorlig'larin bu mazmun bila yozayinki, agar menga kelsalar najot toparlar va agar urushsalar, yiqilurlar. Va bu tadbirim taqdir taqozosiga muvofiq ekanki, ularga yorlig'larim yetib borishi hamon itoat boshini farmonimga bo'ysunish yo'liga qo'ydilar.

O'RUSXONNI YO'Q ETISH VA DASHTI QIPCHOQNI QO'LGA KIRITMOQ UCHUN QILGAN KENGASHIM

To'qtamishxon O'rusxondan yengilib, mening panohimga kelgach, o'zimcha kengash qildimki, To'qtamishxon bilan qo'shin yuborayin. Shu mazgilda O'rusning elchisi yetib keldi.

Shunda mundoq kengash qildimki, uning elchisiga tasalli ko'rguzub ruxsat berayin va Dasht yo'lini bog'layin va elchining izincha lashkar yuborayin. Elchi O'rusxonning

majlisig'a xotirjamliq bilan kirib, O'rusxon g'ofil bo'lsa, so'nggi kun uning ustiga lashkarim borib turktoz va chapovul qilg'aylar.

Va mundoq qilganim sababli tadbir taqdirga muvofiq kelib, O'rusxonning elchisi yetib borib, O'rusxonga ko'rgan va eshitganlarini hikoya qilib o'tirgan chog'da, mening lashkarim baloyi nogahondek bo'lib, O'rusxonning ustiga tashlandilar. Va O'rusxon urushga tob keltira olmay qochib ketib, Dashti Qipchoq mamlakati menga tobe bo'ldi.

GILON, JURJON, MOZANDARON, OZARBAYJON, SHIRVON, FORS VA IROQ MULKINI EGALLASHDA QILGAN KENGASHIM

O'sha kunlarda Muzaffar avlodi va qabila maliklari zulmidan Iroq ahlining yuborgan arizalari menga yetib kelgach, Iroq ohangi sozin tuzdim va ul safar irodasin ko'rguzdum. Ul holda xotirimga tushdiki, ul mamlakatlarning podshohlari agar bir ittifoq bilan menga qarshi chiqsalar, urushga tayyor bo'lmoq keraktur. Va amirlarim ham mundoq kengash dedilarki, urush qurol-yarog'ini tutib bormoq keraktur.

Va o'zim shunday kengash ko'rdumki, ularni bir-birdin o'zimga rom etayin va har kimsaki rom bo'lmasa, unga sazisini berayin. Eng avval mendan panoh so'ragan kishi Mozandaron hokimi Amir Ali ediki, menga tortiq yubordi. Va yozgan nomasida aytib ediki: «Bizning jamoa Ali avlodidandurmiz va bu sarzaminga qanoat qilibdurmiz "Inna taaxuzu qudratukum aqva va inna ta'affu qurbun attaqva", ya'ni "Olsang qudrating kuchli va zo'rroqtur va agar afv etsang, parhizgorliqqa yaqindur"».

Va men Mozandaron hokimining murojaatini o'zimga yaxshi irim qilib, Gilon va Jurjon mamlakatiga ravon bo'ldim. Va ul yerlarning hokimlari menga murojaat qilmaganlari uchun, ularning ustiga zarbdor bo'linmalarini yuborib, o'zim Iroqqa lashkar chektim.

Isfahonni egallab, Isfahon ahliga inonib, qal'ani ular-

ning qo'liga topshirdim. Shunga qaramay ular yog'iy bo'lib, u yerda qo'ygan dorug'ani lashkarimdin uch ming kishi bila o'ldirdilar. Va men ham Isfahon ahlini qatli om etkali hukm etdim.

FORS VA IROQ MULKINI EGALLASHDA QILGAN KENGASHIM

Sherozni Muzaffar avlodiga topshirdim va Isfahonda uch ming kishi tayin etib qo'ydim va o'zim To'qtamishxonning hujumini daf etish uchun Dashti Qipchoq tarafiga cherik chekdim. Shunda Isfahon ahli dorug'ani o'ldirishdi. Va Sheroz ahli dog'i qadamini itoat yo'lidin chiqardilar. Bu jihatdin Iroq ohangini tuzdim va sakson ming otlig'ni to'plab, bu yangi kengash ko'rguzduki, agar bu og'ir lashkar bilan Iroqqa borsak, u yerga sig'ishmasligi mumkin.

Shu maqsadda bir necha bo'linmalarni muqarrar qildimki, Iroq mamlakatiga guruh-guruh borib chapovul qilgaylar. Va shunday kengash qilganimdan so'ng, lashkarimni uch qo'shin etib, o'zimdin burun yubordim va parokanda lashkarim Iroqda jam bo'lib edilar, hammasi tarqalishdi.

Shundan so'ng Sherozg'a cherik chektim. U yerda Shoh Mansur menga ro'baro' bo'lib, sazosiga yetti.

TO'QTAMISHXONNI TOR-MOR KELTIRISHDA QILGAN KENGASHIM

Dashti Qipchoqda lashkarlarim besh oy To'qtamishxonning keynida yurub, oralarida qahat va tanglik ko'p bo'ldi. Shu darajaga borib yetdiki, necha kunlar bulamoq (atala) oshi va ov go'shti va sahroyi qushlar tuxumi bilan kun kechirdilar. Shu asnoda To'qtamishxon lashkarim ahvolini eshitib, fursat topib mo'r-u malaxdin ziyoda lashkar bilan kelib, menga ro'baro' bo'ldi. Va mening

lashkariylarim ko‘b och edilar va To‘qtamishning lashkari to‘q va osuda.

Shuning uchun mening amirlarim va sardorlarim urushga ko‘ngli bo‘lmadi. Shunday tang holatda farzandlar va nabiralar kelib, tiz cho‘kib, jonbozlik ixtiyor ettilar.

O‘sha mazgilda To‘xtamishxonning bayroqdori men bilan kelishib, mundoq kengash qildimki, urush solib ikki saf ro‘baro‘ bo‘lgan chog‘da uning bayroqdori bayrog‘ini yiqitadi.

Farzandlarimning tiz cho‘kib urushga ruxsat so‘raganlari xabari amirlar va no‘yonlarning quloqlariga yetgach, hammalarining ko‘ngullari quvvatlanib, urushga ko‘ngul qo‘ydilar. Va Amirzoda Abu Bakrning yigirma ming otlig‘ bilan hirovul qildim. Va urush va o‘lturish o‘ti baland bo‘lgach, amr etdimki, o‘tovlarni tikib, taom pishurmakka mashg‘ul bo‘lg‘aylar. Shu vaqtda To‘qtamishxonning tug‘i yiqildi. Shu bilan To‘qtamishxon Jo‘ji ulusini g‘orat yeliga berib, jang maydonidan chekinib, qochib ketdi.

POYTEXT SHAHRI BAG‘DODNI VA ARAB IROQINI EGALLASHDA QILGAN KENGASHIM

Iroqi Ajam va Forsni egallaganimdan so‘ng, qutb ulaqtob (qutblar qutbi, ya‘ni eng yuksak maqomli pir) pirimning nomasi menga yettiki: «Ey qahramon, Iroqi Arab va Ajam Iroqini senga berdim».

Va Bag‘dodni egallashda mundoq kengash qildimki, avval Sulton Ahmad Jaloyir mulkiga elchi yubordim, toki uning shijoat va yashash tarzini va lashkarini bilgay va elchi Bag‘dodga borib, menga ariza qildiki, Sulton Ahmad ikki ko‘zi bor demasa, bir parcha go‘sht ekan. Undan so‘ng men Tangri Taolo qo‘llab-quvvatlashiga suyanib, ilg‘or etdim va o‘zni shitob bilan Bag‘dodga yetkazdim. Shundan so‘ng Sulton Ahmad Jaloyir Karbalo tarafiga qochib ketdi va Bag‘dod dor us-salomi menga tobe bo‘ldi.

TO‘QTAMISHXONNI YO‘Q ETMOQ UCHUN QILGAN KENGASHIM

To‘qtamishxon Jo‘jixon ulusini g‘oratga berib, qochib ketgach, fursat qulay chog‘ida Darband va Shirvon yo‘lidan Ozarbayjon viloyatiga og‘ir lashkarlar yuborib, fitna va fasod boshlamoqqa kirishti. Va men ikki Iroqni qo‘lga olganimdan keyin, uni yo‘q qilishni, ya‘ni tag-tugi bilan qo‘ng‘armoqning kengashini shunday qildimki, ko‘b lashkar bilan Darband yo‘lidan Dashti Qipchoqqa kirgaymen. Va lashkarim sonini ham ko‘rdimki, lashkarim to‘rt farsang (*1 farsang – 6 km*) yerga tegru to‘lmish edi.

Tangri Taborak va Taologa shukr etib, Temur suyidan o‘tib, Dashtdagi el-ulusga yorliqlar yozdimki, har kimsa kelsa, xalosliq topar va har kimsakim menga qarshi chiqsa, yiqilur.

Alqissa, hijriy 797 (milodiy1394) sanada Dashti Qipchoqqa kirdim va shimol tarafidagi yerning oxiri va nihoyatiga tegru bordim. Va muxolifat va yog‘iyliq yo‘lini tutgan Jo‘jining el va ulusini xarob va yakson qildim. Va beshinchi va oltinchi iqlimlarining viloyatlarini va ulus va qal‘alarini egallab, zafar quchib g‘alaba bilan qaytdim.

HINDUSTONNI QO‘LGA KIRITISHDA QILGAN KENGASHIM

Avval dillaridagini bilmak uchun amirlar va farzandlarimdan kengash tiladim. Amirzoda Pirmuhammad Jahongir aytdiki, Hind daryosigacha Hind mamlakatini olish bilan olamni egallagan bo‘lurmiz. Amirzoda Muhammad Sulton dediki, Hindni olurmiz, lekin Hindustonning necha hisorlari (qo‘rg‘onlari) bordur: avval daryolar, ikkinchi changallar va to‘qaylar, uchinchi qurollangan lashkarlar va odam ovlovchi fillar. Amirzoda Sulton Husayn dediki,

Hindni olsak, to'rt iqlimga podshoh va hukmron bo'lurmiz. Amirzoda Shohrux dediki, turk qonunlarida o'qubturmenki, besh ulug' podshohdurki, ulug'liklaridan ularning otini aytmaslar, ya'ni Hind podshohini roy va Rum podshohini qaysar va Xitoy va Chin-Mochin podshohini *fag'fur* atarlar. Va Turkiston podshohini xoqon va Eron va Turon podshohini *shahanshoh* derlar va Hinduston mamoliki hamisha shahanshoh hukmida bo'lgan. Va Eron va Turon zamin bizning tasarrufimizdadur, lozimdurki, Hindustonni dag'i egallagaymiz.

Va amirlar, tarafdorlar, agarchi Hindni olurmiz, lekin u yerda iqomat qilsak, naslimiz zoye bo'lur va avlodlarimiz turkiylikdan chiqib, hindiy tilli bo'lurlar, dedilar. Hind mamlakatini qo'lga kiritishga kamar bog'lab edim, azmu qarorimdan voz kechishni istamadim. Ularga javoban Tangri Taolog'a tavakkal qilib, Qur'oni Majiddin urush folin olurmiz, to Tangri Taolo hukmi ne bo'lsa, shunga amal qilurmiz, dedim. Ular hammalari qabul etdilar. Va Mushafdin fol ochganimda, bu oyati karima chiqdi: «Yo ayyuho an-nabi johid ul-kuffor valmunofiqin» («*Ey, payg'ambar, kofirlarga va munofiq'larga qarshi jahd qilgil*»)¹. Chun ulamo ushbu oyat mazmunini amirlarga tushuntirdilar, hammalari boshlarini quyi solib, xomush bo'ldilar.

Ular sukut saqlashidan ko'nglim sovib, o'zimga kengash qildimki, Hindustonni olishga rozi bo'lmagan amirlarni amirlik martabasidan tushurayin. Ular o'zim tarbiya qilganlarim edilar, ularni xarob etishni tilamadim. Ularga muloyimlik qildim. Garchi ularning ko'ngullari boshqa edi va ularning shunday ekanliklari ham ko'nglimga kelgan edi. Oxir ular ham mening rayimga rozi bo'ldilar. Shu bilan hech narsa xotirga kelturmadim va yana bir martaba kengash qilib, safar anjomlarini Hinduston tarafiga chiqardim.

¹Qur'oni karim, Tahrim surasi, 9-oyat.

HINDUSTONGA LASHKAR TAYIN ETMAK KENGASHINI SHUNDAY QILDIM

Amirzoda Pirmuhammadni o'ttiz ming otlig' bilan javong'ar (o'ng qanot) lashkari etib, amr ettimki, Ko'hi Sulaymon yo'li bilan Sind suyidan o'tib, Mo'ltan viloyatiga turktoz etib, uni qo'lga kiritgaylar. Va Sulton Muhammadxon bilan Amirzoda Rustamni va yana o'zga amirlarga buyurdim: o'ttiz ming otlig' ilg'or (oldingi qator) lashkari bilan Sind suyidan o'tib, Kashmirning Domani Ko'h otlig' yo'lidan borib, Lohur viloyatiga turktoz etkaylar. Va o'zim o'ttiz ikki ming otlig' bilan qo'l (markaz qo'shini) bo'ldim.

Va lashkarimning barchasi to'qson ikki ming otlig' edilar. Muhammad rasulalloh ismi miqdoriga muvofiq ushbu miqdorni muborak fol va yaxshi irim bildim. Va o'tlanib ravon bo'lib, Badaxshon chegarasidan Andarob otlig' joyga borib tushdim. Avval Katur tog'i kofirlariga tanbeh berdim. Undan so'ng Hinduston shahri ta'zirini berishga yurish qildim.

HINDUSTON YO'LINI AFG'ONLARDAN POK ETARDA MUNDOQ KENGASH QILDIM

Ba'zi afg'oniylar Hinduston yo'lida yo'lto'sarlik qiladurlar, deb eshitdim. Xususan, Karkas qabilasining ulug'roqlaridan Muso afg'on, Amirzoda Pirmuhammad uni Ayrob qal'asining qo'riqlashga qo'ygan, mening davlatim tarafdori bo'lgan chokarlarimdan Lashkarshoh o'g'longa turktoz etib, uni o'ldiradi va har na bor-u yo'g'ini g'orat qiladilar. Va ham bu vaqtda Lashkarshohning birodari Malik Muhammad kelib, dod-u faryod etib, birodari o'lganining haqiqati va Musoning zulmidin arz qildi. Shunda men uni qamoqqa solishga farmon berib: «Muso mening davlatim tarafdorlaridandur», – dedim. Bunday qilganimni ko'rib, amirlarim mening zulmimdan so'z aytilar, ammo

Malik Muhammadni qamash haqida aytgan so‘zumning xabari Musoga yetib bordi. Shu bilan u o‘ziga ishonch hosil qildi. Va uni chaqirib yuborgan yorlig‘im unga yetishi bilan, xavotirsiz kelib qal’ani menga topshirdi. Va o’sha qal’a tomoshasiga borganimda, uning sipohiylarining biri mening qasdimga bir o‘q otdi. Shu bilan Muso o‘z jazosiga yetishib, Hinduston yo‘li ochildi.

DEHLI HOKIMI SULTON MAHMUD VA MAL- LUXONNING QULATISHDA QILGAN KENGASHIM

Sulton Mahmud bilan Malluxon ellik ming otlig‘ va piyoda, yuz yigirma zanjir fil bilan Dehli qal’asiga istehkom berib, mening bilan urushurga keldi. Mening xayolimga keldiki, agar Dehli qal’asini olishga tutilib qolsam, mabodo ish uzoqqa cho‘zilgay. O‘zumga kengash qildimki, o‘zni ojiz va zabun ko‘rguzayin, toki g‘anim dovyurak bo‘lib, urushga saf tuzgay. Bu jihatdan lashkarim tegrasiga xandaq qazdirdim va bir bo‘linmani ular ustiga yuborib, buyurdumki, o‘zlarini ojiz va qo‘rqqan ko‘rsatib, dushmani ko‘ngliga dalda bergaylar. Va g‘anim o‘zini g‘olib deb bilib, aldangancha maydonga kelib jangovar qo‘shinlarimga ro‘baro‘ bo‘ldilar. Va Dehli hokimi Sulton Mahmud urushib mag‘lub bo‘lib, Tog‘iston tarafig‘a qochti. Va ko‘p mol va naqd mablag‘ mening lashkarimga nasib bo‘ldi.

Va bir yil orasida Hind mamlakatini egalladim va mazkur yilning oxirroqlarida Samarqandga qaytdim.

GURJISTON MULKINI EGALLASHDA QILGAN KENGASHIM

Hindustondan zafar topib, g‘olibona qaytgach, hanuz Hind safari ranjidan osuda bo‘lmagan edimki, ikkala Iroq (Iroqi arab va ajam) hokimlari arizalari tushdiki, Gurjiston kofirlari o‘z hadlari chegarasidan tashqari chiqibdurlar.

Men hamisha shu fikrda edimki, podshohlarga ko-firlarga qarshi g'azot va jihod etmakdan va mulk olmoqdan yaxshiroq ish yo'qtur. Va bu vaqtkim Gurjiston imonsizlarining xabari yetti, kengash qildimki, agar ularning bartaraf qilishda hafsalasizlik etsam, mabodo ul diyor fitnachilari tug'yon etkaylar. Ularni daf etishga shoshildim va Hind safaridan kelgan sipohiylarni o'z ixtiyorlariga qo'ydim, har kimsa xohlasa, o'z joyida bo'lsun va har kimsa xohlasa, men bilan yursun.

Va Xuroson va Qandahor va Siyiston va Kermon va Tabariston va Gilon va Mozandaron va Fors lashkariga yorlig' yibordimki, yurush asbobini tutib, Isfahonga kelib, zafaryor lashkarga qo'shulsinlar.

Va kengash qildimki, har mulkning itoatsiz kishilarini tarqatib, parokanda qilayin. Shu maqsadda Xuroson va Fors itoatsiz kishilarini Turon zaminga yubordim. Va ul mamlakatlar maydonini ular muxolifatidan aritib, ul diyor va qal'alarini qo'lga olish uchun Gurjiston tarafiga ravon bo'ldum. Boshimga po'lat dubulg'a va egnimga Dovudiy sovut kiyib va belimga Misr shamshirini bog'lab, jang-u jadal taxtiga o'tirdim.

Va Turon va Xuroson va Mozandaron va Gilon bahodirlariga talon-toroj va g'orat qildurib, Sivos va Gurjiston qal'alarini egalladim. Va qal'alardagi jamoatni yo'q va mahv qilib, o'ljalarni lashkar ahliga ulashtirdim. Va Ozarbayjonning fitnachi va beboshlariga tanbeh berib, Malotiya qal'alarini egallashga yuz qo'ydim. Va ul qal'alarning ishg'ol etish va tartib o'rnatishdan forig' bo'lgach, Halab va Humsni egallashga himmat bog'ladim. Va bir ozgina e'tibor berib, ul mamlakatlarni zabt etib, azmu jazm kamarini Misr va Shom mamlakatlarini egallashga bog'ladim.

MISR VA SHOMNI ISHG'OL ETISHDA SHUNDAY QAROR QILDIM

Mening shavkat va qudratim xabari qaysar qulog'iga yetib bordi. Va u Sivos va Malotiya qal'alarini olib, ularga tobe aholini egallab, qal'alardagi ularning lashkarini hammasini pitratib, parokanda qilganimni eshitgach, g'ayratining tomiri harakatga kelib, mening lashkarim hamlasidan qochib, qaysarga panoh eltib borgan Qaro Yusuf Turkmonning ig'vosi bilan urushga qaror berdi. Va qaysarning falokat va zavoli yaqinlashib erdi. Qaro Yusuf uni mening tarafimga lashkar chekishga targ'ib etti.

Alqissa, qaysar Qaro Yusufning ig'vosi bilan cherik chekib, og'ir lashkar bilan harakatga kirib, Misr va Shom qo'shinlaridan ham madad tilab erdi. Va men kengash qildimki, agar men ham o'z lashkarimni uch qo'shin etsam yaxshiroqdur, g'alaba va chekinish taqdiri parvardigor qo'lida yashirindir. Amirlardan kengash tiladim va sipohiylar urushurmiz, deb kengash berdilar.

Va o'zim fikrlashib, qaysarning o'tini issiq-sovuq bilan o'chiraman, degan qarorga keldim. Va umid va qo'rqinch bilan yo'g'rilgan noma bitib unga gap gapiraman.

Alg'araz, qaysarga bu mazmun bila noma bitdimki, «Yer va osmonni yaratgan Xudog'a shukrkim, yetti iqlimning ko'proq mamlakatlarini mening farmonim ostiga kirguzubdur va olam hokimlari va jahon sultonlari itoatim halqasini jonlari qulog'ig'a chekibdurlar. Xudoy rahmat qilg'ay ul bandagakim, o'z haddini tanib, o'z martabasidan tashqari qadam qo'ymagay. Va olam ahliga ma'lumdurkim, sening nasab va nisbating qayda yetushur. Bas, senga munosib uldurkim, jasorat qadamin ilgari qo'yub, o'zungni ranj-u balo girdobiga solmag'aysen va davlat rad etgan jamoaning ig'vosi bilakim, o'z g'arazlari uchun senga panoh eltibdurlar va uxlagan fitna va oshubni uyg'otibdurlar, o'z yuzungga fitna va oshub eshigin ochmag'aysen va o'zung va qo'l ostingdagilarning

xayrxohi bo'lgaysen va Qaro Yusufni mening qoshimga yuborgaysen. Va illo ulchakim, taqdir pardasidadur: ikki saf to'qnashuvidan so'ng senga zohir bo'lg'isudur».

Va bu nomani ishbilarmon elchilar bilan qaysar qoshig'a yubordim. O'zim Shom tarafiga yurush qilgaymen, deb kengash qildim. Va Halab va Hums yo'lidan ravon bo'lib, Halabga yetib bordim. Malik Barquqning o'g'li Malik Farrux mening yetib kelayotganimning xabarini eshitib, Misrdan Damashqqa yuz qo'yubdur, deb eshitdim. Va men, Misr bilan Shom lashkarini bir-birlariga qo'shilishga yo'l qo'ymaslik uchun ilg'or etdim. Va Malik Farrux chapdastlik qilib, Damashqqa yetib keldi. Va men uning keynidin yetib, Damashqni egalladim.

RUM YURTINI EGALLASHDA VA QAYSARGA ZARBA BERISHDA QILGAN KENGASHIM

Shom diyorini qo'lga kiritgach, Misr podshohi Malik Farrux mening urushimdin qochti. Va elchim ham Rumdin Ildirim Boyazidning javobi nosavobi bilan qaytdi va arz qildiki, Misr va Shom lashkari tor-mor bo'lganining xabari qaysarga yetgach, o'yg'a tolib va ko'ngliga g'ulg'ula tushib, lashkar to'plashga mashg'ul bo'ldi. Va men Damashq va Shom yurtini ishg'ol qilib, Mo'sul yo'lidan Bag'dodga yo'l oldim va kengash qildimki, Ozarbayjon tarafiga ravon bo'lg'aymen, toki qaysarning qarori qat'iy bo'lsa, o'zini ko'rsatar.

Tabriz tarafiga ravona bo'lgach, amirzodalarni og'ir lashkar bilan Bag'dod ustiga yubordim. Va Sulton Ahmad Jaloyir o'z navkarlaridin Farrux otlig' kimsani ko'b jamiyat bilan Bag'dod shahrini va qal'alarini saqlamoqqa qo'yub erdi. Amirzodalar Bag'dodga yetib, shahrni qamalga olib ish urushga aylanganini mening arzimga yetkazdilar. Va men munda kengash topdimki, o'zim borib Bag'dod shahrini egallab, o'zimning qo'l ostimga olgaymen. Tabriz yo'lidin orqaga qaytib, ilg'or etib, Bag'dodga yetib borib, sipohiygarlik tadbir va ehtiyojini amalga oshirdim. Va bu

ikki shahar necha kunlar qamalidan so'ng, qal'a va shahar menga tobe bo'ldi. Va Farrux qal'ador Dajla suyiga g'arq bo'ldi. Va men shaharga kirib, amr etdimki, shaharning barcha fitnachi va beboshlarini o'ldirib, qal'a va shahar imoratini yiqib, tufroqqa barobar qilg'aylar.

Shundan so'ng Bag'doddan Ozarbayjon tarafiga azm etdim. Ul mamlakatda ancha vaqtlar iqomat qildim. Va qaysar Halab va Hums va Diyorbahr shaharlariga lashkar yuboribdi va mendan qochib, qaysarg'a panohtan eltg'an Qaro Yusuf Turkmon yo'lto'sarlik qilib, savdogarlarga ozor bermakka mashg'uldur, deb eshitgach va shu asnoda bir jamoat kelib, uning zulm-u sitamidan qutqarishni so'ragach, menga lozim bo'ldiki, Qaro Yusufning sazosi berib, qaysarni g'aflat uyqusidan uyg'otgaymen.

Bu bobda mundoq kengash qildimki, har shahr-u qabiladin lashkar talab qilib, hashar etib qaysar ustiga ravon bo'lg'aymen. Va lashkar jam bo'lgach, rajab oyi sanayi hijriy 804 (milodiy 1401)da Ozarbayjondan qaysar bilan urushga ravon bo'ldim. Va o'zumdin ilgari lashkarlar yubordimki, Rum mamlakatlariga turktoz va chapovul etgaylar. Va yana bir bo'lak lashkar yubordimki, suv-o'tlig' manzillarni mulohaza qilib bilgaylar. Va Anko'ziya yo'lidan yurush qildim. Shunda qaysar to'rt yuz ming otlig' va piyoda bilan menga qarshi urushga keldi. Va men u bilan urushib, g'alaba qozondim, mening lashkariylarim qaysarni tutib, oldimga olib keldilar.

Va ushbu yetti yillik yurushdan zafar va g'alaba bilan Samarqandga qaytdim.

IKKINCHI MAQOLA

Mulk oluvchi va tolei baland farzandlar va yuksak qadrli va jahondor nabiralarga ma'lum bo'lgaykim, Tangri Taolo dargohidan umidvormenkim, mening avlod va nasllarimdan ko'pragi saltanat va mamlakatdorlik taxtiga o'lturgusidurlar. Shu jihatdan saltanatim ishlariga nizom va tuzuklar bog'lab, uning amallari dasturini insho

qildimki, avlod va nasllarimdan har biri ul dasturga amal qilib, ko‘b ranj va mehnatlar chekib va urush va savashlar qilib, Tangri Taolo madadi va rasul millatining quvvati va uning ahli oilasi va sahobai kiromlari muhabbati bilan ilgimga kirguzubdurmen, mening davlat va saltanatimga nigahbonlik qilg‘aylar va bu tuzuklar va nizomlarni o‘z podshohliklari ishlarida dastur ul-amal qilg‘aylar, toki mendan ularga qolgan davlat va saltanat, xalal va zavoldin asrangay.

Va hozirda, men o‘n ikki ishni o‘zimga shior etib, saltanat martabasiga yetishtim va mamlakatlar olib, mulkdorlik qildim va ul o‘n ikki ish bila saltanatim taxtig‘a zeb-u ziynat berdim. Va jahonni birlashtirish va obodlik ziynati bilan oro berdim. Avlod va nasllarim ushbu tuzukka amal qilib, mening va o‘zlarining davlat va saltanatlariga nigohbonlik qilgaylar.

Va ul tuzuklarkim, o‘z davlat va saltanatimg‘a bog‘ladim.

Avval bu edikim, Xudoyi Taolo dini va Muhammad Mustafo shariatiga rivoj berdim va hamisha va hamma yerda islom diniga quvvat berib, lashkar va aholi holiga rioyat qildim.

Ikkinchi ulkim, o‘n ikki tabaqa jamoasi bilan mulk olib, jahondorlik qildim. Davlat va saltanatim ruknlarini ular bilan mahkam va ustuvor etdim va majlisimga ular bilan oro berdim.

Uchinchi ulkim, maslahat va kengash va tadbir va mulohaza va ehtiyot bilan lashkarlar sindurdum va mulklarni egalladim va saltanatim ishlarini madoro va muruvvat va sabr-bardosh va o‘zni bilmaslikka solish bila bitirdim. Va do‘st-u dushmanlarga madoro qildim.

To‘rtinchi ulkim, to‘ra (urf-odat) va tuzuklar bilan saltanatim korxonasini kengaytirdim, va to‘ra va tuzuk bilan o‘zni ul martabada tutdimki, amirlar va vazirlar va lashkar va aholi o‘z martabasidan tajovuz qila olmadi. Va har qaysi o‘z martabasini saqlardilar.

Beshinchi ulkim, amirlar va lashkarimni zar-u zavar

bila xushdil qildim va bazmlar va ovqatlar berib, janglarda jonbozlik qildim va ulardan diram va dinorni darig' tutmadim va ularning ishlarini osonlashtirish uchun mehnat va mashaqqatlarini o'zim ko'tardim va tarbiyatlarini qildim. Shunday qilib mardlik va mardonalik bilagi va amirlar va sarkarda va bahodirlar ittifoqi va qilich zarbi bilan yigirma yetti podshohning taxtgohini egalladim. Va Eron va Turon va Rum va Mag'rib va Shom va Misr va Iroqi Arab va Ajam va Mozandaron va Gilonot va Shirvonot va Ozarbayjon va Fors va Xuroson va Dashti Jeta va Dashti Qipchoq va Xorazm va Xo'tan va Kobuliston va Boxtarzamin va Hinduston mamlakatlariga podshoh va hukmron bo'ldim.

Va chun saltanat jomasini kiydim, rohat yotog'ida uxlamoqdin va sog'lik va osudalikdin ko'z yumdim va o'n ikki yoshdan so'ng xatarlar va mehnatlar chekdim va tadbirlar qilib, qo'shinlar sindurdim va amirlar-u sipohiylardin fig'onlar ko'rib, achchiq so'zlar eshitdim va hammasiga chidadim va bilib turib, o'zimni bilmaslikka oldim. Va o'zim qilichlar urdim va viloyat va mamlakatlariga ega bo'ldim. Va shon-shuhrat topib, ot chiqardim.

Oltinchi, adolat va insof bilan xaloyiqni o'zimdin rozi qildim va gunohlik va gunohsizga rahm etdim va haq va adolatga hukm etdim va ehson bilan odamlar ko'nglidan joy oldim va siyosat va insof bilan lashkar va aholini umid va qo'rquv orasida saqladim. Va aholi va qo'l ostimdagilarga rahm-shafqat qildim va lashkarga in'om berdim. Va mazlumlardodini zolimlardin oldim va ular orasidagi kelishmovchilikka isbotdan so'ng hukm chiqardim. Birovning gunohiga yana birovni tutmadim. Ul kimsalarkim, mening boshimga yomonliklar keltirib, menga qilichlar ko'tarib edilar va mening ishimga zarar yetkazgan edilar, menga kelib iltijo qilgach, ularni e'zozlab, martabalarini ziyoda qilib, yomon ishlarini esdan chiqardim. Va ular bilan shunday muomalada bo'ldimki, agar xotirlarida biron hadik bo'lsa, butunlay mahv bo'ldi.

Yettinchi, sayyidlar va ulamo va mashoyix va oqillarni

aziz va mukarram etdim. Xabar yetkazuvchilar va amonat va diyonat ahlini siylab, hammasiga ta'zim va ehtirom etdim. Va shijoat ahlini do'st tutdim. Va olimlar va fozil kishilar bilan suhbat tutdim. Va sohibdillar ko'ngullariga ma'qul bo'lishga intilib, ulardin himmat gadolik qildim. Va ularning tabarruk nafaslaridin fotiha iltimos etdim. Va fuqaro va mazlumlarni do'st tutib, ularni ko'nglini qoldirmadim va mahrum etmadim. Va har yurtida fitnapesha va buzuq fikrli toifa bo'lsa, ularning so'zlariga ishonmadim, har birini boshqa bir joylarga tarqatib, parokanda qildim, toki yana ul yurt tinchligiga fitna qila olmagaylar.

Ko'pincha ushbu toifadan mulk va viloyatda ko'b zararlar yuzaga keladi va bu tadbir barcha tadbirlarning yaxshiroqidur. Xalq farovonligi va jamiyat ahvoli rioyatida va yomon va fitnachi va zolim va g'arazgo'y va ig'vogarlarni majlisimga keltirmadim va ularning so'zlariga amal qilmadim va hech kimsaning haqidagi qilgan ig'volariga quloq solmadim va garchi xos va yaqinlardin bo'lsalar ham ularni tanbeh va siyosatdan so'ng dargohimdin quvladim.

Sakkizinchi, qarorimga amal qildim va har ishga qaror qilsam, ul ishni himmatim oldiga tutdim va to ul ishni bitirguncha undin ilik ko'tarmadim. Va aytgan so'zimga amal qildim va qaytmadim va zolim va sitamkorlardan bo'lak hech kimsaga qattiq muomala qilmadim. Va hech ishni ko'ngil torlik bilan qilmadim, to Tangri Taolo meni qattig' tutmagay va ishimda menga qiyinchilik ko'rsatmagay. Va Odamdan to Xotam va Xotamdin to ushbu damgacha o'tgan podshohlarning siyrat va qonunlarini donolardan so'rab, ularning qilgan muomalasi va yashash tarzi va fe'l-atvori va so'zlarini bir-bir xotirimga keltirdim va ul nimakim davlat zavoliga sababdir, undan o'zimni saqladim va chetga tortdim.

Va naslni tugatuvchi va qahat va vabo keltiruvchi zulm va buzuqlikdan hazar etmoqni lozim bildim.

To'qqizinchi, xalq ahvolidin ogoh bo'ldim va ularning ulug'larini birodar o'rnida va kichiklarini farzand joyida tutdim va aholi va sipohiylar ishidan o'zim boxabar bo'lib,

har qaysining yaxshi va yamonidin ogoh bo'ldim. Hokimlar va sardorlarni butunlay ixtiyorini o'ziga berdim va xalq va sipohiylar ahvolidan bir nafas g'ofil bo'lmadimki, mulk va davlat bu ikov bilan barqarordur.

Mulk va shaharning kayfiyat va tabiatlaridan o'zim voqif bo'ldim va zodagonlar va buyuk kishilar bilan oshnolik qildim va ularning mayli va tabiati va xohishiga muvofiq hokim tayin etdim. Va har diyor va ahlidan ogoh edim va har mulkda to'g'ri so'z va diyonatli kishilardan axborot beruvchilar tayin etdimki, sipoh va aholi vaziyati va atvori va amallari va fe'llarini va ularning orasida bo'lgan voqealarning ochiq-oydin yozib menga yetkazgaylar. Agar bo'lgan voqeani noto'g'ri yozganlarini bilsam, axborot beruvchilarga siyosat qildim va hokimning sipoh va aholiga qilgan javr va zulmidan nima eshitgan bo'lsam, uning tadorukini insof va adolat bilan qildim.

O'ninchi, har toifa va har qabila, turk va tojik va arab va ajamdinkim mening davlatxonamga keldilar, ularning ulug'lariga izzat-ikrom ko'rsatib, o'zgalarining har qaysisiga o'z holiga loyiq siyladim va yaxshilariga yaxshilik qilib, yomonlarini Xudoga topshirdim. Va har kimsakim menga do'stlik qildi, do'stligi qadrin unutmadi va unga ehson va muruvvat qildim. Va har kimsakim xizmatim qildi, uning xizmati haqqin ado qildim. Va har kimsakim menga dushman bo'lsa, pushaymon bo'lib menga iltijo qilib tiz cho'ksa, uning dushmanligini unutib, do'stlik va muruvvat bilan uning xaridori bo'ldim. Shunday bo'ldiki, Sher Bahrom ulus amiri va mening hamrohim edi, ish vaqtida meni tashlab, g'animga qo'shilib menga qilich ko'tardi. Shundan so'ng oxir uni tuz haqqi tutib, yana menga iltijo qildi va tiz cho'kdi. U asil va mardona va ish ko'rgan kishi bo'lgani uchun, yomon ishlaridan ko'z yumib, uni izzat-ikrom qilib, martabasini buyuk qildim va uni mardona ishlari uchun kechirdim.

O'n birinchi, farzand va qarindosh va oshna va qo'shnilarimni va men bilan tanishchiligi bo'lgan kimsalarni ham ne'mat va davlatim bor vaqtida siyladim

va ardoqladim va haqlarini ado qildim. Farzand va qarindoshlarim bilan tug'ishkanlik rishtalarini uzmadim va ularni o'ldirmakka va bog'lamoqqa amr etmadim.

Agar qarindoshlarimning biri men bilan qarindoshlik iplarini uzsa yo o'zga bir odamga zulm va javr qilsa va tug'yon ko'tarsa, avval unga pand va nasihat bilan nojo'ya ishini ta'qiqladim, agar bu foyda bermasa, uni tutqunga solib, siyosat qilib, mollarini toroj etdim. Mansabini o'zga kishiga berdim va uni qabila orasida xor va darvish etdim. Va bu yanglig', agar aholidan bir kishi boshqa kishiga yo bir sipoh boshqa sipohga sitam ravo ko'rsa, qattiq siyosat va uqubatdan so'ngra uni qamoqqa olib, mollarini musodara qilishga farmon berdim. Har kimsani qanday tanisam, taniganimga loyiq unga muomala qildim.

Va zamonning issiq va sovug'ini ko'b ko'rib tajribalar orttirgach, do'st va dushman bilan kelishib ish tutdim.

O'n ikkinchi, lashkar va do'st-u dushmani aziz tutdim. Negaki ular, boqiylik matosini foniy dunyo moliga sotib, jang-u jadalda o'zlarini tahlikaga solib, jonfidolik ko'rsatadilar. Va dushman tarafidan menga dushmanlik qilib, qilich ko'targan va o'z valine'matiga chin ko'ngildan va qat'iy e'tiqod qilgan kimsani ko'b do'st tutdim. Va u mening qoshimga kelsa, uning vafo va rostgo'yligining qadrini bilib va o'zimga ishonchli kishi sifatida bildim. Va tuz haqqini va vafodorlik shevasini unutib, ish vaqti o'z sohibidan yuz o'girib, mening qoshimga kelgan sipohiyni barcha odamlardan dushmanroq bildim.

Va To'qtamishxonning urushida uning amirlari menga arizalar bitib, bizni qabul qiling, deb xabar berdilar va mening dushmanim va ularning egasi bo'lgan To'qtamishxonning tuzi haqqini unutib, o'z valiynematlari haqqini unutdilar va rostlik va vafodorlikni chetga surib, mening qoshimga keldilar, ularga nafratimni bildirdim. O'z-o'zimga bular o'z murabbiylariga ne vafo qildilarki, menga qilgaylar, dedim?

Va tajribamga yetishtikim, din va qonun-qoida bilan barqaror bo'lmagan va to'ra va tuzuk bilan mus-

tahkamlanmagan har davlat uzoqqa bormaydi. Bu saltanatdan tuzum va shukuh va obro'-e'tibor ketadur. Va bu podshohlik bir yalang'och odamga o'xsharkim, har kimsa uni ko'rsa, ko'zini yumgay va shunday uyga o'xshaydikim, uning shift-u eshik va tambasi bo'lmasa, unga hech kas-u nokas kira olmas. Shu jihatdan, saltanatim binosini islom dini va qonun-qoidasi va urf-odat va tuzuk va nizom bilan mustahkam qildim. Va har bir ish-u voqealarkim, podshohlikda oldinga keldi, ul ishni urf-odat va tuzuk bilan anjomga yetkazdim.

Avvalgi tuzukkim, ko'nglimda paydo bo'lishga mu-sharraf bo'ldi, din rivoji va Muhammad Mustafo (alayhi salot vassalom) shariatini mustahkamlash edi. Va jahon mamlakatlari va o'lkalari va tegrasida din va shariatga rivoj berdim va saltanatimni shariat bilan orasta qildim.

DIN RIVOJI TUZUKINI MUNDOQ QILDIM

Sayyidlarning birini ahli islom sadrligiga tayinladim, toki fozil kishilarni qo'l ostiga olgay va diyonatli moliya xodimlarini qo'ygay va har shahr-u o'lkaga bosh qozi va mufti va muhtasib tayin etkay va sayyidlar va ulamo va mashoyix va mustahiqalar uchun suyurg'ol (yer-mulk) va oylik maosh tayin qilgaylar.

Va aholi va lashkar uchun qozi tayin etdim. Va har mamlakatga shayx ul-islom yubordimki, islom ahlini gunoh ishlardan qaytarib, amri ma'ruf etkay.

Va amr etdimki, shaharda masjidlar va xonaqohlar ta'mir etkaylar va yo'l boshlarida rabotlar bino qilg'aylar va nahrlarg'a ko'prik solgaylar. Va har shaharga ulamo va mudarrislar tayin etdimki, islom ruknlarini ta'lim bergaylar. Tafsir va hadis va fiqhdan musulmonlarga din ilmining darsini o'tkaylar.

Va amr etdimki, sadr va qozi qo'lga olingan mamlakatlarning shar'i muhimlarini mening arzimga yetkazgaylar. Va adolat amiri tayin etdimki, sipoh va

aholining urfiy shikoyat arizalarini mening arzimga yetkazgaylar.

Va din tuzukini tuzgach, islom o'lkalarida shariatga rivoj berdim. Va din-u islom rivojining ovozasini islom ahlining ulug' va kichiklari quloqlariga yetib borgach, islom ulamosi fatvo yozdilarki, Tangri Taolo har yuz yilda Muhammad (alayhissalot vassalom) dinini tozalab, rivoj bermakka bir rivoj beruvchi va yangilovchi paydo qilgani uchun Amiri Sohibqiron bu sakkizinchi yuz yillikda dinni yangidan kuchaytirgaylar. Bas dini Muhammadiyning yangilovchi kishisi ular bo'lurlar.

Va Mir Sayyid Sharifkim, zamon ulamosining ulug'laridan edi, bu bobda menga bir noma yozdi: «O'tgan ajdod va avlod ulamosining umum fikriga ko'ra, Hazrati risolatpanoh (sallallohu alayhi vasallam) dan so'ng har yuz yilning boshida Tangri Taolo Muhammad dini rivoji uchun bir yangilovchi yuborur. Va ushbu sakkiz yuzinchi yilning boshida Amiri Sohibqiron dini mubinga rivoj beribdurlar va olam atrof va aknofida din-u islom rivoj topibdur, shu sababdan haqiqatan ham dinga rivoj bergan kishi Amiri Sohibqirondur». Va bu maktubning mazmuni shunday: «Ollohumma ansur min nasri dini Muhammad va axzil min xazmi dini Muhammad va oli Muhammad» («Ollohim Muhammad dini g'oliblaridan qilgil, Muhammad dini va uning ahli oilasini kamsituvchilardan uzoq qilgil»).

Hazrati Risolatpanoh (sallallohu alayhi vasallam) hijrati zamonidan bu kungacha sakkiz yuz yil o'tdi va har yuz yil boshida Tangri Taolo o'z habibi dini rivoji uchun bir rivoj beruvchi va yangilovchi yubordiki, ul hazratning din va millatini yangidan quvvatlasin. Alhamdulillahkim, sakkizinchi yuzning boshida Tangri Taborak va Taolo Amiri Sohibqironni islom dinini yangilovchi va rivojlantiruvchi qilib yuboribdurkim, o'lkalar va mamlakatlarda Muhammad diniga rivoj beribdurlar. Undan keyingi nasl ulamosi yangilovchilar ahvolini o'rganib yozgan kitoblari-da shunday bitibdirlarki, hijratdan avvalgi davrda bo'lgan yangilovchi, ya'ni tozalaguvchi Umar Abdulazizdur.

Xavorij ahli (rasmiy xalifaga qarshi muxolif kuchlar) manzillarida Hazrati Ali (karmallohu vajhihi) ga la'nat aytib va ta'na bildirganlari uchun islom dini ojiz bo'lib edi. Ul Sultoni adolatpesha, uni bartaraf qildi va islom ahliga qarshi voqe bo'lgan adovat va dushmanlik yuzasidan ba'zilar Xulafoi Roshidinga la'nat yog'dirib, ba'zilar Amir ul-mo'minin Ali va Husayn va Abbos (raziyallohu anhum)ga la'nat aytar edilar, bartaraf etib, dinni yangidan jonlantirdilar. Ikkinchi davrda din tozalaguvchi Ma'mun ar-Rashiddurki, yetmish ikki botil mazhablarni bartaraf va bekor etib, sunnat va jamoatning barhaq mazhabiga rivoj berdi. Va Ali binni Muso binni Ja'farni Xurosonga chaqirib, uni yo'lboshchi va mutlaq ixtiyor etib, uning izni bila mamlakatda tasarruf qildi.

Uchinchi davrda, dini Muhammadga rivoj berguvchi Muqtadir billoh Abbosiydurkim, ularning ulug'i Abu Tohir bo'lmish qarmatiylar jamoasikim Makkai Muazzamaga hukmron bo'lib, o'ttiz ming ehrom bog'lagan kishini arafa kuni o'ldirib g'orat qildi. Shu jihatdan din zaif bo'lib edi. Muqtadir billoh ul jamoaga lashkar chekib, ularni qo'porib, dini islom va shariatga rivoj berdi.

To'rtinchi davrda, dini Muhammadiyga rivoj berguvchi Izdud-davla Daylamiydurkim, chun Mute ulamrulloh Abbosiyning fisq-u fujuri va uning tobelari va qo'l ostidagilarining zulmi sababidin islom dini ojiz bo'lub, islom o'lkalarida turli fisq-u buzuvchiliklar tarqalib va shuhrat topib edi, Izdud-davla uni xalifaliqdan bo'shatib, uning o'g'li Tole billohnini valiahd etti. Va Izdud-davlaning o'zi din rivojiga mutasaddi bo'lib, zulm-u javr, bid'at va nomashru amallarni daf etib, Muhammad shariatiga rivoj berdi.

Beshinchi davrda, din va shariatga rivoj berguvchi Sulton Sanjar binni Malikshohdurkim, Shayx Ahmadi Jomiy va Hakim Sanoiy uning bilan hamasr edi. Va u ularga murid edi. O'sha ayyomda dahriylar jamoasi va johillar toifasi islom dinini zaif etib edilar. Ul podshohi islompanoh dahriylar jamoasini qatl etib, dini Muhamma-

diy izdoshligida ul nav mubolag'a qildiki, undan shariat xilofiga bir ish zohir bo'lmadi.

Oltinchi davrda, dinni yangilovchi G'ozon binni Arg'un binni Haloku binni Chingizxondurkim, islom dini Turkiston kofirlari istilosi sababidan zaif bo'lgach, Tangri Taolo G'ozonxonni yuz ming turk bilan paydo qildiki, hammalari Lot sahrosida Shayx Ibrohim Hamaviy oldida imon kelturib, musulmon bo'ldilar va tillarini «La ilaha illallohu Muhammadu rasullulloh» kalimasiga go'yo qilib, kufr va bid'at izlarini yo'q qildilar. Va yurt-o'lkada shariatga rivoj berdilar.

Yettinchi davrda, O'ljoytu sulton binni Arg'unxondurkim, Sulton Muhammad Xudobanda degan laqabga ega. Mazkur yilda birodari G'ozonxondan so'ng saltanat taxtiga o'tirgan edi va dini Muhammadiy ul martabada o'jiz va zaif bo'lubturkim, namozda «At-tahiyot» dan so'ng Muhammad (alayhis-salot vas-salom) ga salavot aytishmaydi, deb eshitgach, o'zi qo'pub, Sultoniyaning masjidi jome'iga borib, islom ulamosini huzuriga keltirishga hukm etti va ulardin salavot fazilatlarini so'radi, shunda ulamo bir ovozdan, Tangri Taolo hukmi bilan Muhammadga salovot aytmoq keraktur, dedilar.

Shunda ulamodin bir jamoat Imom Shofe'iy (rahmatullohi alayh) salovot aytilmagan namozni buzilgan deb hisoblash kerak deganlar, dedilar. Va yana bir jamoa Imomi A'zam (rahmatullohi alayh) aytibdurlarkim, unda salovot aytilmagan har namoz makruhdur, dedilar.

Xullasi kalom, ulamoi vaqt, O'ljoytu Sulton din va shariatga rivoj berguvchidir, deb fatvo yozdilar.

Sakkizinchi davrda, Xudo yarlaqolgan Amir Hazrati Sohibqirondurkim, olam atrof-tevaragida shariatga rivoj berib, sayyidlar va ulamoga e'zoz va ehtirom etti».

Mirsayyid Sharifning maktubi menga yetib kelgach, menga din va shariatni yangilash tolei muyassar bo'lgani uchun Tangri Taologa shukr etdim va Muhammad bilan avlodiga iltijo qildim. Va maktubni pirim qoshiga yubordim. Ular ul maktubning hoshiyasiga yozdilarkim: «Din

va shariatga rivoj berguvchi Olloh Taolo qo'llagan Temur Sohibqiron bilgaykim, ushbu ulug' qo'llab-quvvatlash va Haq saxovati va hadyasidur. Va ul saltanat qutbiga fikri Taolo dinni yangilash va shariat rivoji tavfiqini beribdur, ziyod etsunlar, to ziyoda qilg'aylar».

Pirimning o'z xati bila bitgan maktubi menga yetib kelgach, islom ulamosi va sayyidlariga ta'zimni bajo keltirib, shariat rivojiga ko'bdan ko'p sa'yi harakat qildim va amr etdimki, bu maktubni shundayligicha voqealar daftaxonasida sabt etkaylar.

Din va shariat tuzukini qilib bo'lgach, saltanatim korxonasi tuzukiga kirishdim va urf-odat va tuzuk bilan saltanatim martabalarini saqladim.

SALTANATIMNI SAQLAMOQ TUZUKINI BU YO'SUNDA QILDIM

Avval saltanatim qoidalarini dini islom va shariat bilan mahkam va ustuvor qildim va podshohligim himoyasini urf-odat va tuzuk bilan shunday qildimki, saltanatimga daxl etishga hech kimsada quvvat va yurak bo'lmadi.

Ikkinchi, lashkar va aholini umid va qo'rquv martabasida tutdim va do'st va dushmanni muruvvat va madoro martabasida tutib, qilmishlari va gap-so'zlarini chidam va o'zni bilmaslikka olib o'tkazdim. Va do'st va dushmandan har kimsakim menga iltijo qildilar, do'stlarni bir martabada tutdimki, do'stligini oshirgaylar va dushmanlarga ul martabada muomala etdimki, dushmanliklarini do'stlikka almashtirgaylar.

Va har kimsaning menda haqqi bo'lsa, uning haqqini zoye qilmadim va har kimsani tanidim, uni nazardan qochirmadim. Va har kimsalarkim, davlat va saltanat taxtiga chiqishimdan oldin menga yaxshilik qilgandilar, yaxshi niyatlilar va yomon niyatlilardan xoh menga yaxshilik qilgan bo'lsin va xoh yomonlik, podshoh bo'lganimdan so'ng ularni ehsonim bilan uyaltirib, qilgan yomonliklari-

ni qilmagan sog'indim va gunohlari daftariga afv qo'lini chekdim.

Uchinchi hech kimsadan qasos olmadim va qasos olmoq tilamadim va yomonlik qilg'uchilarni parvardigorga topshirdim va bahodir va ish qilgan kishilarni saqladim. Va asil va oliyjanob va tuzso'zluk va durust fe'llik va jo'mard kishilar va sayyidlar va ulamo va fuzalo va diyonatlik kishilarni o'zimga yaqin etib, yomon va yalg'onchi va badnafs va xasis va hasadchi va baxillarni dargohimdin quvladim.

To'rtinchi, ochiq yuzlik va rahm va shafqat bila xaloyiqni o'zimga rom etdim. Va adolat va muruvvat qilib, zulm-u javrdin yiroq bo'ldim. Va johil va yomon fe'llardan bezorlik tiladim. O'sha davrlarda pirim menga yozdiki: «Xudo yarlaqolgan Abul Mansur Temurga ma'lum bo'lg'aykim, saltanat korxonasi – korxonai ilohiydan namunadurkim, unda xizmatchi va faollar va noib va eshik og'olarining har biri o'z martabasida o'z ishiga mashg'uldurlar va o'z martabalaridan tajovuz qilmaslar va amri ilohiyga muntazir bo'lurlar. Bas senga ehtiyot kerakturkim, vazirlar va sipohiyar va xizmatchilar va lashkarboshi va ish qiluvchilarning har biri o'z martabasida bo'lib, sening hukmingga muntazir bo'lgaylar va har toifa va har jamoani o'z martabalarida qo'ygil, to sening saltanating martabasi tartib-intizomiga kirgay. Va agar har nimarsa va har kimsa martabasi himoyasini qilmasang, saltanating ishlariga zarar va buzg'unchilik yo'l topar. Bas senga kerakturkim, har nimarsa va har kimsaning qadr-u martabasi darajasini saqlagaysen. Va Muhammad avlodi martabasini barcha martabalardan baland tutgaysen va ta'zim va ehtiromlarin bajo keltirib, muhabbatlarini haddan ziyod etgaysen, har nimarsa Xudoy uchun bo'lsa, unda isrof bo'lmas. Va saltanatingni o'n ikki toifa bilan tartibga solib, sarishta qilgaysen».

Va pirimning ushbu nomasi menga yetib kelgach, har na buyurganlarini bajo keltirdim va saltanatim martabalarini tartib-intizomga soldim va saltanat martabasiga urf-odat

va tuzuk bilan zeb-u ziynat berdim. Va o'n ikki toifa bilan saltanatimni mahkam va ustivor etdim. Va saltanatim qoidalarini o'n ikki toifaga bog'lab, mustahkam qildim. Va bu o'n ikki toifani falakning o'n ikki burji va o'n ikki oyi yanglig' saltanatim korxonasida qaror berdim.

Avvalgi toifa sayyidlar va ulamo va mashoyix va fuzaloni o'zumga yaqin etdim va hamisha ular majlisimga kelibketib, borgohimga zeb-u ziynat berdilar. Va majlisimda diniy va hukmiy va aqliy ilmlarni izhor etdilar va ulardin harom va halol masalalarini so'radim va tavba-tazarru etdim. Ikkinchi toifa oqil va kengashdor va mulohaza va ehtiyotli va ko'pni ko'rgan va uzoqni ko'ruvchi odamlarni xos majlisimga yo'l berib, ular bilan suhbat tutib naf topib, tajribalar hosil qildim.

Uchinchi toifa duogo'ylarni aziz va muhtaram tutib, xilvatda ulardan duolar tiladim va muddaolar gadolik qildim va majlislar va yig'inlarda va bazm va janglarda ulardin ko'b barokatlar topdim. Va urush kuni ular barokatidan zafarlar ko'rdim. Shunday bo'ldiki, mening lashkarim To'qtamishxon lashkarining ko'pligidan urushda bezovta va betoqat bo'lgan chog'da, Amir Ziyovuddin Sabzavoriykim, duosi ijobat topadigan kishi edi, boshini yalang'och qilib, qo'lini duoga ko'tarib ediki, hanuz duosi tamom bo'lmay turib, duosining asari oshkor bo'ldi.

Boshqa bir payt, mening haram saroyimdan biriga qattiq bemorlikka duchor bo'lgan edikim, ul [o'n] ikki duogo'y sayyid jam bo'lib, har biri o'z umridin unga bir yil baxsh etdilar. Shu bilan sihat topib, o'n ikki yil umr ko'rdi.

To'rtinchi toifa amirlar va lashkarboshilar va qo'shin sardorlariga majlisimda izn berib, buyuk martabalarga yetkazib, ular bilan suhbat tutib so'zlar so'radim. Va necha martalab qilich chopgan bahodir va shijoatli kishilarni do'st tutdim va urush va savash etmak va jang-u jadallarga kirmoq va saflar sindirmoq tariqalarini ulardan so'radim va sipohgarlik martabasida ularga ishonch bildirib, ulardin kengash talab qildim.

Beshinchi toifa sipoh va aholini bir ko'z bila ko'rdim va

lashkar bahodirlarining dovyuraklarini o'tog'a (dubulg'a jig'asi) va kamar va sadoq bilan sarbaland etdim. Va har mulk va mamlakatlarning oqsoqol va ulug'roqlarini ehtirom etdim va ularga mukofot berib va ehson etib, naf oldim. Va lashkarni hozir qilib, saqlab, oylik maoshlarini talab qilmaslaridan burun berdim.

Jumladan, Rum yasoqida lashkarga yetti yillik maoshini birdan berdim va sipoh va aholini bir xil ushladimki, hech qaysiga bir-biridan javr va nomuloyimlik voqe bo'lmadi va qolgan lashkarni o'z martaba va darajalarida saqladimki, o'z hadlaridan tashqari qadam qo'ymadilar va ularning martabasini balandga baland va pastga past etdim va har qaysidan bir xizmat voqe bo'lsa, in'om bilan imtiyoz berdim. Va boshqa sipohdan har kimsaning aql va jasoratini adolat va xolis tarozusi bilan o'lchadim, tarbiyat qilib amirlik martabasiga yetkazdim va qilgan ishiga loyiq martabasini baland etdim.

Oltinchi toifa, saltanat ishlari maslahatiga loyiq va podshohliq sirlari izhoriga munosib va muvofiq, oqil va xiradmand va e'tiqodi mahkam kimsalarni pinhon sirlarim sohibi qilib, maxfiy sirlarimni ularga topshurdim va ular din hokim va voliylarning xalqqa qilur ishlarini so'radim.

Yettinchi toifa vazirlar va munshiy va kotiblar bilan saltanatim devonini tartibga soldim va ularni mamlakatlarning xavfsizligini ta'minlovchi kishilar qildim, ular sipoh va aholi va mamlakatlar voqealarini haqiqat va rostlik bilan menga oshkor qildilar. Va xazina va aholi va lashkarimni ma'mur tutib, kerakli tadbirlar bila mulk raxnasiga to'siq bo'ldilar. Va podshohlik korxonasining kirim-chiqimini ro'yxatga olib, mustahkam saqladilar va mulk farovonligi va aholi manfaatlariga sa'y-u jahd ettilar.

Sakkizinchi toifa, hakimlar va munajjim va tabib va muhandislarnikim saltanat korxonasida keraklidir, atrofimda to'pladim va hakim va tabiblar yordami bilan bemorlar muolajasini qildim va munajjimlar jamoasidan har kun har yulduzning omad keltirishi yoki baxtsizligini va sayr etmagini va falak aylanishini aniqlatib bildim. Va

muhandislar ko'magi bilan oliy imoratlar bino qildim va bog'lar tarh etdim. To'qqizinchi toifa, hadis va xabar va qissa arbobini oldimga yo'l berib, payg'ambarlar va avliyo qissalarini va o'tmish podshohlari xabarlarini va ularning saltanat martabasiga yetishuvi va davlatlari zavolining qanday ro'y berganini ushbu toifadin eshitib, har qaysining so'zlari va xabarlaridin tajribalar oldim. Va olamning xabar va asarlarini ulardin eshitib, olam ahvoliga ogohlik topdim.

O'ninchi toifa, mashoyix va so'fiylarga va xudo oriflariga qo'shilib, ular bilan suhbatlar qilib, oxirat foydalarini oldim. Va ulardan Xudo so'zlarini eshitib, karomat va g'aroyib odatlarini ko'rdim va menga ular suhbatidan xursandlik va shodlik hosil bo'ldi.

O'n birinchi toifa, har toifa hunarmandlardan o'z davlatxonamga keltirib, ularga o'rduda o'rin berdim, ular safar va tayyorgarliklarda lashkar hojatlarini hozir va muhayyo qildilar.

O'n ikkinchi toifa, har mulk va diyorning sayyoh va yurtma-yurt kezuvcilarini oldimga chaqirdim, mamlakatlar xabarlarini menga yetkazgaylar. Karvonlar va karvonboshilar tayin etdimki, har mulk va diyorga borib, Xitoy va Xo'tan, va Chin-u Mochin va Hinduston va Arabiston va Misr va Shom va Rum va Farang orollaridan menga nafis matolar va loyiq tuhfarlar kelturgaylar va ul diyorlarning ahvol va avzo va atvorini menga yetkazib va har mamlakat hokimlarining aholisi bilan qilgan muomala va fe'l-atvoridan xabar keltirib, izhor etkaylar.

FASL. TURK VA TOJIK VA AJAM DIN DARGOHIMGA PANOH TORTIB KELGAN TOIFALARGA SHUNDAY TUZUK QILDIM

Avval amr etdimki, har toifa va har tabaqakim, sayyid va ulamo bo'lsalar, ularga izzat va hurmat qilib, har martabalari bo'lsa hozir-u nozir qilgaylar. Va ular ahvoliga rioyat qilmoqni lozim va vojib bilgaylar. Va agar kosib va hunar ahlidan bo'lsalar, ularga saltanat korxonasida ish

qildirgaylar. Va agar faqirlar va miskinlardin bo'lsalarkim, qudrat va kuch-quvvatlari yo'q bo'lsa, har tabaqaning ahvoliga loyiq rasm-rusumini amalga oshirgaylar.

Va hukm etdimki, har savdogarkim, sarmoyasini qo'ldin bergan bo'lsa, unga bir miqdor zar bergaylarkim, yana sarmoyasini tuzatkay va har dehqon va aholikim, tobelik va dehqonchilikka qudrati yetmasa, unga imorat va dehqonchilik asbobini ta'minlab bergaylar. Va xarobalar ta'miri va ekin yerlari obodligiga harakat qilgaylar, to mamlakat vayronlikka yuz qo'ymagay. Va har toifakim, sipohgarlik yo'lini ixtiyor etsa, uni sipohiy qilgaylar va asil bahodir sipohiyzodalar bo'lsa, unga o'rin bergaylar. Va ish va ahvoliga loyiq tarbiyat qilgaylar.

Va amr etdimki, har toifa va har kimsakim majlisimga kirsas, uni saltanat dasturxonidan noumid etmagaylar. Va har kimsani mening nazarimga keltirib, unga nazarim tushsa, uning ahvoliga loyiq yo'l-yo'riq bergaylar. Gunohlik va gunohsizdan har kimsakim adolat devoniga kelsa, unga rahm-shafqat bilan kechirib, ikkinchi va uchinchi gunohida loyiq jazo bergaylar.

FASL. SALTANATIM ISTIQLOLI TUZUKINI BUNDAY QILDIM

O'n ikki nimarsani o'zunga shior etdim, to saltanat taxtida to'la mustaqillik bila o'ltirdim va tajribamga yetishtikim, har podshohda ushbu o'n ikki ish bo'lmasa, podshohliqda bahrasiz bo'lgay.

Avval kerakkim, gapirgan so'zi va tutgan ishi o'zidan bo'lgay, ya'ni sipoh va xalq bilgaylarkim, podshoh har na aytsa, o'zi aytur va har nima qilsa, o'zi qilur va o'zganing unga daxli yo'qtur. Bas kerakkim, podshoh o'zgalar so'ziga ul nav amal qilgaykim, saltanati martabasiga o'zgalar sherik bo'lmagay. Garchi yaxshi so'zni har kimsadin eshitmak keraktur, ammo ul martabada emaskim, ish va so'z bila podshohlik ishlariga sherik va g'olib bo'lgaylar. Va mamlakat boyligiga bahodir va gustoh bo'lub, nafslari

havosiga amal qilgaylar. Bas agar ahvol shu bo'lsa, ish qiluvchilarning g'olibligi bilan podshohlik tayanchiga putur yetib, mamlakat tuzumining rishtasi uzilur, sipohiy va aholi ishi tamom bo'lur. Ikkinchi, podshoh kerakkim, barcha nimarsada adolat va muruvvat ila ish olib borgay va o'z xizmatida adolatli vazirlar va muruvvatli xodimlar va diqqatli va insof va diyonatli va yaxshi fitrat va jo'mard posbonlar saqlagaykim, agar har vaqt podshoh g'azab va g'ururga ketib, zulm etmak tilasa, vazir odil bo'lsa, uning tadorukin qilgay va uni ul holdin qaytargay. Ammo agar vazir zolim va betamiz va mag'rur bo'lsa, tez bo'lurkim, podshohlik uyi xarob bo'lgay.

Chunonchi, Amir Husaynning bir zolim vaziri bor ediki, sipoh va aholidan haq va nohaq gunohlar topib, tutar edi, to oz chog'da ul olchoq va betamiz vazir zulmining shumligidin Amir Husayn saltanatining uyi xarob bo'ldi.

Uchinchi, buyruq va uni bekor qilishlarda mustaqillik bilan ish qilib, o'zi hukm bergaykim, o'zgalarning zahrasi bo'lmagaykim, ul hukmga daxl etkay va uni o'zgartirgay.

To'rtinchi, o'z qarorida qat'iy bo'lgay, ya'ni har ishni qilurga qasd va qaror qilsa, uni tamom etmay qo'ymagay va ul ishni bitkazmay undin ilik uzmagay.

Beshinchi, hukm yurgizishdur, nechukkim har hukm etsa, kerakkim ul hukm joriy va amalda tatbiq bo'lgay. Va hech kimsada yurak va qudrat bo'lmagaykim, ul hukmni rad qila olgay, garchi undan zarar kelishi kutilsa ham.

Shunday bo'ldiki, Sulton Mahmud G'aznaviy hukm ettiki, G'aznayn maydoni boshiga bir tosh tashladilar va ul toshdan odamlarning otlari hurkar edi va har nechakim arz ettilarkim, ul toshni yo'l boshidin ko'targaylar, sulton dedikim, har hukmkim qilibdurmen, ul hukmdan qaytmagumdur va ul hukmga qarshi ish qilmayman.

Oltinchi, o'z saltanati ishlarini o'zgaga topshirmagay va inon-ixtiyorini o'zganing qo'lig'a bermagaykim, dunyo bir bevafo va g'addordurkim, oshiqi bisyor va behad va sanoqsizdur. Va tez bo'lurkim, ul sohibixtiyor bo'lgan odam podshohlikka mayl etib, saltanat martabasini tasarrufiga

kirguzgay. Jumladan, Sulton Mahmudning vazirlari anga bevafoqlik qilib, uni podshohlik martabasidan qo'porib, mamlakat va saltanatiga ega bo'ldilar. Bas kerakkim, saltanat ishlarini bir qancha mo'tabar va ishonchli kishilarga topshurgay, to har qaysi o'z ishiga mashg'ul bo'lib, saltanat martabasidan tama qilmagaylar.

Yettinchi, saltanat ishlarida har kimsadin so'z eshitib, xohlagan va o'ziga yoqqan so'zni xotiri xazinasida saqlab, zarurat bo'lgan chog'da uni ishlatgay va unga amal qilgay.

Sakkizinchi, saltanat va sipoh va xalq ishlarida har kimsaning so'zi va tutgan ishiga amal qilmagay. Vazirlar va amirlarning bir-biri haqida aytgan so'zlarini, xoh yaxshi va xoh yomon eshitgay. Lekin unga amal qilmoqda sabr-chidam va o'ylab ish tutgay, toki aytilgan so'zning nechog'liq haqiqati unga ayon va sobit bo'lgay.

To'qqizinchi, kerakkim podshohligining ta'siri xalq va sipoh ko'ngullarida ul nav o'rnagaykim, hech kimsada uning amr-u hukmiga qarshi ish qilishga yurak va qudrati bo'lmasin va uning itoat va tobeligidan bosh tortsin. Va ularning jumla makr-hiylalaridan boxabar bo'lmoq kerakdir, chunki ko'b odamlar borki, ko'rinishdan darvishdurlar va lekin hiylakorlik bilan necha ishlar qilurlarki, hech zolim va sitamkorlar uni qila olmaslar. O'sha toifadan g'ofil bo'lish kerakmas. Ularni tanimoq kerakturkim, ul jamoatning ziyon-zahmati o'zga zolimlardan ziyodadur. O'ninchi, har na qilsa ishning mohiyatiga qarab qilgay va har nima desa, aytgan so'zida qat'iy va sobitqadam bo'lgay, negaki podshohga o'z hukmini izzatlamogdin o'zga bahra yo'qturkim, xazina va lashkar va aholi uning hukmiga bog'liq va bajo keltirish garovidir.

O'n birinchi, saltanat ishlari va hukmlarini joriy qilmoqda o'zini sheriksiz bilgay va hech kimsani podshohligiga sherik etmagay.

O'n ikkinchi, o'z majlisi holidan ogoh bo'lgay va hushyorlik qilgaykim, ko'proq odamlar g'iybatchi bo'lurki, tashqariga xabar yetkazib, podshohning ishi va so'zidan

amir va vazirlarga xabar eltarlar. Chunonchi, shunday voqea mening o'zimda yuz berdi, mening xos majlisim ahlidin bir jamoasi amir va vazirlarimning josuslari ekanlar.

LASHKAR SAQLAMOQNING TUZUKI

Amr etdimki, o'n nafar asil va ish qilgan kishi jam bo'lsa, ularning bir bahodir javharini, o'sha to'qqiz nafarning roziligi va ma'qul ko'rmagi bilan ularga amir etgaylarkim, unga o'nboshi ot qo'yarlar. Va o'nta o'nboshi jam bo'lsa, ulardan ish bilgan va ish qilgan birini, ularga amir etkaylarkim, unga yuzboshi ot qo'yarlar. Va o'n yuzboshi jam bo'lsalar, bir asil va oqil va bahodir va mardona amirzodani ularga amir etkaylarkim, unga mingboshi va «amiri hazora» (minglik amiri) derlar.

Va o'nboshilarning ixtiyorini o'z qo'llariga berdimki, agar uning tobe'laridan biri o'lsa yo qochsa, yana birovni uning o'rniga qo'ygaylar. Va shu yo'sinda yuzboshi o'nboshini va mingboshi yuzboshini tayin qilgay. Va o'lgani va qochganining o'rniga yana birovni tayinlamog'ining xabarini arzga yetkazgaylar.

Va bu tariqa amr etdimki, jang maydonida, ya'ni lashkargohda va podshohlik ishlarida mingboshining hukmi yuzboshiga va yuzboshining hukmi o'nboshiga va o'nboshining hukmi tobe'lariga joriy bo'lgay. Va agar bo'yin tovtasalar sazoga yetkazgaylar. Va agar jang maydonida zaiflik qilsalar, uni chetlashtirib, o'rniga boshqani saqlagaylar.

FASL. LASHKAR ULUFASI QARORINING TUZUKI

Amr etdimkim, sipoh maoshlarini amirlar va mingboshi va yuzboshi va o'zga sipohdan bu tariqa muqarrar qilgaylarkim, o'zga sipohkim, basharti asil bo'lsa va sipohgarlik shartini bajoy keltursa, uning o'zi bila otining maoshi muqarrar bo'lgay. Va bahodirlarning maoshi ikki

otdan to to'rt otgacha muayyan bo'lgay. Va o'nboshining maoshi tobelarining maoshidan bir barobar ortiq bo'lgay. Va yuzboshining maoshi o'n boshining ikki baravar maoshicha va mingboshining maoshi yuzboshining uch chandon maoshicha muayyan bo'lgay.

Va hukm etdimki, lashkarning har qaysi biri lashkargohda gunoh ish qilsa, uning maoshidan o'ndan birini kam qilgaylar.

Va amr etdimki, o'nboshi yuzboshining tasdig'i bilan va yuzboshi amir ul-umaroning tasdig'i bilan maosh olgaylar. Va shu yo'sinda amr etdimki, devonbegi va vazirlarning maoshi amirlarning maoshidan ikki chandon bo'lgay. Va yasovullar va chopavullar va qullug'chilarning maoshi o'n ming tangaga tegr-u muqarrar bo'lgay. Va majlisga kelguvchi sayyidlar va ulamo va fuzalo va hakimlar va tabiblar va munajjim va qissa va rivoyat arbobining maoshlari nasablariga loyiq berilgay. Va suyurg'ol (hadya etilgan yer) va maoshlari muayyan bo'lgay.

Va yugurdaklar va xodimlar va farroshlarning maoshi yuzdan to mingga (tanga) tegr-u muqarrar bo'lgay.

Va amr etdimki, amir ul-umaro devonbegi va vazirlarning tasdig'i bilan maosh olgay va har qaysi amirning maoshining darajasini devonbegi bilan vazirlar arzga yetkazib ulushini bergaylar. Va amr etdimki, sipohdan har qaysining maoshi yorlig'ini yozib topshurgaylar va shu yorlig'ning orqasida unga yetkazilgan mablag'ning yetib borganini yozgaylar.

FASL. LASHKARGA MAOSH YETKAZMOQNING TUZUKI

Amr etdimki, piyodalar va qulluqchilar va yasovul va chopavullarning bir yillik maoshi mablag'ini devonxona-ga keltirib, ularga yetkazgaylar. Va o'zga sipoh va bahodirlarkim bordurlar, amr etdimki, ularning olti oylik maoshini xazinadin bergaylar. Va amr etdimki, o'nboshi va yuzboshining maoshini omonlik berilgan shahar va o'lka

molidan bergaylar. Va mingboshilarga viloyat ichidan tayin etkay. Amirlar va amir ul-umaroga viloyat chegaralarida muqarrar qilgaylar.

Va amr etdimkim, viloyatlar qismatin bu yo'sinda qilgaylarkim, viloyat va mamlakatlarning barcha hosilini taqsim etgaylar va yorliqlarda kam-u ziyoda yozmagaylar va ul yorlig'larni devonxonaga keltirib, amirlar va mingboshilarning har biri bir yorlig' olgaylar va agar maoshlaridan ortiq bo'lsa, o'ziga yana birovni sherik etgay va agar kam bo'lsa, yana bir yorlig' olgay.

Va amr etdimkim, amirlar va mingboshilar aholidan soliq to'plashda asl moldan ortiq nimarsa va sovariylar va qo'nolga va shilonbaho (ziyofat puli) talab qilmaslikka e'tibor bergaylar.

Va har mamlakatgakim tiyul¹ berilgay, uning davlatida ikki vazir tayin etilgaykim, biri viloyat jam'ini yozib, aholi bilan munosabat tartib-qoidasini tuzgay, to xalq ahvoliga buzuvchilik yo'l topmagay va qo'l ostidagilariga zulm-u ta'addi qilmagay va viloyatdan hosil bo'lganni jam etkay. Yana bir vazir xarajatlarni, ya'ni xarjtalab joylarini yozib, lashkarga taqsimlagay. Va har amirgakim, tiyul berilgay, to uch yilga tegru o'z holiga qo'ygaylar va uch yildan so'ng mulohaza qilib ko'rgaylarkim, agar mulk obod va aholi rozi bo'lsa, o'z holicha qoldirgaylar va agar muning xilofi bo'lsa, ul viloyatni barcha yig'implardan ozod etkaylar va to uch yilga tegru u yerda jang-u jadalga to'lov bermagaylar.

Va amr etdimki, aholidan olur molni dag'dag'a va qo'rqitmoq bilan jam etkaylar, tayoq va qamchi bilan jam etmagaylar, negaki har hokimning hukmi tayoq va qamchidan kam bo'lsa, hukumatga loyiq va sazovor emasdir.

¹Tiyul iboratining asl ma'nisi ne erkani ma'lum bo'lmadi, ammo kalom siyqidin mafhum bo'lurkum, xiroj masalliq bir nimarsadurkim, viloyatdin olinur (Rojiy.) Tiyul – xiroj va soliq yig'ib olish haqqi bilan in'om etilgan yer-mulk; viloyat – mualliflar.

FASL. FARZAND VA NABIRALAR MAOSHI MARTABALARIDA AMR ETDIM

Avvalgi farzandim, mening valiahdim Muhammad Jahongir, ikki ming otliqqa teng maosh va viloyat olur. Va uchinchi farzandim, Mironshoh, to‘qqiz ming otliqqa teng maosh va viloyat olur. Va nabiralar iste’dodlariga yarasha uch mingdan to yetti ming otliqqa tegru maosh va viloyat olur. Va bulardan, menga yaqinligi va qarindoshligi bor jamoat hol va iste’dodlariga loyiq amiri avvaldin to yettinchi amir martabasiga tegru viloyat va voliylik olurlar. Va har qaysi o‘z martabasida va haddida bo‘lib, o‘z haddidan oshmagaylar va bunga qarshi amallari oshkor bo‘lsa, eskartma olurlar.

FASL. FARZAND VA OILA AHLI VA QARINDOSH- LAR VA AMIR VA VAZIRLARGA SIYOSAT QILMOQ BOBIDA AMR ETDIM

Agar farzandlarimning birisi saltanat martabasiga da’vo qilsa, uni o‘ldirmoq va bog‘lamoqiga jur’at qilmagaylar va a’zolariga nuqson yetkazmagaylar, lekin tutqunda saqlagaylar, to da’vosidan qaytib, Xudo mulkida buzuqchilik bo‘lmagay. Va nabiralar va qarindoshlar agar qarshilik ko‘rsatsalar, ularni faqir va darvish etkaylar. Va amirlarkim, mulk qo‘rg‘onidurlar, agar ish chog‘ida nizolashsalar, ularni amirlik va voliylikdan chetlashtirgaylar. Va ulardan mulk ichida biron fitna kelib chiqadigan ish oshkor bo‘lsa, u holda amirlarga tobe qilgaylar. Va agar saltanat ishlarida va sipohgarlikda noahillik qilsalar, qilmishlarini yozib qo‘ygaylar. Va agar shundin so‘ng ham ulardan bir gunoh va kamchilik oshkor bo‘lsa, ularga huzuriga qabul va ko‘runush bermagaylar.

**VAZIRLAR BOBIDAKIM, DAVLAT
SILSILASINING ISHONCHLI ODAMLARI
VA MO'TABARLARIDURLAR, AMR ETDIM**

Agar saltanat ishlarida ulardan bir xiyonat zohir bo'lsa va saltanat zavolini iroda qilsalar, ularni o'ldirmak va bog'lamoqda shoshilmagaylar va tahqiq etkaylarkim, da'vogar va xabar yetkazuvchilar ne kishilardur. Avval rostgo'ylar va da'vogarlarning aytgan so'zlari to'g'riligini sinchkovlik bilan tekshirib ko'rgaylar, chunki hasadchilar va yolg'onchilar ko'p bo'lurkim, hasad va tama yuzasidan yolg'on so'zni rostlik libosi bilan oro berurlar, to o'z ishin tuzatkaylar. Va ko'b pastkash va tuban kishilar bo'lurlarkim, davlat dushmanlariga yo'l berib, davlat tarafdorlari va jonfidolarini makkorlik va hiylagarlik bilan xarob etarlar va makr-u hiyla bilan mamlakat qo'rg'oniga raxna solurlar.

Chunonchi, Amir Husayn mening vazirlarimning biri bilan til biriktirib, mol-dunyoga tamagir qilib, o'z tarafiga og'dirdi va Amir Eku Temur bilan Amir Joku mening davlatim tayanchi bo'lishlariga qaramay, menga qasd etkaylar, deb menga aytdirdi. Va men buni farosat bilan angladim. Va ular haqida aytgan so'zlarini eshitgan yanglig' bo'ldim.

Va mening yaqinlarimdan bir jamoa hasad va nizo yuzasidan mening ulug' va mo'tabar amirlarimdin Amir Abbos haqida voqe bo'lmagan so'zlarni xilvatda menga arz etib, g'azabim o'tini yolg'on so'zlar yeli bilan yondirdilar. Shu bilan g'azab holatida tajribalar qilmay, uning qatlig'a amr etdim. Va oxiri ularning Amir Abbos haqida bevafoqlik qilganliklarini tushunib yetib, o'zimga nadomat etib, pushaymon bo'ldim. Va agar mamlakat xazinachisi bo'lgan moliya vazirlari, davlat mulkiga daxolat va ortiqcha sarfxarajat qilsalar, maoshiga barobar bo'lsa, in'om sifatida kechirgaylar. Va agar maoshining ikki barobaricha sarfla-

gan bo'lsa, maoshidan chegirgaylar, undan sovg'a-salom, deb olgaylar.

Va amr etdimkim, birovni e'tibor yuzasidan bir mansabga tiklasalar va o'z e'tibor etkanlarini bee'tibor etmagaylar, toki podshohlik sha'niga yanglish tushuncha hosil bo'lmasin. Va g'arazgo'y va yomon va hasadgo'ylarning vazirlar haqida aytgan so'zlarini eshitmagaylarkim, bu jamoatning dushmani ko'p bo'lur. Negaki, dunyo ahlining hammasi dunyotalabdurlar. Agar vazirlar ularga rioyat qilsalar, xiyonat qilmagaylar. Va agar rioyat qilmasalar, ularga dushmanlik qilurlar.

Tamsil (masal). Chig'atoyxonning bir vaziri bor edi, uni necha ming oltinga xiyonat qildi, deb yozib, u yozilgan xatni xonning nazariga keltirdilar. Shunda xon unga xitob qilib, qahr yuzasidan: «Sening past nazarliging oshkor bo'ldi, nedinkim, meningdek podshohning vaziri bo'lsang, mamlakatimda ushbu arzimas narsaga ko'z olaytirasanmi?!» – dedi. Va u oqil vazir ushbu ehsondin minnatdor bo'lib, har na borini keltirib, xonga taqdim qildi va bu sheva bilan o'z izzat va e'tiborini saqlab qoldi.

Va o'zga sipoh, agar o'z haddidan oshib, bir qo'l ostidagiga sitam qilsa, uni o'sha mazlumning qo'liga topshurgaylarkim, undan qilmishiga yarasha haqqini olsin. Va aholi kattalari va oqsoqollar, agar oddiy xalq va kichiklarga va qo'l ostidagilarga zulm etgan bo'lsalar, qilgan zulmiga loyiq va qudratiga muvofiq undin jarima olgaylar.

Va hokim va dorug'a (mirshabboshi) javr-u jafo yuzidin oddiy xalqni xarob etgan bo'lsa, ularga jazo bergaylar. Va amr etdimki, gunohi sobit bo'lgandan so'ng gunohkordan jarima olgaylar. Va qamchi bilan siyosat qilgaylar. Va agar qamchi bila siyosat qilsalar, jarima olmagaylar.

Va amr etdimkim, o'g'rini har yerda bo'lsa va har kimsa bo'lsa, yasoqqa (jazoga) yetkazish kerak. Va har kimsa birovning molini zo'ravonlik bilan olgan bo'lsa, ul mazlumning molini o'sha zolimdan olib, mol egasiga yetkazgaylar. Va tish sindirmoq va ko'z ko'kartmoq va

quloq va burun kesmak va sharob ichmak va zino qilmoq va o'zga shariatga xilof qilmishlar, agar bir kimsadan voqe bo'lsa, qoziyi islom va qoziyi ahdos (urf-odatlar qoziligi) ning devonida muhokama etib, shariat buyrug'i bo'lsa, qoziyi islom ularga hukm etkay. Va ul nimakim urfiy bo'lsa, uni qoziyi ahdos tahqiq etib, mening arzimga yetkazgay.

FASL. VAZIR SAQLAMOQNING TUZUKI

Va amr etdimkim, vazirlarda to'rt sifatni ehtiyot etkaylar: avval asillik va oliyjanoblik, ikkinchi aql va ziyraklik, uchinchi sipoh va xalq bilan murosas etmaklik, to'rtinchi yumshoqlik va sog'lom munosabat.

Va har kimsada bu to'rt sifat bo'lsa, vazirlik martabasiga qobil bilib, uni maslahatgo'y vazir etkaylar va mamlakat va sipoh va raiyat ishlarining ixtiyorini topshirib, unga to'rt nimarsa bila imtiyoz bergaylarki, biri ishonch va biri e'tibor va yana biri ixtiyor va iqtidordir.

Va to'la huquqli vazir shunday vazir bo'lurki, mulkiy va moliyaviy ishlar va muomalalarni yaxshilik va aslzodalik va yaxshi yo'l bilan tashkil qilgay. Va olmag'ulik yerdan olmagay va bermagulik yerga bermagay va amr-u nahiylar-da undin asillik va oliyjanoblik asarlari oshkor bo'lgay. Va undan nizo va kin saqlash kuzatilmagay. Va sipoh va aholidan barcha kishiga yaxshi ko'z bilan qaragay va hech kimsaning yomonligini aytmagay va eshitmagay va agar bir kimsadin yomonlik ko'rgan bo'lsa, shunday o'zini tutgayki, ul kishi yomonligidan qaytgay. Va o'zga yomonlik qiluvchiga yaxshilik qilgay, toki uning xayrixohiga aylangay.

Va har vazirkim, yomon aytib, yomon eshitkay va kin saqlagay va yaxshi odamlarni yomonlik bila xarob etishni istar, ul vazirni vazirlikdin chetlashtirgaylar. Va zoti noma'lum va hasadgo'y va kin saqlovchi va yovuzlarga vazirlik bermagaylar. Negaki, bu yovuz, tuban vazirlar ta'sirida yuz beradigan savdolardan davlat va saltanat tez kunda zavol topar.

Shunday bo'ldiki, Sulton Malikshoh Saljuqiy barcha yaxshi sifatlarga ega o'z vaziri Nizom ul-mulkni ishdan chetlatib, uning o'rniga bir tuban va yomonni tayin etti. Shu bilan uning yovuzligi va badnafsligi va yomon ishlari shumligidin saltanatining binosi yiqilmoqqa yuz qo'ydi. Va bu yanglig' Mu'tasim billoh-Abbosiy hasad va kin saqlash sifati bilan tanilgan Alqamiyni o'ziga vazir etti. Shunda u ko'ngliga tugib qo'ygan, xalifaga saqlab qo'ygan kin-kudurati sababli, oraga nifoq soluvchi so'zlar bilan xalifani aldab, Halokuxonni targ'ib etib, xalifaning ustiga keltirdi va unga xalifani tutib berib, xalifaning boshiga ne kunlarni soldi.

Bas shunday vazirni sohibixtiyor etgaylarkim, asil va oliyjanob va pok zotli va yaxshi xislatli bo'lgay. Asil aslo xato qilmas va badasl vafo qilmas. Va har vazirkim, rostlik va nafs salimligi bilan vazirlik qilsa va mulkiy va moliyaviy ishlarda savob va diyonat va omonat yo'lidan chiqmasa, uni buyuk martabalarga yetkazgaylar. Va har vazirkim, yovuzlik va badnafslilik bilan muomila qilur bo'lsa, tez bo'lurkim, ul saltanatdin xayr-u barakat ketkay. Va dono vazir ul bo'lurkim, keskinlik va muloyimlik bilan ish qilgay va ko'b keskin ham bo'lmagay va ko'b muloyim ham bo'lmagay. Agar ko'p muloyim bo'lsa, tamagirlar va dunyotalablar uni yutarlar. Va agar ko'b keskinlik qilsa, undan qocharlar va unga murojaat etmaslar.

Bas dono vazir ul bo'lurkim, saltanat korxonasiga yaxshi usul va ongli ravishda tartib-intizom bergay va podshohlik ishlarida sabr-bardosh va yumshoqlik bila ish qilgay va kishilar bilan keskinlik va muloyimlik bilan muomalada bo'lgay. Va bunday vazirni davlatga sherik bilgaylar, nedinkim davlat va saltanat, mulk va xazina va lashkar bila mustahkam bo'lur va bu uch nimarsa dono vazir bila isloh va anjom topar.

Va barcha yaxshi axloq va odob egasi ul vazir bo'lurki, o'ziga nisbatan qilingan nomuloyimlik uchun ko'nglida kin va nizo saqlamagay. Va agar ko'nglida kin tutsa, munofiq bo'lur. Unday vazirdan hazar qilmoq kerak, mabodo davlat

dushmanlari bila kelishib, xazina va lashkarni barbod qilgay va xalal va ziyon yetkazgay.

Va oqil vazir ul bo'lurki, aholini bir qo'liga va sipohni bir qo'liga olgay. Va olmagulik joydan olmagay va bermagulik joyga bermagay va mulohaza va ehtiyotni ilikdan bermagay va rostlik va to'g'rilik bila muomila qilgay va har ishning so'ngiga boqqay va muomalalarni amalga oshirish chog'ida dushmanni qarshisida ko'rgay.

Va ish bilgan va ish ko'rgan vazir ul bo'lurkim, mamlakat ma'murligi va xalq farovonligi va sipoh birligi va xazina boyitishni nazarida tutgay va davlat va saltanatga zararli kishilarni daf etishga mol-u jon bila harakat qilgay va sipoh va aholining muhim ishlarini yaxshilik va halollik bilan hal etgay.

Va yaxshi fe'l-atvorli vazir ul bo'lurkim, yaxshi amallari yomon fe'llariga g'olib bo'lgay.

Va shunday eshitdimki, Nizom ul-mulkning yomon fe'llari yaxshi amallariga mag'lub va ojiz edi. Va u haj irodasini qilgan chog'da, Allohning bandalaridan biri, ushbu yaxshi amallarkim, Malikshoh davlatida sen bajo keltirding va Xudoning bandalari sendan naf oldilar, haj bila barobardur, dedi.

Va arzimga yetdiki, Ali binni Yaqtin Barmakiy Horun ar-Rashidning vaziri edi. Xaloyiqqa uning foydasi tegib turgani uchun bir kuni vazirlikdan bo'shamoqchi bo'lganida, din imomlaridin biri unga yozdiki: «Xalifa dargohida vazirlik ishlariga mashg'ul bo'lgil va ixtiyor tarkin qilmagil-kim, xudo bandalariga naf va madad yetkazgoning barcha yaxshi amallarning eng yuksak cho'qqisidir».

Va shunday eshitdimki, hazrati Rasuli Akram (sal-lollohi alayhi va-sallam)dan savol etdilarki: «Agar siz payg'ambarlik sharafiga noil bo'lmasangiz, qanday ish bilan mashg'ul bo'lardingiz?» Ul janob buyurdilar-kim: «Podshohlar xizmatin ixtiyor etar edim, toki xudo bandalariga naf yetkazgaymen va podshohi yagonaning mulkini obod etkaymen».

Bu jihatdin edikim, men Tug'loq Temurxonning o'g'li

Ilyosxojaning vazirlik va sarkardaligini qabul etgan edim, toki Xudo bandalariga va xaloyiq va qo'l ostimdagilarga madad yetkazgaymen va mazlumlar dodini zolimlardan olgaymen. Va haq egasiga haqqini yetkazgaymen va Xudo bandalariga madadkorlik qilib, mazlumlar holidan xabar olganim uchun, Tangri Taolo meni podshohlik va jahongirlik martabasiga yetkazdi.

Va har vazirkim, tadbir va shamshir bila bir mulkni egallasa va yo qo'lda tutib tursa, ul vazirni aziz va muhtaram tutgaylar va martabasini orttirgaylar va uni qilich va qalam egasi degaylar.

Va aql-zakovatli va esli-hushli vazir ul bo'lurki, ray va tadbir bila bir lashkarni parokanda qilib, murosasozlik va xush muomilalik bila bir lashkarni o'z tarafiga og'dirgay va dushman qo'shinlarini va muxolif lashkarlarni o'ziga rom etgay va o'z dili ne'matining nigahboni bo'lgay va podshohlik oldiga har nav muhim va mushkil kelsa, roy va tadbir va uzoqni ko'ra bilish bila ul mushkilni oson etkay. Va agar saltanat ishlariga chigallik yetishsa, uni aql va fikr barmog'i bila ochgay.

Chunonchi, Alibek meni yalong'ochlab tutqunga solib, burga bilan to'la uyda qamoqda saqlagan chog'da, Aziz ud-din vazirkim, mo'tabar vazirlarimdan va davlat tarafdorlarimdan edi, Termizdin ilg'or etib, o'zini menga yetkazdi va Alibekni uyquga solib, ko'zini mendan yumdirib, menga quvvat berdiki, shijoat va chapdastlik bilagining kuchi va Tangri Taoloning qo'llab-quvvatlashi va mardlik sarpanjasi bila qilich sermab, posbonlar orasidan chiqib najot toptim.

Va xuddi shunday, Nizom ul-mulk Saljuqiy to'g'ri tadbir va rayi durust bila Sulton Malikshohni qaysar bandidan qutqarib, xalos etti. Bas bunday oqil vazirni davlat sherigi bilib, aziz-u muhtaram tutgaylar. Uning aytgan so'zlari va tutgan ishidan hech vajh bilan yuz o'girmagaylar va g'azabnok bo'lmagaylar, nedinkim ul har ne desa va har ne qilsa, aql va farosat yuzidan bo'lur. Va agar podshoh zulmpesha va sitamkor bo'lsa va uning vaziri dag'i

betamiz va fitnaangiz bo'lsa, tez bo'lurkim, uning saltanati ishlarining silsilasi uzilur va davlatining qasri yiqilmoqqa yuz qo'yar.

AMIRLIK VA VOLIYLIK MARTABASINING TUZUKI

Amr etdimki, uch yuz o'n uch odamkim, yakdil va xos ulxos navkarlarim jumlasidan edilar, ularga amirlik bergaylar va bu uch yuz o'n uch odam hamma asil va oliyjanob va oqil va ziyrak va bahodir va saxiy va vafo va tadbirli va ehtiyotli va uzoqni ko'radigan va oqibatini o'ylaydigan kishilar edilar. Va har biri uchun bir ko'tal (o'rinbosar) tayin etdimki, agar ulardan biri o'lsa va vafot qilsa, ko'tal uning o'rnini egallagay va ul ko'talga «muntazir ul-amorat» (amirlikka muntazir) nom qo'ydim. Va bu uch yuz o'n uch amirimning hammasi oqil va hushyor va bazmiy va razmiy va safariy va lashkar yenguvchi va mardona edilar.

Va tajribamga yetishtiki, shunday odam voliylik va amirlikka loyiq bo'la olurki, urush va savash ishlarini va g'animg'a zarba bermak usullarini bilgay va urush chog'ida ko'nglini ilikdin bermagay va tinib-tinchimay chora izlashni kamaytirmagay va lashkarga ish buyurgay va agar saflarda raxna voqe bo'lsa, ul raxnani bog'lay olgay.

Va amir ul-umaro ul bo'la olurkim, bazm va razmda menga noib va o'rinbosar bo'la olgay. Va shavkat va mahobat va salobat bila bir lashkarga ish buyura olgay va har kimsa anga muxoliflik qilsa, siyosat qila olgay.

Va amr etdimki, o'sha uch yuz o'n uch nafardan to'rt kishi beklar begi bo'lib, bir kishi amir ul-umarolikka muqarrar bo'lgay. Uning hukmi yasoq va urushda amirlar va ulug'larga va boshqa lashkarga joriy bo'lgay va u mening huzurimda noibim bo'lgay.

Va bulardan boshqa g'ayratli va nomusli o'n ikki kishiga bu tartib bila amirlik berdim. Avvalgi amirga ming kishining amirligini berib, ularga amir etdim. Ikkinchi

kishiga ikki ming kishining amirligini berib, uni o'sha ikki ming kishiga amir etdim. Bu tariqa, uchinchi va to'rtinchi va beshinchi amirlarni uch ming va to'rt ming va besh ming kishiga amir etdim, to o'n ikkinchi amirgacha bu tartib bilan amir bo'ldilar.

Ularni birini ikkinchisiga noib qildim. Jumladan, avvalgi amir ikkinchi amirning noibi va ikkinchi amir uchinchi amirning noibi, shu yo'sinda o'n birinchi amirni o'n ikkinchi amirning noibi qildim va o'n ikkinchi amirni amir ul-umaroning noibi va amir ul umaro mening noibim bo'lur, toki agar biron kori hol yuz bersa, noyib uning o'rnini egallagay.

Va uch yuz o'n uch kishining jumlasidan amr etdimki, yuz kishini o'n boshi qilgaylar va yuz kishini yuzboshi va yuz kishini mingboshi qilgaylar.

Va amr etdimki, jang-u jadal vaqtida amir ul-umaro – amirlar va mingboshi va yuzboshi va o'nboshilarga xabar yetkazgaylar. Va o'nboshining ishini yuzboshiga buyurmagaylar va bu masallik yuzboshining ishini mingboshiga va mingboshining ishini amirga va amirning ishini amir ul-umaroga buyurmagaylar. Va har ish va muhimkim, o'nboshi bila anjom topsa, yuzboshiga muhtoj bo'lmagaylar va bu yanglig' yuzboshi bila bitkan ishda mingboshiga muhtoj bo'lmagaylar.

Va amirlardan har birikim, rag'bat yuzasidan ish talab bo'lsa, unga buyurgaylar.

Amr etdimkim, bahodirlarni har qaysi biri oshkoro qilich chopsa, avvalgi qilichda o'n boshi va ikkinchi qilichda yuzboshi, uchinchi qilichda mingboshi qilgaylar. O'nboshining tobiylarini avvalgi qilich martabasida o'nboshi qilgaylar.

Va amr etdimkim, faqat shamshir, ya'ni qilich urganni manzur tutmagaylarkim, sigir ham shox urar. Bas sipohiyning asil va pokzotligini ham nazarga olmoq kerak.

Va mingboshi har qachon bir qo'shinni yakson qilsa, uni amiri avval va amiri avval saflarni yengsa, uni ikkinchi amir etkaylar. Va bu yanglig' har amir ish ko'rsatib, lashkarga

zarba bersa, uni martabasidan yuqoriroqqa ko'targaylar. Va o'zga sipoh qilich ursa, maoshini orttirgaylar.

Va har sipohiykim, ish vaqtida yuz o'girsas, unga ko'runush bermagaylar. Va agar zarurat bo'yicha yuz o'girsas, uni ma'zur tutgaylar. Va agar unga vahima g'alaba qilgan bo'lsa, unga dalda bergaylar.

Va har sipohiykim, qilich chopib yarador bo'lsa, unga jaldu, ya'ni ish haqi bergaylar. Va agar yarador bo'lib, yuz o'girsas, unga tahsin etib, yarador bo'lganini e'tiborga olgaylarkim, agar u g'animga yetmasa, ammo g'anim unga yetishibdi, yarasi bunga guvohi hol bo'lur.

Sipohiyning haqqini zoya qilmagaylar. Va har sipohiykim, qarilik yoshiga yetsa, uni maosh va martabadan mahrum va ishdan bo'shatmagaylar. Va sipoh ishini pinhon tutgaylar. Va har sipohiykim, boqiy hayotini, o'tkinchi mol-u dunyoga sotsa, jaldu (in'om)ga haqli, in'om va tarbiyat loyiqa bo'lgay. Agar uni in'omdan mahrum etib, ishini yashirsalar, noinsoflik qilgan bo'lalilar.

Va amr etdimkim, har amir va vazirkim, xizmat haqqin davlatimga sobit qilsa va lashkarni yakson qilib, bir mulkni egallasa va yo qilich chopgan bo'lsa, uning xizmati haqqin manzur tutib, haqqini ado qilgaylar. Va bunday sipohlarni izzat bila tutgaylar va so'zlarini eshitgaylar va ular har na desalar, tajribadan bo'lgusidur. Va ularni saltanat korxonasining tayanchlaridan deb bilgaylar va ulardin so'ng ularning farzandlarini o'rinbosar etib tayinlagaylar.

Va amr etdimkim, har sipohiykim, g'anim lashkaridan tutilsa, uni o'ldirmagaylar va o'z ixtiyoriga qo'ygaylar, agar navkarlikni qabul etsa, navkar etkaylar va illo ozod etkaylar. Xuddi shu zayilda men to'rt ming rumiyni ozod etdim.

Va har sipohiykim, g'anim tarafidan qilich urib, tuz haqqin bajo keltirsa, xoh ixtiyor yuzidan va xoh zarurat yuzidin dargohimga panoh keltirsa, unga e'tibor va ishonch bildirgaylar va aziz tutgaylarkim, o'z sohibiga vafodorlik qilib, tuz haqqini bajo keltiribdur.

Men Sher Bahromga xuddi shunday qildim, u Amir Husaynning urushida menga ro'baro' bo'lib, oshkora

qilichlar chopdi va noilojlikdan menga panoh keltirdi, unga e'zoz va ehtirom etdim. Va Mengli Bug'o Doyi Balx urushida menga qarshi qilich ko'tardi. Va men urushdan burun unga xabar yuborib, o'z tarafimga og'dirishga harakat qildim va u Tug'luq Temurxonning tuzini unutmay, lashkarini saflab, men bilan mardona urushib chekindi. Shundan so'ng bir kun ixtiyor yuzidan menga panoh keltirib, tiz cho'kdi. Shunda uni qadrlab va martabasi poyasini baland va inoyatim bilan izzat-ikrom etdim. Va shunchalik inoyat qildimki, xotirida har na bo'lsa, unutdi va unga har majlisda ofarin va rahmatlar aytdim. Va u bir mardona kishi edi, mening davlatimda mardona ishlarni amalga oshirib, meni mamnun etti. Va Qaro Yusuf bilan to'qnash kelgan Ozarbayjon urushida mening lashkarim talvasaga tushib, betoqat bo'lgan edi, shu paytda u Qaro Yusufning sarkardalaridan birining boshini nayza uchiga sanchib baland ko'tardi va bu Qaro Yusufning boshi Qaro Yusuf o'ldirildi deb, lashkarda ovoza tarqatdi. Va lashkar ko'ngliga dalda berib, Qaro Yusufning lashkari qalbiga hujum etib, Qaro Yusufni qochirdi. Va men Qaro Yusufning ustidan g'alabani uning otiga yozdim va martabasini ziyo-da qildim.

AMIRLAR VA VAZIRLAR VA SIPOH VA AHOLIGA IN'OM BILAN TARBIYAT QILMOQNING TUZUKI

Amr etdimkim, har amirkim, bir mulkni egallasa yo bir lashkarga zarba bersa, unga uch narsa bila imtiyoz bergaylar. Avval xitob, ikkinchi tug', uchinchi nag'ora bila va unga bahodirlik laqabini bergaylar va davlat va saltanat sheriki bilib, kengash majlisiga kiritgaylar. Va viloyat chegarasini unga havola qilib, amirlarni unga tobe qilgaylar.

Va har amirkim, to'rani sindursa va yo amirzodaga zarba bersa, yo bir xonni ag'darsa, uni ham o'sha tariqada ulug'lagaylar.

Jumladan, Amir Eku Temurni O'rusxonga qarshi

yurishga tayin etdim. U unga zarba berdi. Bu ishi evaziga unga tuman va tug' va bayroq va nag'ora berdim va uni davlatimga sherik etdim va o'zimga vazir va maslahatchi qildim va kengashimga kiritib, unga chegara berdim va unga amirlarni tobe qildim. Va hasadchilar uning haqida O'rusxonning ulusini g'orat qilib, barcha mol-u dunyosini o'zi olib, ega bo'lib olibdi, dedilar. Va bu so'zlar bila undan ixlosimni qaytardilar, lekin Bahrom Cho'bin voqeasini eshitib, undan tajriba olgan edim.

Xoqon uch yuz ming qonxo'r turki bilan Hurmuz binni Nushiravonga lashkar tortgan edi. Hurmuz – Nushiravonning vaziri va maslahatchisi va lashkarboshisi Bahrom Cho'binni uch yuz yigirma ming eroniy lashkar bilan xoqonga qarshi yubordi. Va u xoqon bilan yuzmayuz kelib, uch kecha-kunduz urush bo'ldi. Shundan so'ng xoqonga zarba berib, bu haqda Hurmuzga arz qilib, qo'lga kiritgan o'ljalarini Hurmuzning xizmatiga yubordi. Va Hurmuzning majlisidagi hasadchi va ig'vogarlar chug'ullik (g'iybat) qilib, Bahrom ko'p mablag'larni o'zida olib qolib, xoqonning qimmatli javohir bilan ishlov berilgan etigini va dur-u gavharlar bilan bezalgan bosh kiyimini va qilichini egallab olibdi, dedilar. Va Hurmuz bu so'zlarni eshitgach, xomtamalikdan Bahromning qilgan ishini va xizmatini unutib, g'arazgo'ylarning yolg'on so'zlarini rost bildi. Va uni xoin va gunohkor etib, uning uchun xotinlar ko'ylagi bilan tug' va zanjir yubordi.

Va Bahrom ul tug'ni bo'yniga va zanjirni oyog'iga solib, xotinlar libosini kiyib, lashkarning amirlari va sardorlarini chaqirib, huzuriga chorladi. Va sardor va sarkardalar va o'zga sipohlar bu holni ko'rdilar. Hurmuzning ta'nasidan norozi bo'lib, Hurmuzdan ko'ngullari qolib, ixlosi qaytib, Bahrom Cho'bin bilan birga Hurmuz dargohiga keldilar. Va Hurmuzni podshohlikdin ag'darib, Xusrav Parvezni Ajam podshohligi taxtiga o'tqazdilar.

Men bu voqeadan tajriba olganim sababli, sipohning ta'nasiga qolmay deb, Amir Eku Temurni talab qilib,

majlis yasab, bori om berdim va O'rusxon ulusidin o'lja olingan barcha mol-u dunyoni jam etib, Amir Eku Temur bilan unga hamroh bo'lgan, u bilan qilich chopgan barcha bahodir va sipohlarga in'om etinglar, deb buyurdim.

Va amr etdimkim, har amirkim urush vaqtida o'z mavqeyini saqlab, o'ziga to'qnash kelgan qo'shinni yengsa, martabasini ziyod etgaylar. Masalan, Tobon Bahodir To'qtamishxonning urushida bayroqdorga yetib borib, uning bayrog'ini yiqib, yarador bo'ldi. Shunda uning hasadchi raqiblari uning o'sha qilgan ishini yo'qqa chiqarishga urindilar. Lekin uning ishidan ko'z yumish mening insofimga to'g'ri kelmadi. Unga amirlik berib, tarbiyat qilib, bayroq berdim.

Va amr etdimkim, o'nboshi va yuzboshi va mingboshilarning biri lashkarga zarba bersa, o'nboshining ish haqiga bir shaharning hukumatini bergaylar va yuzboshi jaldusi, ya'ni ish haqiga bir mamlakat hukumatini bergaylar. Masalan, yuzboshi Bergan Bahodir, To'qtamishxonning urushida g'animning qo'shiniga yuzma-yuz bo'lib, g'anim lashkarini tor-mor etdi, shuning uchun unga Shodmon mamlakatini berdim.

Va amr etdimkim, mingboshi g'anim qo'shiniga zarba bersa, uni mamlakat voliyi qilgaylar. Misol uchun, Muhammad Ozod Katur urushida Burhon o'g'longa zarba bergan qora kiyimlilar jamoasiga zarba berdi. Shunda uni Kunduz va Qo'lob mamlakatining voliyi etib tayinladim.

Va amr etdimkim, amirlarning har birisi bir mamlakatni egallab, g'anim tasarrufidan chiqarsa, ul mamlakatni uch yilgacha unga in'om etdim.

Va amr etdimkim, har bahodir qilich chopsa, unga dur-u gavharlar qadalgan o'tog'a bilan bosh kiyim va belbog' va qilich va ot bergaylar va o'nboshilik martabasi bilan imtiyoz bergaylar, toki ikkinchi va uchinchi qilich chopishda yuzboshilik va mingboshilik martabasiga yetkazgay.

NOG'ORA VA BAYROQ BERMAKNING TUZUKI

Amr etdimkim, o'n ikki amirning har biriga bir bayroq va bir nag'ora bergaylar. Va amir ul-umaroga bayroq va nag'ora va tuman va tug' va chodir bergaylar. Va mingboshig'a bir tug' bilan karnay bergaylar. Va yuzboshi va o'nboshiga nag'ora bergaylar. Va o'ymoq amirlariga bir burg'u ato qilgaylar. Va to'rt bekларbegining har biriga bir nag'ora va chodir va burg'u bergaylar.

Va amirlarning har biri qo'shinni tor-mor qilsa, yo bir mulkni ishg'ol qilsa, agar ul amir avvalgi amir bo'lsa, ikkinchi amir etkaylar. Va agar ikkinchi amir bo'lsa, uchinchi amirning martabasiga yetkazgaylar. Va agar uchinchi amir bo'lsa, to'rtinchi amirning martabasiga yetkazgaylar, to o'n birinchi amirga tegru bu tariqa qilgaylar. Agar o'n birinchi amir bo'lsa, o'n ikkinchi amir etkaylar va unga bayroq va tug' va nag'ora bergaylar, jumladan, avvalgi amirga bir tug', ikkinchi va uchinchi va to'rtinchi amirga to'rt tug' va nag'ora bergaylar, to ulkim, o'zini tuman, tug' va chodir martabasiga yetkazgaylar.

SIPOH SARANJOMINING TUZUKI

Amr etdimkim, boshqa lashkarlar yasoqlar va yurushlarda o'n besh kishi bir chodir ko'targaylar. Va har kishi ikki ot va bir yoy va bir sog'doq va bir qilich va bir arra va bir bigiz va juvoldiz va bolta va tesha va o'n igna va bir charm o'rindiqlay. Va bahodirlardan har besh kishi bir chodir ko'targaylar va har kishi bir sovut va bir dubulg'a va bir qilich va bir sog'doq va bir yoy olib yurgaylar va o'z otlarini yadak tuzukiga muvofiq olgaylar. Va o'nboshilarning har biri bir chodir va bir sovut va bir qilich va bir sog'doq va bir kamon va besh ot o'zi bilan olib yurgay. Va yuzboshilarning har birisi bir chodir va o'n ot va aslaha va qilich va sog'doq va kamon va karnay va bir qancha sovut olib yurgay. Va mingboshilarning har

birisi bir chodir va soyabon va qurol-yarog' va sovut va dubulg'a va nayza va qilich va sog'doq va bolta va har narsadan ko'tara olguncha olib yurgay.

Va avvalgi amir chodir va bir juft soyabon ko'targay va aslahadin o'z amirligiga loyiq, qudrati yetgancha ko'targay va o'zgalarga ham madad ko'rguzgay. Va bu tariqa ikkinchi va uchinchi va to'rtinchi amir to amir ul-umaroga tegru o'z martabasiga loyiq chodir va o'tog' va soyabon va otlar saranjom etkay.

Va avvalgi amir yuz dag'i o'n ot va ikkinchi amir yuz yigirma ot va uchinchi amir yuz o'ttiz ot va to'rtinchi amir yuz dag'i qirq ot to amir ul-umarokim, uch yuz otdan kam hamroh olib yurmagay. Va piyodalarning har biri bir qilich va bir kamon va bir dastalik bolta olib yurgay va bundan kam va ziyod olib yurmagaylar, to urush vaqtida ular bilan bog'langan tuzukdan kamroq bo'lmagay.

BAZM MAJLISLARI VA JANG MA'RAKALARINING TUZUK VA NIZOMINING TAHRIRI

Amr etdimkim, bazm majlisida sipohlar va amirlar va mingboshi va yuzboshi va o'nboshilar bosh kiyim, etik, kovush va yoqalik to'n va qilich bilan devonxonaga hozir bo'lgaylar. Va o'n ikki ming qulluqchi qilich ko'targan yaroq va qurol bilan o'ng va so'l va ilgari va keyinda hozir bo'lgaylar. Bu tartib bilakim, har oqshom ulardan ming kishi orqa eshikda hozir bo'lgaylar va har yuz qulluqchining boshiga bir yuzboshi muqarrar qilib, unga bir karnoycha bergaylar.

Va amr etdimkim, urush ma'arakalarida o'n ikki amirning har biri va mingboshi va o'nboshilar lashkar va yasoqlar-da o'n ikki ming qurolli askar bilan bir kecha-kunduzda o'z uylarining oldida hozir-u nozir bo'lgaylar. Va bu o'n ikki ming otlig'ni to'rt qanot etib, bir qanotini burong'ar (o'ng qanot), ya'ni sog' tarafda va bir qanotini ilgarida va bir qanotini keyinda tayin etkaylar va ular navbatba-navbat o'rduning yarim farsanglik (3 km) yerida turgaylar.

Va ushbu to'rt qo'shinning har qaysi hirovul (old qator) va qarovul bo'lub, ehtiyot va hushyorlik jilovini ilikdan bermay, xabarlarini yetkazgaylar.

Va amr etdimkim, lashkar atrofidan har tarafda bir kutvol (komendant) muqarrar qilg'aylarkim, o'rdu posboni bo'lib, kuzatuvchilik qilgaylar. Va bozor ahlidan odatdagi yig'imni olgaylar. Agar o'rdu ahlidan bir narsa o'g'irlansa, ular javob bergaylar.

Va amr etdimkim, to'rt bo'linma chopqunchi lashkar tegrasini qurshab, boxabarlik qilgaylar. Agar bir kimsani o'lik va yo jarohatlik ko'rsalar, chorasini ko'rgaylar. Va agar bir kimsaning moli o'g'irlansa, javob bergaylar.

Va amr etdimkim, lashkarning uchinchi hissasi xizmatga tayyorlanib, chegaralarda turgaylar. Va ikki hissasi xos uzangi xizmatida hozir bo'lgaylar.

VAZIRLAR XIZMATINING TUZUKI

Amr etdimkim, to'rt vazir huzur devonida muqarrar bo'lgaylar. Avvalgi vazir mamlakat va aholi vaziridurkim, mamlakatning muhim va muomalalari va xalq ahvoli, viloyatlarning hosil va kirim-chiqimlari va mulkning daromadi va sarf-xarajatlari va ma'murlik va obodonligini arzga yetkazgaylar.

Ikkinchi sipoh vaziri lashkarning maoshi va tanxohini arzga yetkazgay va ular ahvolidan ogoh bo'lgay, toki lashkar parokanda va parishon bo'lmagay va sipoh ahvoli-ni mening arzimga yetkazgaylar.

Uchinchi boshqa ishlarning vaziridurkim, yo'q bo'lgan va g'oyib bo'lgan va qochgan va kelgan mollarning boj va zakotlarini va chorva mollarning bojini va o'tloq va kechuvlardan o'tgan mollarni ro'yxatga olib, omonat tariqasi bila saqlagay va har miqdor o'lik va g'oyibning mollari bo'lsa, vorislariga topshurgay.

To'rtinchi saltanat korxonalarining vaziri xazinaning jam va xarji va kirim-chiqimi va tirik mollardan ogoh bo'lgay.

Va amr etdimkim, ayrim mamlakat va chegaralarda uch vazir tayin etkaylarkim, viloyat va mol muomilalari-ni amalga oshirgaylar. Va bu yetti vazir devonbegiga tobe bo'lgaylarkim, moliyaviy ishlar va muomalalarga devonbe-gi bilan birgalikda anjom berib, arzga yetkazgaylar.

Va amr etdimkim, bir kishi arzbegi bo'lgaykim, sipoh va aholi va shikoyatchilar arzini va mulkning buzuvchilik va ma'murligini va har qanaqa muhim ishlar hal bo'lsa va anjom topsa, arzga yetkazgay.

Va amr etdimkim, xos majlisda mulk ishlarini va mamlakatdagi tartib-intizomni va sipoh va amirlarning o'zgarishlari va almashishlari va tayin va maslahat va tadbirlarni arzga yetkazgay.

Va amr etdimkim, sir saqlay oladigan mahram mun-shiy rostlik qalami bilan maxfiy va yashirin ishlarni yozib borgay.

Va amr etdimkim, majlisnavislar tayin etkaylarkim, navbatba-navbat majlis devonida hozir bo'lib, muhim masalalar va muomalalar qanday hal qilinsa va aniqlik topsa va arzimga yetsa, shundayligicha voqea bayonini yozib saqlagaylar. Va men qilgan hukmlarni umumiy va juz'iy ishlardan hammasini yozib, mening voqealarimga kiritgaylar.

Va amr etdimkim, saltanat idoralaridan har idorada bir yozuvchi tayin etkaylarkim, har kunda xarj bo'lganlarni va har kunning kirim-chiqimlarini yozib borgay.

ULUS VA QO'SHIN, TUMANLAR AMIRLARI VA VOLIYLARINING TUZUKI

Amr etdimkim, har ulus va tumanning amiri yasoq chog'ida har o'tovdan bir otliq va ikki olochiqdan bir otliq va har uydan bir otliq muqarrar qilgaylarkim, safarda birga olib yurgaylar. Va har yerdakim, iqomat qilur bo'lsalar, u yerning o'tlog'i va suvidan olinadigan yig'imga ularning maoshlari mablag'i sifatida muqarrar bo'lgay. Va ulusot amirlariga ham tegishlisini bergaylar. Va ular ulus va tumanlariga loyiq otliqni yasoqda hozir qilg'aylar.

Va amr etdimkim, ro'yxatga kirgan qirq o'ymoq jumlasidan o'n ikki o'ymoqqa tamg'a qilgaylarkim, xossa navkarlar jumlasidan bo'lgaylar. Va Barlos va Tarxon va Arg'un va Jaloyir va Tulkichi va Do'lday va Mo'g'ul va Sulduz va Qibchoq va Arlot va Totor ulusidan amirlar tayinladim. Barlos ulusidan to'rt kimsani amir ul-umaro qildim. Amir Xudoydodga Badaxshon mamlakatini berdim. Va Amir Joku va Eku Temur va Amir Sulaymonlarga ham chegara, ham mamlakat arzoniy qildim. Va Barlos ulusidan yana yuz kishini mingboshi qildim va Amir Jaloliddin Barlosni o'ninchi amir etdim va Amir Abu Saidni to'qquzinchi amir qildim. Va Tarxon ulusidan Amir Boyazidni yettinchi amir qildim. Va ulardan yigirma kishini yuzboshi qildim. Va Arg'un ulusidin Toshxoiani sakkizinchi amir qildim va yigirma kishini yuzboshi va o'nboshi qildim. Va Tulkichi ulusidin O'ljoytuga amirlik berdim. Va Do'lday ulusidan Tobon va Bason bahodirga amirlik berdim. Va Mo'g'ul ulusidin Temurxoia O'g'lonni amirlik martabasiga yetkazdim. Va Sulduz ulusidin Belchi Bahodirga amirlik berdim. Va To'g'oy ulusidin Ali Darveshga amirlik berdim. Va Qibchoq ulusidan Amir Sori Bug'oni amir etdim. Va Arlot ulusidan Amir Muayidnikim, mening singlim uning nikohida edi, amir ul-umaro etdim va Silonchi Bahodirni amir etdim. Va Totor ulusidan Ko'pakxonga amirlik berdim. Va hali tamg'a berilmagan yigirma sakkiz o'zga o'ymoq boshliqlarini ulus amiri qildimki, yasoq chog'i jang maydoniga hozir bo'lgaylar va tuzukka muvofiq otliqlarini hozir qilgaylar.

NAVKAR SULUKI VA NAVKAR EGASI MAOSHINING TUZUKI

Har kim navkar bo'lsa bilgaykim, u o'z navkaridan nimani ko'z oldiga keltirsa va umid etsa, uning egasi dag'i undan shu umidni qilur. Bas egasi xizmatidan bosh tovlamagay va bilgaykim, agar egasi avval inoyatlik bo'lib, so'ng beinoyat bo'lsa, gunoh va nuqson va kamchilikni

o'ziga qo'ygay. Agar u egasiga ixlosli bo'lsa, ixlos bilan ish qilur. Va har navkar, egasiga ixlossiz va kin saqlasa, uning kin saqlashi va beixlosligi ta'sirida, albatta unga musibat ro'y berur. Va lekin ixloslik navkarning davlat va ne'mati kun-bakun ziyoda bo'lur va mahkam e'tiqodlik navkar ul bo'lurkim, egasining noroziligi va e'tiroz etmagidan, ya'ni yuz o'girmoq va itob etmoqidan ko'ngli og'rib kin saqlamagay. Va egasidan voqe bo'lgan kamchilikni o'ziga olgay. Bunday navkar tarbiyat loyig'i bo'lgay.

Va har navkarkim nazari luqma va kiyim-kechakda bo'lsa, albatta ish vaqti sustlik qilur. Va har navkarkim xizmat haqqini unutib, ish chog'i yuz o'girsas, undan so'ng uning yuzini ko'rmaslik keraktur. Va har navkarkim ish vaqti bahona izlasa va yasoq paytida ruxsat so'rasa va faqat o'z foydasini ko'zlasa, xuddi Fulod Temur O'g'lon meni ish ustida tashlab ketib menga qilganiday qilsa va bu kunning ishini tonglaga qoldirsa, bunday navkarlarning otini tilga olmaslik kerak va ularni parvardigorga topshirmoq kerak.

Va to'g'rilik bilan ish tutadigan podshohlarga loyiqdurkim, o'z tiklaganini yiqmagaylar va har kimsani tanisalar unutmagaylar, agar nogoh beizzat qilsalar, mardona tan olib, uning ko'nglini olgaylar. Va agar navkar kin saqlab va nizolashsa, uning ixlos va e'tiqodiga havola qilgaylarkim, unga so'zsiz musibat ro'y bergusidur. Va egasining ko'nglida yaxshilik bilan o'rnashgan har navkar kun-bakun yaxshiroq bo'lur. Va o'z ixtiyori bilan ajralib ketgan har navkar yana qaytib kelsa, uni aziz va muhtaram tutgaylarkim, ajralib ketganidan pushaymon bo'lgay.

Va amr etdimkim, har navkarkim, g'anim tarafidan qilich chopsa, yegan tuzi halol bo'lur. Agar bunday odam urushda qo'lga tushsa va yo g'anim tarafidan noumid bo'lib kelsa va mulozimlik ixtiyor etsa, uni aziz tutgaylar va martabasini yuqori ko'targaylar va uni vafolik bilgaylar.

Masalan, Salki Bug'o va Haydar Andxudiy va Amir Abu Said olti ming otliq bilan Balx suyi yoqasida menga

ro‘baro‘ bo‘lib urush qildilar. Undan so‘ng Tug‘luq Temurxondan noumid bo‘lib, menga panoh keltirdilar.

Shunda ularga izzat va ehtirom ko‘rsatib, Shodmon va Andijon va Turkiston Hisorining voliyligini ularga berdim.

Va amr etdimkim, har navkar g‘anim qoshida mo‘tabar bo‘lsa va urush chog‘ida o‘z sohibining dushmani bilan do‘stlik silsilasini bog‘lashga harakat qilsa va o‘z egasi-ning tuz haqqini va navkarlik burchi va bergan ne‘matini unutib, dushmanni egasiga g‘olib kelishini tilasa, bunday kishilarni xizmatga olmagaylar va uning sazosi hayot-ning o‘zi bergusidir.

Va har navkarkim, urush chog‘ida o‘z egasidan ajralib mulozimlikka kelsa, ishonchga loyiq bo‘lmas. Ammo agar bu kishidan xizmatda ko‘p vafodorlik oshkor bo‘lsa, asragaylar. Va agar urush va yurushdin o‘zga vaqtda kelib mulozimlik ixtiyor etsa, uni e‘zozlab qadrlagaylar.

Va agar bir vazir va navkar roy va tadbir yuzasidan dushman bilan oshnolik munosabatlarini o‘rnatib, ushbu ko‘rinishda o‘z egasining muhim ishlarini bitkazishni istasa va muddaosini hosil qilsa, uni barcha do‘stlar va chokarlarning oqilrog‘i deb bilmoq keraktur.

Va lekin har navkarkim, dushman bilan birlashib, o‘z egasiga adovat ohangini qilsa, bunday navkarni dushman-ga arzoniy tutgaylar.

Va agar bir navkar qilich chopib, g‘animga zarba bersa, u haqdagi g‘arazgo‘ylarning so‘zini eshitmagaylar va qilgan ishini pinhon tutmagaylar, balki uning qilgan ishining birini o‘n qilgaylar va martabasini oshirgaylar, to o‘zga navkarlar ham uni ko‘rib jonbozlik qilgaylar.

Va har qo‘shin va har amirkim, sadoqat va vafodorlik yo‘lidan yuz o‘girib, dushmanga bosh qo‘shsa, ularga yurtda o‘rin bermagaylar. Chunonchi, lashkarkash sardor-lar mendan yuz o‘girib, Amir Hoji Barlosga qo‘shilgan edilar, shundan so‘ng ularga ishonchim qolmadi.

Va har navkarnikim, bir mulkka hokim qilsalar va ul bevafoqlik yuzasidan, g‘anim bilan til biriktirib, mulkni

dushmanga bersa, uni hayot qaydidan chiqargaylar. Va mulkdor navkarni baland martabalik qilgaylar.

Va har amirkim, tang vaqtda ixlos qadamini jang maydonida mahkam qo'yib, sadoqat va vafodorlik tariqin bajo keltirsa, uni birodar o'rni sanagaylar.

Masalan, amirlar va lashkar mendan yuz o'giran chog'da, qoshimda Amir Jokuyi Barlosdan o'zga kishi qolmadi va hamrohlik qilmadi va men Amir Jokuni birodari aziz bilib, davlatimga sherik etdim. Va amir ul-umaro qilib, Balx va Hisor mamlakatini unga topshirdim.

DO'ST VA DUSHMAN BILAN SULUK VA MAOSH ETMAK

Ul kunkim, Turon mamlakatini o'zimga bo'ysindirdim va Samarqandda joylashdim, do'st bilan dushmanga bir xil munosabatda bo'ldim. Va Badaxshon amirlari va ba'zi turk va tojik qo'shinlarning amirlarim, menga yomonliklar va hiylalar qilib, qilichlar ko'taribdurlar, o'sha nojo'ya ishlaridan vahimaga tushib qolgan edilar. Ular mendan panoh so'rab keldilar, shunda ularga shu qadar yaxshilik qildimki, ehson va inoyatimning sharmandasi bo'ldilar.

Va har kimsaga ozor bergan bo'lsam, in'om va ehson bilan ko'rgan ozorini yodidin chiqardim va ularga loyiq martabalar berdim. Lekin Sulduz va Jeta amirlariga nafrat bildirdim. Do'stlik ahdin va ixlos paymonin bog'lasinlar, deb chingiziy Qobulshohni amir va xon etgan edim. Va ular mening taxtga o'tirganim xabarini eshitgach, ah-du paymonlarini buzib, uni menga xushomad yuzasidan o'ldirdilar.

Va ul kimsalarkim, menga hasad qilib taxtdan ag'darmoqchi edilar, ularga shu qadar ehson va muruvvat qildimki, ehsonim sharmandasi bo'ldilar. Va har kimsaning dilini og'ritsam, uning evaziga in'om va ehson etdim va loyiq martabalar bilan unga imtiyoz berdim. Va ul do'stlarkim menga iltijo qilib, hamisha mening roziligim

bilan ish qildilar, ularni davlat sherigi bilib, mol-u asbob atosida torinmadim.

Tajribamga yetishdikim, do'sti sodiq uldurkim, do'stdan dili ranjimagay va dushmanning dushmani do'st bo'lgay. Va agar ish tushsa, hech ikkilanmay jon bergay. Jumladan, mening ba'zi amirlarim jonini xatarga qo'yib, menga hamrohliq qildilar va men ham hech narsani ulardan ayamadim.

Tajribamga yetishdikim, oqil dushman johil do'stdan yaxshiroq bo'lur. Masalan, Amir Qazag'onning nabirasi Amir Husayn mening johil do'stlarimdan edi. Ul nimakim menga do'stlikda qildi, buni hech dushman dushmanlikda qilmas. Va Amir Xudoydod menga: «Dushmanni la'l va javohirdek saqlagil, bir toshlik yerga yetib borgach, toshga shunday urgilkim, undin hech asar qolmasin» – dedi. Va yana: «Bir dushman panoh so'rab, tiz cho'ksa, unga rahm etib muruvvat ko'rguzgil», – dedi.

Men To'qtamishxonga shunday qildim. U menga panoh so'rab kelgach, men unga muruvvat qildim.

Agar dushman muruvvat va ehson ko'rib, yana dushmanlikka ketsa, uni parvardigorga topshirgil.

Va do'st uldurkim, do'stdan ranjimagay, agar ranjigan bo'lsa ham, uzrini qabul qilgay.

YIG'INLARDA JOY EGALLASH TUZUKI

Va amr etdimkim, farzandlar va nabiralar va qarindoshlar o'z martabalariga muvofiq yarim doira yanglig' saf tuzib, saltanat taxti tegrasida o'lturgaylar. Va sayyidlar va qozilar va ulamo va fuzalo va mashoyix va akobir va ashrof o'ng qo'l tarafida o'ltirib, amir ul-umaro va beklarbegilar va tuman amirlari va ulus va qo'shinlarning sardor va amirlari va mingboshilar va yuzboshilar va o'nboshilar o'z martabalariga yarasha chap qo'l tarafida joylashgaylar. Va devonbegi va vazirlar uchun taxtning ro'parasida o'ltirish joyi belgilagaylar. Va mamlakatlarning kattalari va oqsoqollari vazirlar keynida saf urib o'ltirgaylar. Va

bahodirlik sharafiga muyassar bo'lgan bahodirlar va qilich chopgan yigitlar saltanat taxti keynida, o'ng qo'l tarafida o'ltirgaylar. Va qarovulbegilarga chap qo'l tarafida taxt keynida o'lturmoqni hukm etdim.

Va hirovul amiriga to'g'rida o'rin berdim va mahram yasovullar koshona eshigida, taxt oldida turgaylar va dodxohlar chap-u rostda turgaylar. Va o'zga sipoh, xodimlar va xizmatkorlar o'z martabalariga ko'ra saf tortib turib, o'z joylarini bilgaylar.

Va amr etdimkim, to'rt amiri tuzuk o'ng va chap qo'lda va majlisning ilgari va keyniga tuzuk bergaylar.

Va hukm etdimkim, majlis tuzugi tartibga solingandan so'ng majlis dasturxonida ming tabaq osh va ming non shilon (ziyofat) chekkaylar.

Va xos mahfilda ming tabaq hozir qilgaylar. Shu jumladan, besh yuz tabaqni ulus amirlariga va o'zga sardorlarga nomma-nom yuborgaylar.

MULK OLMOQNING TUZUKI

Va har mulkdakim, javr va zulm va buzuqchilik ko'b bo'lsa, podshohlarga kerakdurkim, adolat niyati bilan buzuqchilik va zulm dafiga himmat kamarini bog'lab, ul mulkka turktoz etgaykim, Tangri Taolo niyatiga yarasha o'sha mulkni zolimdan olib, odilga topshirur.

Xuddi shunday, Movarounnahr viloyatini o'zbekiya zolimlari qo'lidan adolat niyati bilan oldim. Va har mulkdakim shariat zaif bo'lsa va xudoning o'zi ulug'laganlarni aziz tutmasalar va xudoning xos bandalarini ranjitsalar, mulkgir podshohga lozim uldurki, din va shariat rivojining niyati bilan ul mulkka kirgaykim, rasuli Xudo unga quvvat va yordam berurlar.

Shu niyatda, men Hinduston mamlakatini Feruzshohning nabirasi Sulton Mahmuddan oldim. Tamuzxon va Sorangdan olib, shariatga rivoj berdim va ul diyorning butxonalarini xarob etdim. Va har mamlakatkim, uning aholisi o'z hokim va voliyalaridan ozor tortgan bo'lsalar va

ul diyor ahli o'z voliysidan yuz o'girsalar, mulk oluvchi podshohga loyiq uldurkim, bu mulkni o'z tasarrufiga kiritgay.

Va men Xuroson o'lkasiga yo'l olganimda Sulton G'iyos ud-din kelib, Xuroson mamlakatini xazinalari va dafinalari bilan menga topshirdi.

Va har mulkdakim, dindan qaytganlar va dahriylar ko'b bo'lib, bu mulkning sipoh va aholisi atrof-tevarakka egalik qilsalar, bu mamlakatning zavoli tayinlanmish bo'lgay. Jahonni egallovchi sultonga lozimdurkim, ul mamlakatga turktoz etkay.

Xuddi shuning uchun, men Iroqi Ajam mamlakatlari-ni dindan qaytganlar va mal'unlar vujudlaridan pok etdim va qabila maliklarini ag'darib, xudo bandalarini har biri bir nohiyada podshohliq bayrog'ini tikkan zolimlarning zulmidan najot berib, qutqardim.

Va har mulkda ul mulk ahlining e'tiqodlari hazrat ul-anbiyo (Muhammad(a)) xonadoniga e'tiqodlari o'zgarib qolsa, podshohlarga lozimdurki, bu viloyatni ishg'ol qilib, ul mulk ahlini ularning e'tiqodlariga kiritgaylar.

Shuning uchun men Shom mulkiga kirib, yomon e'tiqodli jamoatning sazosi berdim.

Va mulk olishga boshlaganimdan so'ng, to'rt ishni xotirimda saqladim.

Avval mulk olmoq ishlarida durust kengash va tadbir bila ish qildim. Ikkinchi, mulohaza va ehtiyot andishasin ko'b qildim, toki ishlarda g'alat qilmaslik uchun. Va Ollohning o'zi qo'llab har tadbirkim qildim, tuzuk va durust tushdi. Va har mulkning mijoz va tabiatlarini ko'z oldimga keltirib, tabiatlariga muvofiq munosabatda bo'lib, hokim tayin qildim.

Uchinchi, uch yuz o'n uch asil va mardona va jasur va farzona odamni o'zimga birlashtirdim va ularning yakdilligi ul martabada ediki, go'yo hammalari bir tan edilar. Va ularning qarori va rayi va so'zi va amallari hammasi bir edi. Bu ishni qilmaymiz desalar, so'zidan qaytmadilar va

har ishni qilamiz desalar, uni oxiriga yetkazmaguncha undin qo‘l tortmadilar.

To‘rtinchi, bu kunning ishini tonglaga qo‘ymadim va muloyimlik chog‘ida muloyimlik va qattig‘lik vaqtida qattig‘ va murosasizlik qildim. Va shoshilinch bo‘lmagan ishga shoshilmadim va shoshilinch bitadigan ishda orqaga surmadim. Va tadbir bila saranjom topg‘udek ishni qilich bila ochmadim. Kunduzlari tajribalik va esli-hushli kishilar bilan mulk olish shatranjini o‘ynab, kechalari yotoqda yonboshlagan paytimda mamlakat ishlarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha o‘yladim. Va uni amalga oshirishni o‘zim tasavvur qilib, mulk olmoq tariqini o‘zim bilan fikrlashdimki, qaysi yo‘ldan kirib, qaysi tarafdan chiqqaymen.

Va har sipohkim muomalalarda menga do‘stlik qildilar, ularga ehson etdim. Va har kimsakim, menga dushmanlik qildi, u bilan madoro qildim. Va ul kimsalarkim, mendin yaxshilik ko‘rib, evaziga menga yomonlik qildilar, ularni haromzoda bildimki, Rasuli (alayhis-salot vas-salom)ning so‘zi bilan aytganda: «To muhsin, ya’ni yaxshilik qilgan kishiga yomonlik qilmaguncha, haromidan tug‘ilgan bu dunyoni tark etmas».

Va pirim menga yozdikum: «Senga lozim uldurkim, Xudo va rasulning hukmiga amal qilgaysen va avval ul hazrat (alayhis-salot vas-salom)ning zurriyotiga yordam berib, undan so‘ng Xudoning ne‘matlarini yeb, Xudo va rasulga yog‘iy bo‘lgan podshohlarni Xudoning mulkidan chiqargaysen va Xudoning mulkida adolat qilgaysen. Debduurlarkim, mulk kufr bila boqiy qolur, ammo zulm bila boqiy qolmas. Va sen Xudo mulkidan qabih fe‘l va yaramas amallarni tag-tugi bilan yo‘q qilgaysen. Yomon fe‘llar olamda yomon taom badanda qanday ta’sir qilsa, shunday ta’sir qilur. Va zulm asarlarini mahv etkaysen. Va olamda zolimlarning umri uzoqligini, zolimning oz bo‘lsa ham qilgan yaxshiligiga yo‘ygaysen. Va zolim va buzuqlarning uzoq umr ko‘rishining sababi shundaki, ular zamiridagi yashirin zulm va buzuqchilikni amalga oshirib, undan so‘ng Xudoning qahr-g‘azabiga uchraydilar.

Goh bo'lurkim, Tangri Taolo qudrati zolim va fosiq va gunohkorlarni zanjirband va zindonband qilib, toroj va qahat va ochliq va vabo va o'lim fojialariga birdan giriftor etar. Va goh bo'lurkim, yaxshi niyatli va begunohlar ham yomon va yaramas kishilarning yomon amallari shumligidan baloga giriftor bo'lurlar. Nedinkim, qamishzorga o't tushsa, uning ho'l-qurug'ini kuydurur. Va kofir va gunohkor va zolim va buzuqlarning taraqqiylaridan taajjub qilmagil va xato o'ylarga bormagil va zolimlar va buzuqlar va gunohkorlar har necha zulm va tubanlik va gunoh ishlarni ko'proq qilsalar ham ne'matlari ziyoda bo'lur demagil. Bas ular ne'matlari ko'pligining sababi budurkim, shoyad in'om berguvchining haqiqiy inoyatiga qarab, zulm va tubanlikdan qaytgaylar va ne'mat shukrini bajo kelturgaylar. Negaki, shukri ilohiydin g'ofil bo'lib, Tangri Taolo dargohiga qaytmasalar va Xudo rasulining ne'matini unutsalar, oxirida Tangri Taolo g'azabiga giriftor bo'lurlar».

Va pirimning nomasi menga yetib kelgach, Xudo mulkini zolimlar va makkor va kofir va xudodan qaytganlar va munofiq va gunohkorlar va buzuqlar qo'lidan chiqardim va ularni yo'qotishga himmat kamarini bog'ladim.

MULKDORLIKNING TUZUKI

Har mulkni o'zimga bo'ysindirsam, ul mulkning azizini aziz tutdim va sayyidlar va ulamo va fuzalo va mashoyixga e'zoz va ehtirom etdim. Ularga xizmat haqi tayin etdim. Va ul viloyatning ulug'larini birodarlarim o'rnida va yosh va kichiklarini farzandlarim o'rnida bildim. Va ul mulk sipohiga o'z dargohimga yo'l berdim va aholisiga rahm-shafqat ko'rsatdim. Va barchani umid va qo'rquv orasida saqladim. Va har mulkning yaxshilariga yaxshilik qildim va yovuzlar va badnafslarni mulkdan chiqardim. Va razillar va tuban kishilarni o'z martabalarida tutib, o'z qadridan tashqari chiqishga qo'ymadim. Va a'yon va ashrof va akobirga buyuk martaba bila imtiyoz berdim. Va

mulkda adolat eshiklarini ochdim. Va zulm-u sitam yo‘lini bog‘ladim. Va har mulkni qo‘l ostimga kiritsam, ul viloyat hukumatini yana hokimiga berdim va unga ehsonlar berib, o‘zimga mute va qaram etdim. Va har kimsa menga tik kelsa, uni o‘z qilmishiga giriftor etdim.

Va ularga odil va oqil va tadbirkor hokim tayin etdim.

Va amr etdimkim, har mulkning o‘g‘ri va yo‘lto‘sarlarini jazolagaylar va yovuz va badnafslarni mulkdan badarg‘a etkaylar va yaramas ishlar bilan shug‘ullanadiganlarni shahar va mulkda qo‘ymagaylar. Va har shahar va qasabaga kutvol tayin etkaylarkim, sipoh va aholiga kuzatuvchi bo‘lgaylar. Va har kimsadan o‘g‘irlangan narsa kutvol zimmasida bo‘lgay.

Va amr etdimkim, yo‘llar boshida zobitlar tayin etkaylarkim, yo‘llarning posboni bo‘lgay va karvonlar va tadbirkorlar va yo‘lovchilarning mol va asbobini va matolarini manzil-bamanzil yetkazgaylar. Va agar unda bir narsa qolsa va yo‘q bo‘lsa, uning javobi uhdasidan chiqqaylar.

Va amr etdimkim, hokimlar g‘arazgo‘ylarning va badnafslarning va hasadgo‘y va baxillarning tuhmat so‘zlari bilan hech qal’a va turar joyning odamlarini gunohkor etmagaylar.

Va amr etdimkim, uy va odam sanaguchilar aholining hech bir uyiga zo‘rlilik bilan joylashmagaylar va aholining ulog‘ va qora mollarini olmagaylar. Va har mulk aholisining ishlarida adolat yuzasidan ish tutib, kun kechirgaylar.

Va amr etdimkim, har mulkning gadoylariga nafaqa muqarrar qilgaylar, to gadolik rasmi yo‘q bo‘lgay.

MAMLAKAT VA RAIYAT VA SIPOH AHVOLIDIN OGOHLIK VA XABARDORLIKNING TUZUKI

Amr etdimkim, har shahar va viloyat va lashkarga xabar yozuvchi tayin etkaylarkim, hokimlar va aholining va har mamlakatdan kelgan va ketganlarning ishlari va xabarlarini rostlik va durustlik bila yozgaylar. Agar rostlik

bilan yozmasalar, ul xabar yozuvchilarning barmoqlarini kesgaylar. Va agar axbor yozuvchilarning biri bir sipohiy ishini pinhon tutib, boshqa tus berib yozsa, uning qo'lini kesgaylar va agar tuhmat va g'araz bilan yozar bo'lsa, uni qatl etkaylar.

Va amr etdimkim, qayd etilgan xabarlar kun-bakun, hafta-bahafta, oy-baoy arzga yetkazilgay.

Va amr etdimkim, ming otlig' va ming chaqqon piyoda tayin etkaylarkim, yaqindagi viloyatning xabarlarini va podshohlarning maqsad va irodalarini surishtirib bilib, xabarini yetkazgaylar, toki voqea yuz berishidan burun ilojini topkaymiz.

Shunday bo'ldiki, To'qtamishxonning O'rusxondan mag'lub bo'lganining xabari menga yetib keldi. Shundan bildimki, mendan panoh izlab kelgusidur. O'rusxonning urushi va To'qtamishxonga madad berishga tayyorlandim.

Va shuningdek, Hinduston mamlakatini bosib olishga azm etkanimda menga xabar yetkazdilarkim, Hindustonning har shahrida bir hokim podsholik taxtida o'ltirganmish, dedilar. Jumladan, Malluxonning birodari Sorang Zobulistonda hukumat bayrog'ini tikib, Lohur shaharlarida lashkar jam etib, Qunuj shaharlarida Muborakxon podsholik da'vosin qilur. Bu xabar menga yetib kelgach, ul mulkni egallash nazarimda oson ko'rindi, lekin sipohim nazarida mushkul edi.

Chunonchi, Hind mamlakatini egallagan vaqtimda menga xabar yetdikim, ba'zi mamlakatimga Rum qaysari turktoz etmish va gurjilar ham o'z hadlaridan tajovuz qilib, mening lashkarimni qurshovga olgan, ba'zi qal'alar ahliga madad yetkazayotgan ekan. O'z-o'zimga kengash qildimki, agar Hindustonda uzoq qolsam, podshohligim xavfsizligiga xalal yetishi mumkin. Undan so'ng Hind mulkini tartibga keltirib, ilg'or etdim va Movarounnahrda bir necha kun turib, ul yerdan Rum va Gurjistonga borib, ul mamlakatlarning barchasini qo'lga oldim.

HAR SHAHAR-QISHLOQ AHLLARINING O'ZARO MUNOSABATI VA YASHASH TARZI VA AVLIYO MOZOROTI VA ULUG'LARINING VAQFLARI VA NAZR-NIYOZLARINI TARTIBGA SOLISH TUZUKI

Amr etdimkim, har mamlakat egallansa, ul mamlakatning sipohi panoh so'rab kelsa, uni navkar qilgaylar va joy bergaylar va ul diyorda yashaydigan aholini qatl va g'orat va asirlikdan himoya qilib, mol va asboblarini toroj va yag'modan saqlagaylar va ul mamlakatdan qo'lga kirgan o'ljalarni ro'yxatga olgaylar. Va ulamo va fuzalo va mashoyix va akobirni e'zoz etkaylar. Va dehqonlarning ulug'lari va oqsoqollariga dalda bergaylar. Va aholisini umid va qo'rquv orasida saqlag'aylar va gunohlari miqdorincha jarima olgaylar.

Va amr etdimkim, bo'ysindirilgan mulkning sayyidlari va ulamo va mashoyix va fuzalo va darvish va uzlatga chekinganlariga in'om etib, nafaqa va maosh bergaylar. Ojiz va miskinlarning ro'zg'origa madad yetkazgaylar va avliyo va akobirlarning mazorlariga mavzelar vaqf etkaylar va to'shak va chiroq muqarrar qilgaylar.

Va amr etdimkim, har mamlakat bo'ysindirilsa, ul mamlakat gadolarini jam etib, har kunlik nafaqasini muqarrar qilib, ularni tamg'o qilgaylarkim, undan so'ng gadolik qilmagaylar. Agar tamg'odan so'ng gadolik qilsalar, ularni uzoq viloyatlarga yuborgaylar, to mamlakatlarda gado yo'q bo'lgay.

AHOLIDAN MOL VA XIROJ YIG'IMI VA MULK OBODLIGI VA MAMLAKATNI BOSHQARISH VA POSBONLIGI TARTIBINING TUZUKI

Amr etdimkim, aholidan mol va xiroj olmoqni ul tariqa bila olgaylarkim, mamlakat va aholining xarobligiga bois bo'lmagay. Aholi xarobligi xazina kamligiga sababdur va xazina kamligi sipoh parokandaligiga bois va sipoh

parokandaligi mamlakat va saltanatga ziyon yetishiga sababdur.

Va amr etdimkim, har mamlakat bo'ysindirilsa, ul mamlakatni tasodifiy hodisalardan asrab, tushumlari va hosilini ko'rib chiqqaylar. Agar aholi ilgarigi yig'implarga rozi bo'lsalar, ular rizosiga amal qilgaylar.

Va amr etdimkim, ziroat hosiliga muvofiq xiroj olgaylar va soliqni yerdan olinadigan hosilga bog'lagaylar. Shuning uchun, avval aholining doimiy suvi bo'lgan korizdan va buloq va anhor va soylardan sug'orib ekadigan yerlarini ro'yxatga olgaylar va ul yerdan ungan hosilni uch hissa qilib, ikki hissasini aholiga qoldirib, bir hissasini sarkor egallagay. Agar aholi o'sha ro'yxatga tushgan va aytilgan yerlar hosili uchun bir miqdor naqd pul berurga rozi bo'lsalar, sarkorning hissasi bo'lgan g'allani vaqt narxiga muvofiq baho qo'yub, aholidan o'sha narxda naqd pul undirgaylar va narxga muvofiq naqd pulni sipohiyga yetkazgaylar.

Va agar aholi uchdan birining qiymatini berurga rozi bo'lmasa, ro'yxatga olingan yerni birinchi va ikkinchi va uchinchi tanobga taqsim etkaylar. Avvalgi jaribdan, ya'ni birinchi tanobdan uch xarvor (1 xarvor – 297 kg teng) va ikkinchi tanobda ikki xarvor va uchinchi tanobdan bir xarvor hosil yig'ishni belgilagaylar va yarimini bug'doy, yarimini arpa bilan olishni e'tiborga olgaylar. Va yig'ilgan hosilning o'ndan birini olgaylar. Va agar aholi shunga qaramay mol berurga rozi bo'lmasa, bir xarvor bug'doyga besh misqol kumush va bir xarvor donga ikki yarim misqol kumush narx etkaylar va qal'aga in'omni unga qo'shimcha qilgaylar. Undan so'ng fuqarodan hech bir vaj bilan dona va dinor istamagaylar. Va aholining kuz va bahor va qish va yozda bo'ladigan va yomg'ir suyi bilan ekiladigan ekinlarini tanob etkaylar va uchdan biri va to'rtidan biriga amal qilgaylar. Bosh sanog'i va chorvador va o'tloqlarga qadimiy dasturga muvofiq ish qilgaylar. Va agar aholi rozi bo'lmasa, har na boriga amal qilg'aylar.

Va amr etdimkim, mahsul yetilmasdan va ekini pishmasdin burun aholiga hech mol va jihat to'plashni

belgilamagaylar va mahsul yetishgach esa, uch qatla mol solig'i olgaylar. Va agar aholi mol to'plovchisiz, ya'ni soliqchisiz o'zlari mol o'tkazadigan bo'lsalar, soliqchi tayin etmagaylar. Va agar soliqchiga muhtoj bo'lsalar, so'z hukmi bilan mol olgaylar. Va ishni tayoq va arqon va qamchiga yetkazmagaylar, ya'ni urib va bog'lab va qiynab olmagaylar. Aholini band-u zanjir bilan oyoq-qo'lini bog'lamagaylar.

Va amr etdimkim, har kimsa bir sahroni obod etsa, yo bir koriz qazitsa va yo bir bog' ko'kartirsa, yo bir vayron yerni yangidan obod qilsa, avvalgi yil undan hech narsa olmagaylar, ikkinchi yil uning o'z rizosi bilan har narsa bersa, olgaylar. Uchinchi yil tuzuk nizomiga muvofiq mol olgaylar.

Va amr etdimkim, agar arbob va katta yer egalari ushoq va mayda aholiga zulm qilib, mayda aholi xarobligiga bois bo'lsalar, ularga yetkazgan xaroblik miqdoricha o'sha arbob va yer egasidan olib, ularga topshirgaylar, toki yana o'z hollariga kelgaylar. Va xarob mavzelar, agar egasiz bo'lsa, xolisan ma'mur va obod etkaylar. Va agar egasi bo'lsa va ammo parishon bo'lsa, unga ish asbobini tuzatib bergaylar, toki o'sha mavzeni obod etkay.

Va amr etdimkim, xarob mavzelarda korizlar qazitgaylar va xarob ko'priklarni tuzatgaylar va yo'llarda har manzil miqdorida bir rabot barpo etkaylar va yo'llarda yo'l nazoratchisi va qarovullar muqarrar qilgaylar. Va har rabotda bir jamoani o'tqizgaylar, toki yo'l nazorati va qo'riqchilikni amalga oshirgaylar. Va aholi va g'aflat ahlidan yo'llarda har narsa o'g'rilansa, o'sha yo'l nazoratchilari uni topib berishni uddasidan chiqa olgaylar.

Va amr etdimkim, har shahar va qishloqlarda masjid va madrasa va xonaqoh bino qilgaylar. Va faqir va miskinlar uchun langarxonalar va marizlar va kasalmandlar muolajasi uchun dorush-shifolar muqarrar qilib, ul dorush-shifoda bir tabib vazifasini tayin etib, uni zimmasiga yuklagaylar. Va har shaharda hokimiyat va adliya ma'muriyati ta'mir etkaylar va aholi ekinlarini qo'riqlash uchun qo'riqchilar muqarrar qilgaylar.

Va amr etdimkim, har mulkda uch vazir tayin etkaylar. Avvalgi vazir aholi uchunkim, aholidan har narsa hosil bo'lsa, uni ehtiyotlab saqlag'ay, bu tariqadakim, aholidan ne mablag' va ne miqdor mol har ism-u rasm bilan kelsa, uni jamlab saqlagay. Ikkinchi vazir sipoh uchunkim, sipohlarga ne yetkazilsa va ne talab qilsalar, undan xabardor bo'lgay. Va uchinchi vazir g'oyiblar va kelguvchi va ketguvchilarning mollari va oddiy va havoiiy hosillarni va aqli zaiflar moli va yetimlar merosini qozi va shayx ul-islamning tasdig'i bilan jam etkaylar.

Va amr etdimkim, o'luklarning mollarini vorisiga yetkazgaylar va agar voris bo'lmasa, xayr-ehsonga sarf etkaylar yo Makkai Muazzamaga yuborgaylar.

URUSHGA KIRMOQ VA CHIQMOQ VA SAFGA TUZISH VA QO'SHINLARGA ZARBA BERISH TUZUKI

Amr etdimkim, agar g'anim o'n ikki ming otliqdan kam bo'lsa, bu urushda amir ul-umaro sardor bo'lgay va unga o'ymoq va tumonotdin o'n ikki ming otliq hamroh etkaylar va ular g'anim qarshisiga bir manzillik yerga tegru borib, menga xabar yuborgaylar.

Va amr etdimkim, ushbu o'n ikki ming otliq qo'shinni bunday tartibda safga tizgaylar: qo'l (markaz) bir bo'linma, burong'ar uch bo'linma va juvong'ar uch bo'linma va hirovul bir bo'linma va qarovul bir bo'linma. Va burong'ar qo'shini hirovulliq va qarovulliq va shig'ovulliqdan iborat bo'lgay. Va juvong'ar qo'shini ham hirovul va chapovul va shig'ovul bo'limlarini o'z ichiga olgay.

Va amr etdimkim, amir ul-umaro urush yerida to'rt narsani mulohaza qilgay: avval o'sha yerning suvini, ikkinchi lashkarni saqlar yerni, uchinchi oftobga qarshi turmagaykim, oftobning shu'lasi lashkar ahli ko'zlarini qamashtirur. To'rtinchi urush yerining oldi ochiq bo'lgay.

Va amr etdimkim, urushdin bir kun burun qo'shinni safga tizgaylar.

QO'SHINLARNING TUZUKI

Amr etdimkim, ilgari qadam qo'ygaylar va borayotgan tarafidan otlarning boshini qayirib, o'ng va so'l tarafga qarab ot solgaylar.

Va amr etdimkim, lashkarning nazarlari g'animga tushgach, baland ovoz bilan takbir etib, suron solgaylar. Agar lashkarboshi ko'rsakim, sardor xato qilur, ul lashkarboshi boshqa birovni uning o'rniga tayinlagay va men unga topshirgan g'alaba yorlig'ini amirlar va sipohga ko'rsatgay.

Va amr etdimkim, lashkar sardori lashkarboshi bilan birgalikda g'anim lashkarining ko'p va ozligini mulohaza qilgaylar va g'anim tarafining sardorlari bilan o'z tarafining sardorlarini taqqoslab, ko'b va ozligining o'rnini qoplash tadorikini qilgaylar. Va o'z lashkari bilan dushmanlarning qurol-yarog'larini nazarga olgaylar. Va g'animning yurushini ko'rgaylarkim, urushga ohista va jipslik bilan kelurlar yo shitob va iztirob bilan. Va g'anim urushining usulini esga keltirgaylarkim, hammasi birdan turktoz etar yo bir-birining keynidin guruh-guruh bo'lib hamla qilur. Va ko'rgaylarkim, ot qo'ygan chog'da bir marta hamla qiladilarmi, yoki aylanib qaytib kelib yana hamla qiladilarmi, yoki avvalgi hamla bilan cheklanadilarmi. Agar shunday bo'lsa, lashkar ularning ot qo'yub hamla qilgani-ga chidash berishi, sabr qilishlari kerak, bu – shijoatdur.

Va amr etdimkim, g'anim urush boshlamasdan burun urushga kirishgaylar.

Amr etdimkim, g'anim maydonga kirgach, sardorning e'tibori bo'linmalarga ish buyurish bilan band bo'lgay. Nedinkim, sardorning ishi budurkim, bo'limlarga ish buyurgay. Va sardor ish chog'ida ko'ngli to'q bo'lishi kerak va o'zini yo'qotmasligi kerak va har bo'limni qurol-yarog'laridan biri o'rnida ko'rgay. Ba'zilarini o'q va ba'zilarini bolta va qilich va gurzi va xanjar o'rnida bilgay. Va har bo'limga o'z vaqtida ish buyurgay. Va sardorlar

o'z qo'shini va o'zini kurashchilarga o'xshatgay, har bir dushman a'zosiga bir ilik va oyoq va bosh va siyna bilan jangga kirishgay va umiddurkim, qilich zarbi bila dafa-dafa g'anim qo'shiniga zarba berib tursa, to'qqizinchi zarbada, albatta g'anim qo'shini yengilgay.

Va sardor avval hirovul bo'limini g'anim ustiga tashlashi kerak, undan so'ng burong'ar hirovulini izma-iz uning madadiga yuborgay va burong'ar hirovulining keynicha juvong'ar hirovulini surgay, toki dushman qo'shiniga uch zarba berilgay. Agar o'sha choqda hirovul bo'limi zaiflik qilsalar, burong'arning avvalgi bo'limini surgay va uning keynidin juvong'arning ikkinchi bo'limini surgay. Agar g'alaba qo'lga kiritilmasa, burong'arning ikkinchi guruhini surgay va uning keynicha juvong'arning avvalgi guruhini surgay. Shundan so'ng menga xabar yuborib, mening rayimga muntazir bo'lgay va Tangri Taolo inoyatiga suyanib, sardorning o'zi urushga kirgay. Va meni jang maydonida hozir deb bilgaylar. Tangri Taolo tavfiqi bilan g'animga sakkiz zarba yetkazilsa, to'qquzinchi zarbada g'anim yengiladi va g'alaba nasib bo'lur.

Va sardor, tez jilovlik qilmay lashkarga ish buyurishi kerak. Va u ishga kirishgandan so'ng, qo'lidan kelsa, o'zini halok qildirmaslikka intilishi kerak, sardorning o'limi badnomlik va g'animning kuchayishiga sabab bo'lur. Bas sardor ray va tadbir bilan ish tutishi kerak va shoshma-shosharlik shaytonning ishidur. Va undan chiqa olishiga ko'zi yetmasa, bunday yerga kirmagay.

VA QO'SHINNI SAFGA TIZISH TARTIBINI SHUNDAY BELGILADIM

Va amr etdimkim, agar g'anim lashkari o'n ikki mingdan ziyoda bo'lsa, hirovul bo'linmasi yetarli bo'lgay, lekin qirq mingga yaqin bo'lsa, toleyi baland farzandlarimdan biri sardor bo'lgay. Burong'ar hirovulining favji va ikki beklarbegi uning qo'l ostida bo'lgaylar, to qo'shin va tumonot amirlarigacha avvalgi juvong'ar hirovuli-

ning bo'linmasi, ikkinchi burong'arning bo'linmasi, avvalgi burong'arning bo'linmasi, ikkinchi juvong'arning bo'linmasi va ulusotkim, qirq ming otlig'din ozroq bo'lmasa hozir bo'lgaylar. Qo'l va zarbdor bo'linmalar meni hozir bilib, tadbir va mardlik va mardonalik jilovini ilikdin bermasliklari kerak.

Va amr etdimkim, iqbol safariga otlansalar, o'n ikki bo'linmani belgilagaylar va har bo'linmaga ulusot amirlaridin bir amirni tayinlagaylar va tuzuk va nizom etkaylar, toki men safga tizish va qo'shinlarga zarba berish va kirmak va chiqmoq usullari bo'yicha belgilab bergan o'n ikki tuzukni nazarda tutmish bo'lgaylar. Va sardorlar, g'anim lashkarining sardorlarini sanab, u bilan baravar sardorlar tayin etishlari kerak. Va g'animning o'qchi va shamshirchi va nayzador lashkariga e'tibor qaratgay. Va g'anim lashkarining yurish-turishini ko'rgaylarkim, ketma-ket va tartib bilan, saf-saf bo'lib urush maydoniga kelurlar yo mag'lublarcha choparlar. Va urush maydoniga kirmak va chiqmoq yo'lini mulohaza qilgay va g'animning sheva va ravishini bilgaykim, goh bo'lurkim, o'zlarini oz ko'rsaturlar va o'zlarini qochgan ko'rguzurlar.

Bas ularning makriga aldanmagaylar. Va sardor urush va ish qilgan bo'lishi kerak va urushning ikir-chikirini fahm etkaykim, qaysi bo'linmani ishga solish kerak va qaysi raxnani tadbir bilan bog'lamoq keraktur va nechuk urush solmoq keraktur. Va sardor, g'animning maqsadini tushunishi lozimdurkim, qanday usul bilan urushga kirar, toki shu usulga qarshi yo'lni unga tatbiq etgay. Va sardor, bu tartib bila qirq ming otliqni o'n to'rt bo'linma etib, safga tizmog'i kerak. Va sardor, g'animning jangga kirish va chiqish yo'llarini nazarga olishi kerak.

Va har amirkim, hukm bo'lmay turib harakat va tezjilovlik qilsa, unga tanbeh bergay. Va sardor, g'anim urushining yo'rig'ini ko'rishi kerak, urush maydoniga ne kayfiyatda kirarlar va ular nechuk hamla qilurlar. Agar hamla qilib yana chekinmasa va qarshi lashkarni ko'rib, qochmoqqa yuz qo'ysa va yo dushmanni ko'rib chekinsa,

sardor, o'z-o'zidan chekingan g'animning keynidan bormasligi kerak, bunday orqasi qizigan g'animga o'zi ko'mak bo'lgay.

Agar g'anim maydonga g'uncha shakl bo'lib turktoz etsa yo chap-u rost qo'shinlariga yo'l ochsa, sardor avval ularga hirovulini ro'baro' qilib, urushga solgaylar va ham uning keyinicha chapovul va shig'ovul hirovullarini ulug' hirovul madadiga yuborishi kerak. Va ularning keynidan ikkinchi bo'linmasini urushga solgay va ularning keynidan chapovulning ikkinchi bo'linmasini va shig'ovulning avvalgi bo'linmasini surgay. Agar g'animga yetkazilgan ushbu yetti zarb bilan g'alaba qozonmasa, ul vaqtda burong'ar hirovulini surgay, toki g'animga to'qqiz zarba yetkazilgay. Agar ushbu to'qqiz zarba bilan ham g'alaba muyassar bo'lmasa, burong'arning avvalgi bo'linmasini, juvong'arning ikkinchi bo'linmasini urushga yuborgay. Umid shuki, ushbu o'n uch zarba bilan qo'shinlar tor-mor bo'lib, g'alaba muyassar bo'lgay.

Va agar ahyonan ushbu o'n uch zarba bilan g'alaba hosil bo'lmasa, ul vaqtda sardor, qo'l bo'limlarini tuzuk qilib, ravon bo'lishi kerak va o'zini g'anim nazariga tog'dek ko'rsatib, ohistalik va jipslik bilan ravon bo'lgay. Urushchi bahodirlarga buyurgaykim, qilich bilan kelib hujum etib, o'qchilar o'q yog'dirgaylar. Shundan so'ng ham g'alaba muyassar bo'lmasa, sardorning o'zi urushga qadam qo'yib, mening tug'larimga ko'z tutgay.

HIROVULNING O'N TO'RT BO'LINMASINI SAFLAMOQ TARTIBI

Shunday tuzuk qildimki, agar g'anim lashkari qirq ming otliqdan ziyoda bo'lsalar, chapovul hirovuli va shig'ovuli, beglarbegilar va mingboshilarning va o'nboshilarning amirlari chapovulning avvalgi bo'limi va ikkinchi bo'limi va shig'ovulning avvalgi va ikkinchi bo'limi va o'zga sipoh va bahodirlar ham mening tug'larimga, burong'ar va juvong'arim hirovullari bayroqlariga muntazir bo'lgaylar.

Va amr etdimkim, har bo'linmaning amiriga yorlig' yuborurmen. Burong'arning avvalgi va ikkinchi bo'limlari mening yorlig'imga amal qilib, unga xilof ish tutmagaylar. Va qo'l amirlari va beglarbegilar, agar hukmdin tashqari chiqsalar, ularni qilichdan o'tkazgaylar va har qaysisini o'ldirsalar, amirlikka muntazir bo'lgan uning ko'talini uning o'rniga tayinlagaylar.

Va amr etdimkim, ulusot va qo'shunot va tumonotning qirq o'ymoqidan, o'n ikki o'ymoqn timers, tamg'oga yetishibdur, qirq bo'linmaga bo'lishgaylar. Va yigirma sakkiz o'ymoqning amirlarimers, tamg'oga yetishibdur, qo'l bo'limining keynidin saf bog'lagaylar. Va farzandlar va nabiralar qo'lining o'ng tarafi oldida bo'linmalarini saflagaylar. Va qarindoshlar qo'lining chap tarafi oldida bo'linmalarini tartibga solgaylarkim, har yerda madad va ko'mak kerak bo'lsa, ko'mak va madad yetkazgaylar. Va burong'arda olti bo'linmani muqarrar qilgaylar va yana bir bo'lim burong'ar hirovuli bo'lgay va juvong'arda ham olti bo'linma tuzib, bir bo'lim juvong'ar hirovuli bo'lgay.

Bu tariqa amr etdimkim, burong'ar bo'linmalari oldida olti bo'lim qo'ygaykim, unga chapovul deb ot qo'ygaylar va yana bir bo'linmani tuzib, chapovulning hirovuli qilgaylar. Va ham bu tariqa juvong'ar bo'linmalarining oldida olti bo'lim tayin etkaylar, unga shig'ovul deb ot qo'ygaylar. Va yana bir bo'linma tuzib, shig'ovul hirovuli qilgaylar. Va chapovul va shig'ovul bo'linmalari oldida ish qilgan amirlar va sinalgan bahodirlardan olti bo'linma tuzib, ulug' hirovuli qilgaylar. Va bu olti bo'linmadan boshqa bir bo'linmani hirovul qilib, old qatorga qo'ygaylarkim, unga hirovul hirovuli deb ot qo'ygaylar. Va qorovulbegrini birodarlardan bir jamoa bilan hirovul hirovulining chap va rost tarafida qaror bergaylarkim, g'anim lashkarining kuzatuvchisi bo'lgaylar.

Va amr etdimkim, qirq favjning amirlari modomikim, mening yorlig'im ularga yetmasa, urush qilmagaylar, lekin urushga tayyor bo'lib turgaylar. Va ularga urushni boshlash hukmi yetgach, g'animgning harakatlanishini ko'rib urushga

kirgaylar. Va ko'rgaylarkim, g'anim qay yo'ldan urushga kelur. Ularning o'sha yo'lini to'sgaylar. Va har yo'lnikim, g'anim to'sar bo'lsa, uni tadbir bilan ochgaylar.

Va amr etdimkim, hirovul hirovuli urushga kirishgach, olti bo'linmaning hirovuli ketma-ket, biri-birining izidan urushga kirgaykim, g'animga martaba ba martaba olti zarba berilsa, chekinadi. Ul vaqtda chapovul amirikim, olti bo'limini dafa-badafa ko'makka yuborur va o'zikim turktoz etar va bu tariqa shig'ovul bo'linmalarining amiri ham olti bo'limini oldindagi bo'linmalarining madadiga ravon etar va o'zini ham Xudoy Taoloning qo'llab-quvvatlash hukmiga topshirur. Va g'animga besh-o'n zarba berilgach, tor-mor bo'lur.

Agar g'anim qo'shini zarba yemak bilan ham xiralik qilsa, burong'ar amiri dag'i o'z hirovulini yugurturgay. Va ushbu ikki hirovul chap-u o'ngdan kelgach, g'anim lashkari, albatta betob va notavon bo'lur.

Va agar g'anim oyoq tirab chekinavermasa, juvong'ar amiri o'z bo'linmalarini martaba va martaba g'animga surishi kerak. Va agar ko'rarkim, g'animning bo'limlari zarbdor bo'linmalardan hech chekinmaydur, burong'ar va juvong'arning amirlarining o'zlari dushmanlar dafiga yuz qo'ygaylar va agar ul vaqt burong'ar va juvong'ar amirlari kuchsizlik qilsalar, amirzodalarkim, burong'ar saflarida va qarindoshlarkim, juvong'ar saflaridadurlar, g'animga turktoz etkaylar. Va ularning nazarlari sardorda va sardorning bayrog'ida bo'lishi kerak va shijoat va mardlik bilan g'anim saflarini parokanda qilgaylar va sardorini tutishga qasd qilgaylar. Va g'animning bayrog'ini yiqishga harakat qilgaylar.

Va agar shuncha zarbadan so'ng ham g'anim qarshiligi sindirilmasa, ul vaqtda qolgan bo'linmalar va qo'l bahodirlari va qo'l keynida safga tizilgan ulusot bo'linmalari bir yo'la hujumga o'tib, turktoz etishlari kerak. Va agar shunda ham g'alaba qo'lga kiritilmasa, sultonning o'zi xotirjamlik va baland himmat bilan harakatga kirishi kerak.

Men qaysar bilan urushda shunday qildim, amirzoda

Mironshohgakim, o'ng tarafning sardori edi, amr etdimki, qaysarning chap qo'li tarafidan kelgay va amirzoda Sulton Mahmudxon va amir Sulaymongakim, chap qo'l tarafning amirlari edilar, yorlig' yubordimki, qaysarning o'ng qo'l tarafiga hujum etkaylar. Va amirzoda Abubakrgakim, o'ng qo'l tarafdagi bo'linma saflarining amiri edi, hukm etdimki, Yildirim Boyazidning orqada turgan qo'l saflariga turktoz etkay. Va mening o'zim qo'l bo'linmalari va o'ymoq lashkarlari bilan himmat yuzini qaysar tarafiga burdim. Avvalgi hamlada qaysar bo'linmalari parokanda bo'ldi va Sulton Mahmudxon qaysarning keynidin quvib, uni tutib mening dargohimga keltirdilar.

Va To'qtamishxonga bu tuzuklar bilan zarba berdim va buyurdimkim, uning bayrog'ini yiqitgaylar. Agar g'anim qozoqlik qilib, chapovul va shig'ovul va burong'ar va juvong'ar bo'linmalarini yakson qilsa va o'zini qo'l bo'linmasiga yetkazsa, Sulton shijoat oyog'ini sabr uzangisiga mahkam qo'yishi vojibdurkim, men Shoh Mansurga qarshi urushda mening qarshimgacha yetib kelgan dushmanga qarshi shunday qildim. Shunda men unga yuzma-yuz keldim, shundan so'ng u halokat tufrog'iga yiqildi.

TAMG'OGA YETKAZILGAN O'N IKKI O'YMOQ LASHKARIDAN QIRQ BO'LINMANI SAFGA TIZISH TARTIBI

Bir qarordindurkim, bu safhada uning shakl va namuna va tartibi bitildi, bu tartibni ko'rib chiqib ishonch hosil qilgandan so'ng, unga amal qilgaylar. O'ng qo'lning qarovuli va chap qo'lning qarovuli, avval va ikkinchi va uchinchi va to'rtinchi va beshinchi va oltinchi bo'limning hirovuli va chapovul hirovuli va shig'ovul hirovuli: avval va ikkinchi va uchinchi va to'rtinchi va beshinchi va oltinchi: avval, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, beshinchi,

oltinchi. Burong'ar va juvong'ar hirovullari: avval, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, beshinchi, oltinchi; avval, ikkinchi uchinchi va to'rtinchi va beshinchi va oltinchi; amirzodalar bo'linmalari va qarindoshlar bo'linmalari va tamg'oga yetkazilgan yigirma sakkiz o'ymoqning qo'li.

* * *

Lillohil-hamd val-minnakim, bu tarjima boshlanishining sababi boshda qayd etilgan edi, tugallik sharafini hosil qildi va tarixi hijriy ming ikki yuz yetmish uchda anjom chegarasiga yetishdi. Emdi bu faqiri haqirning iltimosi bu nusxa qo'rguchilaridan bukim, har sahv-u xato voqe bo'lmish bo'lsa, afv va uzr yo'li bilan unutib, inoyat va sog'lom xomasi bilan tuzatkaylar.

Olohgga munojot. Bu dongdor nusxa va bu qimmatli asar tarjimasi garchi boshdin-oyoq xuddi aqldan ozganlar so'zlari kabi uzuq-yuluq va bir-biriga yopishmagan bo'lsa-da, Sul-toni zamon va xoqoni davron nazariga maqbul va oliy majlisida doimo tahsinga loyiq etkil.

Ruboiy:

*Yo rab ushbu nusxakim, tahririga surdum qalam,
Hukmi oliy mujibincha safhaga tortib raqam,
Bu nafaskim, lutfung anjomig'a vosil ayladi,
Qil oni maqbul shahga, bal olamga ham.*

Omin yo rabbil-olamin. Bu kitob saxovatli mulk davrida tugallandi. 1273-hijriy/1855-milodiy

ILOVA

Kishi nomlari va jug'rofiy atamalar izohlari Abarko'h – Fors viloyatida Sherozdan 180 km shimoldagi Abarko'h shahri. Hozir uning o'rnida Zuberku nomli kichik kent bor.

Abivard – o'rta asrlarda Marvdan Nasoga (Ashxobodga) borish yo'lidagi shahar. Hozir Ashxoboddan 110 km sharqda va Qahqaha temiryo'l bekatidan biroz g'arbdagi qishloq.

Abo – darvish va qalandarlar kiyadigan, jun matodan tikilgan, kalta, yengil chakmon.

Abu Bakr (1382–1417) – Amir Temurning nevarasi, amirzoda Mironshohning o'g'li, Ozarbayjon va Iroq hukmdori.

Abu Sa'idxon – Eronda Hulogu avlodlaridan mo'g'ul xoni, 1317–1335-yillar hukm surgan va musulmon bo'lgan.

Abul Fath Ibrohim Sulton – Shohruxning ikkinchi o'g'li. Ulug'bek bilan bir yilda – 1394-yil 14-avgustda tug'ilgan.

Abulmansur – ulamo va shayxlar tomonidan Amir Temurga berilgan faxrli unvon. Lug'aviy ma'nosi: zafarmand, g'alaba qozonuvchi; fotihlar otasi.

Abu-n-Nasr Shohrux Bahodurxon (1377–1447) – Amir Temurning kenja o'g'li va vorisi. 1407-yildan to umrining oxirigacha 40 yil davomida Temuriylar mulkining yagona hokimi bo'ldi. Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»ni 1424/25-yili tugatib, unga taqdim qilgan.

Ahdos qozisi – fuqaro o'rtasidagi kelishmovchilik va tortishuvlarni dunyoviy qonunlar asosida hal qilgan mansabdor.

Ahmad Jom (1049–1142) – xurosonlik mashhur hadis olimi va mutasavvuf shoir.

Ajam Iroqi – ajamliklar, ya'ni arab bo'lmagan xalqlar istiqomat qilib turgan Iroq (qadimgi Midiya).

Ajz – kuchsizlik, zaiflik, ojizlik, bechoralik.

Ali Ibn Muso Ja'far (765 yoki 770–818) – shialarning sakkizinchi imomi.

Alibek Joniqurboni – Shimoliy Xurosonning nufuzli turkman begi.

Aliobod – Samarqand yaqinida Zarafshondan shimol tarafidagi qishloq.

Almolig' – G'uljadan 15 km g'arbda Ili daryosining o'ng sohilidagi shahar. Turk xoqonlarining qadimgi poytaxti.

Alovuddin Tarmashirin – Chig'atoy ulusida 17-mo'g'ul xoni.

1326–1334-yillarda hukm surgan.

Amir Boyazid Jaloyir – avvaliga Xo'jandning hokimi edi. Keyinchalik Tug'luq Temur unga Samarqandni ham topshirdi. Lekin u Amir Temurning dushmani bo'lgani uchun bu bilan yaxshi munosabatda bo'lgan xoqon Tug'luq Temurga ham xizmat qilishdan bo'yin tovlaydi. Natijada, 1361-yili qatl etiladi.

Amir Hoji Barlos – nufuzli barlos beklaridan; Amir Temurning amakisi; Kesh va unga tobe yerlar hokimi. 1361-yili Xurosonning Juvayn mavzeyida o'ldirilgan. 1381-yili Amir Temur Juvayn mavzeyini zabt etgan va amakisining avlodlariga u joydan «mol» solig'ini yig'ish huquqini bergan.

Amir Husayn – Husayn ibn Musallo ibn Qazag'anbek, Amir Temurning birinchi xotini O'ljay Turkon og'aning akasi, ya'ni Amir Temurning qaynog'asi va Movarounnahrda hokimiyat uchun kurashda asosiy raqibi; u Amir Qazag'anning nabirasi edi. Amir Husaynning otasi Amir Musallo Qazag'anning katta o'g'li edi.

Amir Kulol – Amir Temurning otasining piri, keyin u Amir Temurning pirlaridan biri bo'ldi.

Amir Qazag'an (1346–1358) – Chig'atoy ulusining qudratli amiri, 1346-yili Qarshi yaqinida bo'lgan jangda Qazanxonni yengib, hokimiyatni qo'lga olgan. 1358-yili fitna qurboni bo'lib, ov paytida o'ldirilgan.

Amir Qazog'on (Qazog'an) – Husayn ibn Musallo ibn Qazonbek, Amir Temurning birinchi xotini O'ljay Turkon og'aning bobosi. U Chig'atoy ulusining nufuzli amir ulumarolaridan bo'lgan. 1346-yili Qarshi yonida bo'lgan

jangda Qozonxonni yengib, Movarounnahrda hokimiyatni qo'lg'a olgan (1346–1358). 1358-yili o'zi ham fitna qurboni bo'ldi va ov paytida o'ldirildi.

Amir Tarag'ay – Amir Temur otasining ismi. U Qashqadaryo vodiysining begi bo'lgan.

Amir Tug'luq Temur – Movarounnahr amirlaridan. Qazag'onning kuyovi va dushmani. Chingizxon avlodi xoqon Tug'luq Temur bilan ismdosh.

Amirzoda Abu Bakr – Amirzoda Mironshohning o'g'li; Ozarbayjon va Iroq hukmdori (1382–1417). Yana bir Abubakr ham bo'lib, u amirzoda Umarshayxning o'g'lidir va uning o'limidan (1394) keyin Fors mamlakatini idora qilgan.

Amirzoda Rustam (1381–1424) – Amirzoda Umarshayxning o'g'li. 1405–1408 va 1415-yillari Isfahon hokimi bo'lgan. 1424-yili Isfahonda vafot etgan.

Amirzoda Sulton Muhammad – aslida Muhammad Sulton, Jahongir Mirzoning o'g'li.

Andarob – Bog'londan janubi-sharqda uch kunlik masofada Hinduqush tog'ining asosiy cho'qqisiga yaqin vodiya joylashgan o'rta asrdagi shahar, hozir saqlanmagan.

Andigon – hozirgi Andijonning eski nomi.

Andxud (hozirgi Andxo'y) – Xurosonning shimoli-sharqidagi qadimgi shahar. Chig'atoy ulusiga qaram bo'lgan. Hozir u Afg'onistonning shimoli-sharqida.

Anguriya (Ankuriya) – hozirgi Anqara shahrining o'rta asrlardagi nomi.

Arab Iroqi – arablar istiqomat qilib turgan Iroq; asl Iroq (qadimgi Bobil).

Arhang – o'rta asrlarda Amudaryoning yuqori oqimi; hozirgi Sherxon yaqinidagi kechik. Qadimgi Tohariston viloyatidagi shahar; Amudaryoning yuqori oqimidagi Talliqonning shimoli-sharqidagi joy. XIV asr ikkinchi yarmida Arhang – Saroy deb nomlangan; taxminan XVI asrdan boshlab uni Imom (Hazrati Imom) deb ham ataganlar. Hozirgi nomi Imomsahib, Panj daryosining chap sohilida, Afg'onistonda.

Arhant – Amudaryoning so'l sohilida joylashgan

qadimgi Tohariston mamlakatidagi Badaxshon bilan tutash viloyat (qadimgi Aybak).

Arkanut – Chig‘atoy ulusining sharqiy qismi (Mo‘g‘uliston)dagi ko‘chmanchi turk qabilalaridan biri.

Arsaf – Balx tog‘liklari (u Elbrus tog‘ deb ataladi)da joylashgan xushmanzara dara.

Arsaf – Siyistondagi cho‘l.

Arzinjon – Sharqiy Anatoliyada Arzirim bilan Trabzo‘n oralig‘idagi, Furotning yuqori oqimida o‘ng qirg‘og‘i yaqinidagi shahar.

Arzirim – Kichik Osiyoning sharqidagi yirik shahar, unga Vizantiya (Rum) imperatori Feodosiy II (408–450) asos solgan. Arablar o‘rta asrlarda uni Qaliqala ham deganlar.

Arzrum (Arzirim) biyoboni (sahrosi) – Turkiyaning sharqidagi shahar atrofi. Amir Temur yetti yillik yurishi (1399–1404) davrida sulton Boyazid bilan jang qilishdan avval 1402-yili lashkarlarini shu shahar yaqinida to‘plab turgan.

Ashkalcha – Hirot yaqinidagi qal’a.

Ashpara, Aspara – Merkedan sharqda shu nomli daryocha bo‘yidagi kichik shahar.

Ashraf Ahmad (Ahmedov) – zamonamizning iste’dodli tarixchilaridan biri, ko‘plab ilmiy asarlar muallifi, arab, fors, ingliz va boshqa tillarning mukammal bilimdoni, tarix fanlari doktori, professor. Izohlarni tuzishda Ashraf Ahmadning, Bo‘ri Ahmedov, Porso Shamsiev, Sobirjon Ibrohimov, Alixon Sog‘uniy, Habibullo Karomatov va boshqalarning asarlaridan foydalandik.

Astrobod – o‘rta asrlarda Eronning shimolidagi Jurjon viloyatining ikkinchi shahri. Uning hozirgi nomi Go‘rgon.

Atilmish – 1393-yili Amir Temur Misrga yuborgan elchisi.

At-toi Billoh (974–991) – Abbosiy xalifalardan.

Ava – bu nomli shahar Eronda ikkita bo‘lgan: biri Qazvin bilan Hamadon orasidagi yo‘l o‘rtasida, ikkinchisi Sova shahridan Qumga olib boradigan yo‘lda bo‘lgan.

Avhar – Dog‘istonning bir qismi.

Avnik – oʻrta asrlarda Sharqiy Anatoliyada Aras daryosi boʻyidagi qalʼa. Axsikat – Fargʻona vodiysining oʻrta asrlardagi poytaxti. Namangandan janubi-gʻarbda, Kosonsoyning Sirdaryoga quyilish yerida boʻlgan. Badaxshon – Markaziy Osiyodagi togʻli oʻlka boʻlib, Panj daryosi uni ikkiga boʻlgan. Uning kichikroq qismi daryodan shimolda joylashgan boʻlib, u hozirgi Tojikiston tarkibidagi Togʻli-Badaxshon avtonom viloyatidan iborat. Oʻlkaning yirik qismi Panjdan janubga tomon hozirgi Afgʻoniston tarkibida; uning markazi Fayziobod oʻrta asrlarda butun Badaxshonning markazi hisoblangan va oʻlkaning nomi bilan atalgan. Badaxshondagi uncha-muncha yirik muzofot yoki qishloqlarning hokimlari ham oʻrta asrlarda oʻzlarini mustaqil his qilib, «shoh» deb hisoblardilar.

Bahrobod sahrosi – Sabzavordan sharqdagi sahro.

Bahrom Chubin – sosoniylar (milodning III–VII asrlari) zamonida oʻtgan mashhur sarkarda va Eron podshosi (590–591).

Baljuvon – Koʻlobdan shimolroqdagi shahar. Oʻrta asrlarda uni koʻproq Munk deyilgan.

Balx – hozirgi shimoliy Afgʻoniston, Mazori Sharif shahrining gʻarbidagi koʻhna shahar.

Balx daryosi – Balx shahridan oʻtgan shu nomli daryocha. Lekin ilk oʻrta asrlar davrida Amudaryo shu nom bilan atalgan, chunki qadimgi Balx Amudaryoga yaqin joylashgan edi. Amudaryoning oʻrta qismi.

Barquq – Misrning mamluk (qul)lar sulolasidan az-Zohir Sayfuddin Barquq 1382–1389 va 1390–1399-yillarda hukm surgan. Bu mamluklarning barchasi Dashti Qipchoqdan chiqqan qipchoq turklari boʻlib, ularni Misrga avvaliga Xorazmdan, soʻng Oltin Oʻrdadan yuborilardi. Amir Temur 1393-yil kuziga kelib Iroqni zabt etganidan soʻng gʻarbda Suriya bilan, yaʼni mamluk sultoni Barquqning mulki bilan chegaradosh boʻlib qoldi. Buning ustiga Sulton Ahmad Jaloyir Suriyaga qochib, Barquqning panohida edi. Shuning uchun Amir Temurning Barquqqa

maktubini birinchi diplomatik tanbeh deb tushunmoq kerak.

Bayon Sulduz – Movarounnahr amirlaridan.

Bayonquli O'g'lon – Chig'atoy ulusidagi 26-nchi mo'g'ul xoni, u faqat Movarounnahrda xon edi va uning hukmi Sirdaryodan sharqdagi yerlarga o'tmas edi. U yerlarda Chig'atoylarning boshqa urug'i hukm surardi. U Chig'atoy avlodlaridan bo'lmish Suyurg'atmishning o'g'li edi.

Bekisi Sulton – shahzoda Mironshohning Xonzoda begimdan ko'rgan qizi.

Bisutun – Kermionshoh bilan Song'ur orasidagi tog'. Bu tog' Behistun deb ham ataladi.

Bodg'is – Murg'ob va Harirud (Tajan) daryolari oralig'idagi vodiya o'lka.

Boqlonot, Baqlon, Bog'lon – qadimgi Tohariston janubidagi shahar, hozir Afg'onistonning shimolida Puli Xumridan Xonobodga olib boradigan yo'lda joylashgan.

Boxon diyori – A. Ahmedov «Moxon» deb yozgan.

Boxtar zamin – Qadimgi Baqtriya; O'rta asrlarda Balx unga qarashli yerlar.

Boyazid Jaloyir – Xo'jand jaloyirlarining bosh begi – amiri. Tug'luq Temurning ikkinchi yurishida uning farmoni bilan qatl etilgan.

Bog'i Maydon – Sheroz yaqinidagi bog'.

Boshton darasi – Hirotidan shimoli-sharqda Karuh yaqinidagi dara.

Burulday – jaloyir qabilasiga qarashli el.

Bo'rjird – Hamadondan janubdagi shahar.

Daragez – o'rta asrlarda Balx xonligiga qaram bo'lgan mavze. Balxning janubiy tarafida, Balxdan taxminan to'rt farsah masofada joylashgan.

Darayi Arsaf – Balx tog'lari ichida joylashgan dara.

Darayi Suf – Balxni Kobul bilan bog'lovchi yo'l o'tgan joy.

Darband – Dog'istonda Samurning Kaspiyga quyilish yeridan shimolda dengiz sohilidagi shahar.

Darbandi Ohanin, Dari Ohanin, Darvoz – Xuttalonning sharqidagi mavze.

Dashti ko‘lak – Xuttalon (Ko‘lob)ga qarashli yer.

Dashti Qipchoq – XI asrdan hozirgi Qozog‘iston, quyi Volga bo‘yidagi yerlardan to Dnepr daryosigacha bo‘lgan yerlar tarixiy va jug‘rofiy kitoblarda shu nom bilan atalgan.

Dehbid – Sherozdan Yazdga borish yo‘lidagi shahar.

Dehiston – hozirgi Turkmaniston viloyatining qadimgi nomi.

Diyorbakr – Kichik Osiyoda, Dajlaning yuqori oqimida, o‘ng sohildagi shahar. Hozir Turkiyaning janubi-sharqida.

Domg‘on – Tehron-Nishopur yo‘lida Gurgondan janubdagi qadimgi va hozirgi shahar.

Donishmandcha O‘g‘lon – Amir Qazag‘an tomonidan Chig‘atoylar taxtiga o‘tkazilgan qo‘g‘irchoq xon. U aslida Chig‘atoy naslidan bo‘lmay, Chingizxonning uchinchi o‘g‘li O‘kdayxon naslidan; 1346–1348-yillar hukm surgan.

Dor us-salom – (arabcha – tinchlik maskani) – musulmonlar tomonidan Bag‘dod shahriga berilgan sifat, chunki shahar barpo qilinishida uch yil davomida xalifalik urush olib bormagan.

Dori Zangi – Surxon vohasiga shimoldan tutashgan qumloq cho‘llar.

Durun yoki Darun – Ashxoboddan Qizil Arvatga borish yo‘lida hozirgi Bahorden yaqinida bo‘lgan qal’a.

Elburzko‘h – Elbrus tog‘i.

Erkinit – Chig‘atoy ulusining sharqiy qismi (Mo‘g‘uliston)da ko‘chib yurgan turk-mo‘g‘ul qabilalaridan birining nomi.

Farangiston – keng ma’noda G‘arbiy Yevropa, tor ma’noda Fransiya. Farkat (Farkad, Barkad, Parkad) – Buxorodan 27–30 km masofadagi Gazli yo‘lidagi qishloq.

Faroh – Hirotidan Siyiston poytaxti Zaranjga borishda yarim yo‘ldagi yirik qal’a. Hozir ham u shu nom bilan atalib, Afg‘oniston tarkibiga kiradi. Shahar Farohrud daryosining sharqida joylashgan.

Faso – Sherozdan janubi-sharqdagi shahar, shu nomli daryo bo'yida joylashgan.

Fathobod – Sirsadan 40 km sharqdagi Fotihobod shahri.

Feruzko'h – Mozandoronning sharqida tog'dagi mustahkam qal'a.

Feruzshoh – Shimoliy Hindistonda idora qilgan Tug'luqlar sulolasi (1320–1413)dan chiqqan hukmdor (1351–1388).

Hajar ul-asvad – qora tosh (Ka'bada hojilar tavof qiladigan, tabarruk sanalgan qora tosh).

Hakim Sanoiy – G'aznaviylar davrida o'tgan yirik shoir (1070–1140).

Halab – o'rta asrlarda ham hozirgidek kattaligi va ahamiyati bo'yicha Suriyada Damashqdan keyingi ikkinchi shahar bo'lgan. (Miloddan avval XX asrdan ma'lum. O'rta asrlarda Aleppo nomi bilan mashhur bo'lgan.) Suriyaning shimolida Kuvayk daryosi bo'yida joylashgan.

Halokuxon – Eron, Ozarbayjon va Iroqni 1256–1353-yillar davomida idora qilgan elxoniylar sulolasi-ning birinchi hukmdori Haloku (1256–1265). Bog'dod xalifaligini tugatgan hukmdor.

Hazora va nikudariylar – aslida mo'g'ul qabilalari bo'lib, Amir Temur davridan ancha avval turklashgan edilar.

Hazrat Xudovandzoda Abulmaoliy – Termiz sayyidlaridan. Amir Temur ularga homiylik qilgan.

Hazrati Ali – Payg'ambarimiz Muhammad (s. a. v.)dan keyingi to'rtinchi xalifa (656–661-yillar hukm surgan), Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning amakivachchalari va kuyovlari – qizlari Bibi Fotima (r. a.)ning eri.

Hazrati Amir Shayx Kulol – Amir Temurning ikkinchi piri. Amir Kulol Temurning otasining piri ham edi. Naqshbandiya-xojagon tariqatining yirik namoyondalaridan; Buxoro viloyatining Suxori qishlog'ida tug'ilgan. O'sha yerda yashab, 1370-yilda vafot etgan. Qabri ham o'sha yerda. Boshqa ma'lumotga qaraganda «Xoja Shamsuddin Kulol 1363-yili Keshda vafot etib, o'sha yerda dafn qilingan».

Hazrati Xizr – afsonaga ko‘ra, «obi hayvon» (tiriklik suvi)ni izlab topgan va undan ichib, doimiy tirik yurgan bir payg‘ambarning nomi. Kishilarga yo‘ldoshligi bilan mashhur.

Hirmand – Hilmand daryosining o‘rta asrlardagi nomi; undan ham qadimroqdagi nomi Hindmand bo‘lgan. Daryo Kobuldan biroz g‘arbdagi tog‘ tizmalaridan boshlanib, Zaranj yaqinidagi Homun botqoqlik va ko‘llariga tushadi.

Hirot – qadim va o‘rta asrlarda Xurosonning poytaxti, hozir Afg‘onistonning g‘arbidagi bir shaharcha.

Hisor darvozasi – Qarshining Hisor tarafiga olib boruvchi yo‘lidagi darvoza.

Hisori Hinduvon – Balx shahri rabotidagi qal‘a.

HisoriShodmon – Hisor viloyati (qadimgi Chag‘oniyon) ning bosh shahri; mustahkam qal‘asi bo‘lgan. Hozirgi Surxondaryo viloyatida; Kofirnihon daryosining shimoliy tarafidagi yerlarni o‘ziga birlashtirgan qadimiy Hisor viloyatining markazi. Xarobalari Dushanba shahrining kunbotar tarafida hozir ham mavjud. Hozirgi Hisor shahri.

Hoji Mahmudshoh Yasuriy – Yasur urug‘ining amiri.

Horun ar-Rashid – abbosiylar sulolasidan chiqqan mashhur xalifa (786–809); adolatparvar hukmdor va ilm-fan, madaniyat homiysi.

Hulm – Afg‘onistonning shimolidagi hozirgi Tosh-qo‘rg‘on shahri, aholisi o‘zbeklar.

Hums – qadimgi Emessa, Osi (Oront) daryosi bo‘yida joylashgan va Shomga qarashli qadimiy shahar.

Husrav Bayonquli – Movarounnahr amirlaridan, Amir Temurning raqibi.

Huvayza – Ahvozdan shimoli-g‘arbda Diz daryosining bo‘yida joylashgan. Shaharning asli nomi Dizpul bo‘lib, «qal‘a ko‘prik» ma‘nosini anglatadi.

Ho‘rmuz – Hind okeanidan Fors ko‘rfaziga kirishdagi bo‘g‘oz va shu nomli bandar (port).

Ho‘rmuz ibn Nushirvon (Anushirvon) – sosoniylar sulolasidan chiqqan shahanshoh Ho‘rmuz IV (579–590).

Idiku O‘zbek – To‘xtamishning bekларidan bo‘lib, o‘zbek urug‘idan kelib chiqqan. 1395-yilda To‘xtamishxon

Amir Temurdan yengilgandan so'ng to 1419-yilgacha xonlik taxtida turli xonlar almashib turgan bo'lsa ham asli-da hokimiyat Idikuning qo'lida bo'ladi. U rus solnomalari-da Yedigey nomi bilan kirgan.

Ilyos Xoja – Tug'luq Temurning o'g'li va uning Jeta xoqonligiga vorisi. Otasi o'lgandan keyin qisqa muddat Mo'g'uliston xoni (1363–1365) bo'lgan.

Imom A'zam, Imom Abu Hanifa – sunnadagi to'rt mazhabdan biri hisoblangan hanafiya mazhabining asoschisi va bosh imomi. Asl ismi Abu Hanifa an-No'mon ibn Sobit (699–767), fiqh olimi.

Imom Husayn – xalifa Ali ibn Abu Tolibning kichik o'g'li (626–680). Kufada xalifa Yazid (680–683) askarlari bilan bo'lgan urushda 680-yil 10-oktabr kuni o'ldirilgan.

Imom Muso Kozim – shialarning yettinchi imomi (799-yili vafot etgan).

Imom Rizo – shialarning o'n birinchi imomi, Mashhad-ga ko'milgan. Imom Shofi'iy – sunniylikda shofi'iya mazhabining asoschisi va bosh imomi; faqih. Asl ismi Abu Abdulloh (767–820).

Irbil – Mosuldan sharqdagi shahar.

Is'hoq qudug'i – Olot yaqinidagi quduq.

Ishkamish – Badaxshonning janubiy, Afg'oniston qismida Samangon daryosining irmog'i bo'yidagi kent.

Iskandar Mirzo – shahzoda Umarshayxning 1384-yili tug'ilgan o'g'li.

Istahr – o'rta asrlarda Fors viloyatidagi shu nomli tuman va uning markaziy shahri. Shahar Sherozdan shimoli-sharqda bo'lgan.

Iyboj O'g'lon – Jo'chi naslidan bo'lgan shaxs.

Izmir (qadimgi Smirna) – G'arbiy Anatoliyadagi shahar qal'ani Amir Temurga qadar turklar zabt etolmagan edilar. Chunki shahar uch tarafdan suv bilan o'ralganligi va qulay bandar bo'lganligi uchun u doimo dengiz tarafidan Ovrupodan madad olardi.

Izzudavla Daylamiy – buvayhiylar sulolasidan (932–1062) chiqqan va Iroqda hukmronlik qilgan podshoh (967–978).

Ja'far Bostoniy – Yaman hokimi.

Jaloyir – Jaloyirlar asli kelib chiqishi bo'yicha mo'g'ul bo'lib, bayon etilayotgan vaqtga kelib ular to'la turklashgan musulmonlar edi. Jaloyirlarning yana bir yirik qismi Amir Temur davrida Iroqda bo'lib, u yerda mamlakat va hokimiyat ularning qo'lida bo'lgan.

Jarbodiqon – Isfahondan 75 km shimoli-g'arbdagi shahar, hozirgi Gulpo yagon.

Jarm – hozirgi Jurm, Kashmdan to'g'ri sharqda Ko'kcha daryosining o'ng qirg'og'idagi shaharcha. Karkas uqbasi va Jarm uqbasi shu ikki shahar oralig'ida Xoja Muhammad tog' tizmasidagi dovonlardir.

Jayhun – Amudaryo.

Jazira – Iroqning shimolida Furot va Dajla daryolari oralig'i.

Jeta – mamlakat nomi. Dashti Qipchoq (hozirgi Qozog'iston)ning markazi va sharqi hamda Sharqiy Turkiston. U yerlarning aholisi ko'chmanchi o'zbeklar edi. U ko'chmanchi o'zbeklar asosan hozirgi o'zbek millatining qisman qozoq, qirg'iz va uyg'urlarning tarkibiga kirdi. Chig'atoy ulusi ikki qismga ajralib ketgandan (XIV asrning o'rtalarida) keyin Yettisuv va Chu vohalari va sharqiy Turkistonni o'z ichiga olgan. Uning sharqiy-shimoliy qismi tarix kitoblarida Mo'g'uliston yoki Jeta nomi bilan atalgan.

Joni qurboniy – oyrat qavmlaridan bo'lib, ularning yetakchisi Arg'unshoh Chingizxon zamonida qavm bilan Moxon, Niso va Obvard atrofiga kelib o'rinishib qolgan.

Jurjon suvi – Gurgon daryochasi, Kaspiy dengiziga janubi-sharqidan quyiladi.

Jo'chi ulusi – Chingizxonning to'ng'ich o'g'li Jo'chi va uning o'g'li Botuxon tomonidan bunyod etilgan davlat. Uning tarkibiga hozirgi Rossiyaning bir qismi hamda Ukraina, Qozog'istonning Balxash ko'lidan g'arbdagi yerlari kirgan.

Jo'yi Zar – Shofirkon tumanidagi ariq va mavze.

Kach – o'rta asrlarda Eron bilan Hindiston

chegaralaridagi qal'a va o'lka. Kach – Mekronning g'arbiy chekkasidagi Dasht daryosining yuqori oqimidagi qal'a.

Kandibodom – hozirgi Konibodomning qadimgi asl nomi.

Karbalo – Bog'doddan janubdagi shahar.

Kart sultonlari – Xuroson, Shimoliy Hindistonni 1000–1215-yillari va undan keyin 1245–1381-yillari G'ur bilan Hirotni idora qilgan sulola. So'nggi sulolaga Malik Shamsuddin Muhammad (1245–1278) asos solgan. Amir Temur Hirotdagi kartlar sulolasini 1381-yili tugatgan.

Kashm – Badaxshonda (janubiy) Talliqon bilan Fayziobod oralig'ida Mashhud daryochasining o'ng sohilidagi shaharcha. Hozir nomi Kishim deb talaffuz qilinadi.

Katur – Hinduqushdagi tog'li viloyat, Kofiriston, Nuriston deb ham ataladi.

Kayxusrav Xuttaloni – Xuttalondagi Chig'atoy amiri. U avvaliga Amir Temurning safdoshi, keyin esa dushmani bo'ldi.

Kerayit – nufuzli turk-mo'g'ul qavmlaridan birining nomi.

Kermion – Eronning janubidagi viloyat va shahar.

Kesh – Kash, Shahrisabzning qadimgi nomi.

Kirmiyon viloyati – o'rta asrlarda Kichik Osiyoning janubidagi viloyat. Hozir bu nom saqlanmagan.

Kot – Xorazmning eng qadimgi shaharlaridan bo'lib, Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan. 995-yilgacha, Xorazmshohlar davlatining poytaxti Gurganchga (hozirgi Turkmanistonda Ko'hna Urganch) ko'chirilganidan so'ng ikkinchi darajali shahar bo'lib qolgan; hozirgi nomi Beruniy.

Kozerun – Sherozdan g'arbdagi shahar.

Kusin – Sharqiy Turkistondagi qadimgi Kucha shahri.

Ko'hi Sulaymon – yoki Sulaymon tog'lari tarixiy Hindistonning shimoli-g'arbida (hozirgi Pokiston g'arbida) Sind daryosining g'arbiy tarafida shimoldan janubgacha cho'zilgan tog' tizmalaridir.

Ko'himard – Ko'hrud tog' tizmasining sharqi.

Ko'histon (yoki Ko'hdiston) – Xurosonda Hirotidan janubi-g'arbdagi tog'li o'lka. Amir Temur yurishlariga qadar u yerlar Hirot Kurtlariga qaram edi. Mahalliy bek Satilmish Malik Mu'iziddin Husaynga qarshi isyon ko'tarib, 1360-yillar atrofida panoh izlab Samarqandga qochgan edi. Lekin u paytlar Movarounnahrda unga madad beradigan kuch yo'q edi. Shuning uchun u Shimoliy Xuroson beklari bilan ittifoq tuzishga majbur bo'lgan. Hozir Afg'onistonning shimolidagi tog'li o'lka.

Ko'kcha tengiz – Urmiya ko'li.

Ko'knak – Toshkent vohasining g'arbidagi, Chinoz yaqinidagi mavze.

Ko'lob – qadimgi Xuttalon; XVI asrdan shu nom bilan ma'lum.

Luri Kuchek – Kichik Lur – g'arbiy Eronning Luriston o'lkasining shimoliy qismi; janubiy qismi Luri Buzurg – Katta Lur deb ataladi. Luristonning bu ikkala qismi o'rtasidagi chegara Obi Diz daryosi hisoblanadi. Kichik Lurning poytaxti – Xurramobod.

Ma'mun ibn Xorun ar-Rashid (813–833) – mashhur xalifa Xorun ar-Rashid (786–809)ning o'g'li va taxt vorisi, Abbosiylar sulolasidan yettinchi xalifa.

Madoin – Bag'doddan janubi-sharqda joylashgan qadimiy shahar. Mahmud G'aznaviy – Xuroson, Afg'oniston va Shimoliy Hindustonni 977–1186-yillar idora qilgan G'aznaviylar sulolasining yirik namoyondasi (998–1030); mashhur fotih, ilm-fan va adabiyot homiysi.

Mahmudiy – Qoraqum sahrosining sharqidagi bir mavze.

Malatiya – Rum mamlakatining mashhur shaharlari-dan. Hozirda Turkiyaning shu nomdagi viloyat markazi.

Malik Baqr – kurtlar sulolasining vakili: Malik Husaynning ukasi. Malik Barquq ibn Malik Faraj – 1382–1517-yillarda Misr bilan Shomda hukmronlik qilgan Burjiylar sulolasidan chiqqan oliy hukmdor (1399–1405). Sharqdagi Temurga qarshi kuchlar, To'xtamish, Qora-qo'yunli turkmanlari, Sulton Ahmad Jaloyir va Rum sultonlari bilan ittifoqda bo'lgan.

Malik G'iyosiddin – 1245–1389-yillari G'ur (markaziy Afg'oniston) va Hirot viloyatlari ustidan hukm yurgizgan kartlar sulolasidan chiqqan hukmdor. Haqiqiy ismi Malik G'iyosiddin II Pir Ali (1370 –1381).

Malik Husayn – Amir Temurning begi, Amir Husayndan boshqa shaxs.

Malik Saljuqiy – saljuqiylar sulolasi (1038–1194)dan chiqqan va ko'pincha Jaloliddin Malikshoh I nomi bilan mashhur podshoh (1072–1092). Saljuqiylar Eron va Iroq ustidan hukmronlik qilganlar. Malikot og'o – Xuroson va poytaxti Hirotida hukm surgan Shohruh Mirzoning xotinlaridan biri.

Mallaxon (Malluxon) – Sulton Nosiriddin Mahmudshoh zamonida amir ul-umaro va Dehli hokimi.

Mamoq – rus solnomalarida Mamay deb yuritilgan. Oltin O'rda beklaridan.

Marand – Janubiy Ozarbayjonda Tabrizdan 30 kmcha shimoli-g'arbdagi shahar.

Mardin – Urfadan sharqdagi shahar.

Marv – Xurosonning qadimgi shaharlaridan, hozirgi Turkmanistondagi Bayram Ali.

Marvarud – Afg'onistonning Turkmaniston bilan chegarasida Murg'ob daryosi bo'yidagi shahar, hozirgi nomi Marvchak.

Mir Sayyid Sharif Jo'rjoni (1330–1414) – jurjonlik mashhur faylasuf olim. 1387-yili Amir Temur uni Samarqandga olib kelgan va u Sohibqiron tomonidan qurilgan «Dorushshifo» madrasasida dars bergan.

Mosul – Iroqning shimolida Dajlaning o'ng sohilidagi shahar.

Movarounnahr – O'rta Osiyoning Amudaryodan sharqdagi yerlariga arablar tomonidan berilgan nom (Movarounnahr – «Mavara'a an-nahr» shaklida «Daryo ortidagi yerlar», «daryoning naryog'i» ma'nosini anglatadi). Arablar bergan nom esa qadimgi yunoncha Transoksaniya («Oks» – «Amudaryo orqasidagi yerlar» demak) so'zining erkin tarjimai va bu yunoncha nom esa

qadimgi Xorazm turklari tilidagi «Ariyaq», ya'ni «nari yoq» so'zining tarjimai deb hisoblanadi.

Moxon – Marv shahri yaqinidagi qishloq; Xuroson shimolidagi shaharcha, hozirgi Mari o'rnida bo'lgan.

Mozandaron – Kaspiy dengiziga janubdan tutashgan o'lka, o'rmonzor va botqoqliklardan iborat. Unga janubdan tog'li o'lka Demovand, sharqdan Gurgon va g'arbdan Daylam va Gilon tutashadi.

Muborakshoh Sanjariy – turkmanlarning sanjariy urug'ining begi, Amir Temurni tan olib, unga bo'ysungan va natijada katta mansablarga erishgan.

Muhammad Mahdiy – shialarning o'n ikkinchi imomi.

Muhammad Mustafo – payg'ambar.

Muhammad Sulton – Amir Temurning nabirasi, Jahongirning o'g'li (1376–1403). Onasi Oltin O'rda xoni O'zbekxonning (1312–1341) nabirasi Xonzodabegim bo'lgan. Amir Temur o'ziga valiahd etib tayinlagan. 1403-yili Qora shaharda (Turkiyada) kasal bo'lib o'lgan.

Mullo Alayk – Amir Temurning birinchi o'qituvchisi.

Multon – hozirgi Pokistondagi shahar.

Munk – Xuttalon viloyatida Kichik Surxob daryosi bo'yidagi o'rta asrlardagi yirik shahar. Hozir uning o'rnida Baljuvon (Tojikistonda) shahri joylashgan.

Muqtadir Billoh – Abbosiylar xonadoniga mansub o'n to'qqizinchi xalifa (908–932).

Musta'sim Billoh – abbosiylar sulolasiga mansub Bag'dod xalifalarining so'nggi vakili (1242–1258).

Muti' Amrilloh (946–974) – Abbosiy xalifalardan biri. Muzaffariylar – 1314–1393-yillarda janubiy Eronda idora qilgan mahalliy sulola.

Mo'ltan – hozirgi Pokistonning Panjob vodiysida Satejning Trimob irmog'idan sharqda joylashgan shahar.

Mo'sul, Mosul – Arab Iroqining katta shaharlaridan.

Najaf – Hazrat Ali ibn Abu Tolib dafn etilgan Iroqdagi shahar nomi.

Nasoy yoki Naso – Ashxobod.

Naymonlar – avvalgi mo'g'ul qabilalaridan biri va

ularning aksariyatini Chingizxon 1218-yiliyoq qirib yuborgan edi. Qolganlari Chingizxon yurishlarida ishtirok etib, keyinchalik turli turkiy xalqlar, jumladan, o'zbeklar va qoraqalpoqlar tarkibiga kirdi. Ularning o'zbeklar tarkibiga kirgani asosan Shimoliy Xuroson va Amudaryo bo'ylarida tarqalgan edi. Apardiylar – naymonlarning bir urug'i va Muhammad Xoja Apardiy ularning yirik amirlaridan edi.

Nizomulmulk (asl ismi: Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Ishoq at-Tusiy [1018–1092]) – Saljuqiylar sultonlaridan Alp Arslon (1063–1072) va Malikshoh I (1072–1092)larning bosh vaziri. Nizomulmulk «Siyosatnoma» nomli katta tarixiy asari bilan ham mashhur.

No'yon – tuman, ya'ni 10 ming kishilik lashkar qo'mondoni.

Oli Muzaffar (yoki Muzaffariylar, 1313–1383) – Eron va Iroq Hulogu ulusi parchalanganidan so'ng Eronning janubi-g'arbida Fors viloyatida hokimiyatni qo'lga olgan sulola. Bu sulolaning asoschisi Sharafuddin al-Muzaffar avvaliga Eronning mo'g'ul xoni G'azonxonning (1295–1304) xizmatida bo'lib, Isfahon yaqinidagi Maybul shaharchasining hokimi va o'g'li Muhammad Yazdning hokimi bo'lgan. Muhammad 1313-yili otasining mulkini ham qo'shib oladi va Erondagi eng so'nggi mo'g'ul xoni Abu Sa'id 1336-yili o'ldirilganidan so'ng Muhammad avvaliga butun Fors viloyatini va keyinroq Kermonni ham qo'shib oladi va poytaxtini Sherozga ko'chiradi. 1356-yili Muhammad Fors va Ajam Iroqining hokimi bo'ladi va Ozarbayjonni qo'lga kiritish uchun Jaloyirlar bilan kurashadi. Biroq Amir Temur qudratiga bo'ysunib, oqil ish qiladi.

Omul – Eronning shimolida Kaspiy dengizidan 20 km masofadagi shahar. Mozandaron viloyatiga kirardi.

Oqsuv – Chimkentdan Jarkentga olib boruvchi yo'lda Merkedan sharqroqdagi mavze, hozirgi Belovodskaya.

Otboshi – Issiqko'ldan janubi-g'arbda shu nomli daryo bo'yidagi shaharcha, hozir Qirg'iziston hududida.

Pahlavon Niyoz Devon-ul-mutaxallis bil Komil – Komil taxallusli Pahlavon Niyoz Devon.

Pirmuhammad Jahongir (1376–1406) – Amir Temurning nabirasi. Otasi Jahongir vafotidan (1376) keyin uning ulusi (Kobul, Qandahor, Gʻazni, Balx)ni idora qilgan.

Potila – Shoh Mansur bilan Sheroz yaqinida jang yuz bergan yer.

Puli sangin – Hisor viloyatida, Vaxsh daryosi ustiga qurilgan tosh koʻprik.

Qabulxon – turk-moʻgʻullarning afsonaviy onasi Alonquvaning avlodi; Chingizxonning uchinchi ajdodi.

Qahlaqa qalʼasi – Termizga yaqin qadimiy qalʼalardan biri. Boysundan (Surxondaryo viloyati) gʻarbda Sarimas tizmasidagi tor dara, forscha «Darbandi Ohanin» («Temir darvoza»), qadimgi turkiy tilda «Temir qapugʻ» («qapugʻ» – darvoza), arabcha «Bob ul-hadid» («Temir darvoza»), moʻgʻulcha «qahlaqa» deyilgan.

Qalʼayi Toq – oʻrta asrlarda Zaranjdan 50 kmcha janubda Hilmand daryosining chap sohilida Qalʼayi Fath roʻparasidagi qalʼa. 1383-yil oxiridagi vayronagarchilikdan keyin u qayta tiklanmagan.

Qalot – Qandahordan 130 km shimolda Tarnak daryosining oʻng sohili dagishahar, Zobuliston viloyatiga kiradi.

Qandahor – Afgʻonistonning janubi-sharqidagi viloyat va uning shu nomli poytaxti. Shahar Argʻandob bilan Tarnak daryosi orasida joylashgan.

Qarmatlar – ismoiliylar mazhabi shoxobchalaridan birining tarafdorlari, IX asrda Iroqning janubida paydo boʻlgan.

Qaro Samon – Oʻtror yaqinidagi mavze.

Qaro Xoja – Turfondan 20 km sharqroqdagi qasaba.

Qaronur – Surxon vohasidagi bir mavze.

Qarotol – Balxash koʻliga tushuvchi shu nomli daryochaning yuqori oqimidagi kent.

Qarshi – chigʻatoy xoni Koʻpakxon (1309, 1318–1326) tomonidan Qashqadaryo vohasida qadimgi Naxshab (Nasaf)dan 2,5 farsax (taxminan 15 km) masofada barpo qilgan qasr (qarshi – moʻgʻulchada «qasr» demakdir)

atrofida shakllangan shahar. Keyinchalik Naxshab vayron bo'lganidan so'ng vohaning bosh shahri bo'lib qoldi. Hozir Qashqadaryo viloyatining ma'muriy markazi.

Qavchin – nufuzli turkiy qabilalardan birining nomi.

Qayduxon – O'qday qoonning nabirasi, uning ulusi faqat Pomir-Oloy tog'li o'lkasi edi, u 1269–1301-yillar xonlik qilgan hisoblanadi. Lekin amalda uning mulki Chig'atoylarga qaram bo'lib qolgan edi.

Qaysar davlati – «Qaysar» so'zi aslida qadimgi Rim imperatori Sezar ismining arabcha talaffuzi. Uning bunday atalishiga sabab, u onasidan tabiiy yo'l bilan tug'ilmay, balki uning onasi o'lib qolganidan keyin qornini kesib (lotinchada: kesmoq – kasdo) olingan. Shuning uchun unga lotincha Kaesar, ya'ni «kesib olingan», degan ism berishgan. Bu ismning ruslardagi Sezar deb atalishi XVI asrdan keyingi yangi lotincha talaffuzga asoslangan. Sezar o'z zamonasining buyuk imperatori bo'lib ko'p shuhrat qozonganligi uchun undan keyingi Rim imperatorlari ham o'z nomlariga Kaesar qo'shimchasini qo'shganlar. Shu tariqa «kaesar» so'zi imperator ma'nosini anglatadigan bo'lib qolgan. Milodiy 395-yili Rim imperiyasi ikki qismga – Sharqiy va g'arbiyga bo'linganidan so'ng Sharqiy Rim imperiyasining poytaxti Konstantinopoldagi (hozirgi Istanbul) imperator ham o'zini Kaesar deb atagan. XIV asr oxiriga kelib Sharqiy Rim (Rum) imperiyasi Usmonli turklar tomonidan deyarli butunlay zabt etilgan edi. Sultonlar ham o'zlarini qadimgi Rimning vorisi deb, mamlakatlarini Rum va o'zlarini sharqonasiga Qaysar deb ataganlar. 1402-yili Amir Temur Boyazidni yengib asir qilganidan so'ng qaysarlik unga o'tdi. Hozirgi o'zbek tilida o'jar va bir so'zli odamni «qaysar» deyilishi shu odamda qadimgi Rim imperatorlari va Amir Temur fe'l-atvoriga o'xshatishdir.

Qiziltog' – Qarshidan shimoldagi tog'.

Qobilshoh – asli chingiziy shahzodalardan, darvishtabiat odam. 1370-yil boshida Amir Husayn va uning atrofidagilar uni Balxda xon qilib ko'tardilar. Lekin oradan to'rt oy o'tib, uni o'zlari taxtdan tushirib qatl etdilar.

Qochuli Bahodur, Qochuvli Bahodir – barlos qabilasi-ning birinchi boshlig‘i. Amir Temurning sakkizinchi ajdodi.

Qof – butun yer yuzini o‘rab olgan, deb xayol qilingan afsonaviy tog‘ nomi (afsonaviy anqo qushini ham shu tog‘da deyiladi).

Qora Yusuf Turkman – 1380–1468-yillari Iroq va Ozarbayjon ustidan hukm yuritgan Qora-qo‘yunlilar sulolasidan chiqqan oliy hukmdor (1388–1420). 1388–1389 y. Armaniston, Iroq va Janubiy Ozarbayjon sarhadlarida Amir Temur lashkari bilan janglar qilgan. U Sulton Ahmad Jaloyir bilan ittifoqdosh bo‘lgan. Lekin har ikkalalari ham yengilib, Sulton Boyazid Yildirimning qanoti ostiga qochib borganlar. Tabrizga faqat 1406-yil Temur vafotidan keyin qaytgan.

Qoraqurum – Chingizxon, O‘gaday qoon, Guyuk qoon va Mangu qoonning poytaxti, O‘rxun daryosi bo‘yida joylashgan shahar.

Qorochoq no‘yon – Chingizxonning nufuzli amirlaridan; Chig‘atoyning maslahatchisi va lashkarboshisi. No‘yon Chingizxon naslidan bo‘lgan xonzoda.

Qubbat ul-islom – islom qubbasi; Balx shaharining o‘rta asrlardagi faxriy nomi.

Qubulxon, Qobulxon – mo‘g‘ullarning Nirun toifasidan bo‘lgan hukmdori; Alanquva avlodi, Chingizxonning ajdodi.

Qumisha – Isfahondan janubda bo‘lgan o‘rta asrlardagi shahar. Qunduz – Afg‘onistonning shimolida shu nomli daryoning o‘ng sohilidagi shahar. O‘rta asrlarda Balx xonligiga qaragan.

Qunduzcha – Volganing o‘ng sohilida, hozirgi Samara bilan Chistopol o‘rtasida joylashgan mavze.

Qusam ibn al-Abbos – Muhammad payg‘ambar alayhissalomning amakivachchasi. U 676-yili Islom lashkari bilan g‘azot qilib Samarqandga kelganda qal‘a devoridan bir odam uning boshiga tosh tashlab o‘ldirgan. So‘ng u o‘lgan yerida ko‘milgan. Keyinchalik bu yerda Shohi Zinda ansambli shakllangan.

Qustantiya – Konstantinopol shahri.

Qutluq Turkon og‘o – Amir Temurning opasi undan besh yosh katta bo‘lib, nihoyatda dono va zakovatli ayol bo‘lgan. Amir Temur barpo etgan ko‘p binolar ana shu ayolning maslahati bilan ishlangan.

Qo‘zi cho‘li – Qarshi yaqinidagi cho‘l.

Raboti Malik – Karmana cho‘lida Harjang qishlog‘i yaqinida Qoraxoniylardan xon Shamsulmulk tomonidan 1078–1079-yil qurilgan rabot.

Ray – Eronning shimolidagi qadimgi shaharlardan. Unga miloddan avval 300-nchi yil atrofida Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) ning safdoshi Selevk Nikator qal‘a sifatida asos solgan va yunoncha nom bilan Rayga aylangan. O‘rta asrlarda u yirik shahar bo‘lgan. XVII asrdan Tehronning ahamiyati osha borib, Rayning mavqeyi yo‘qola borgan. Hozir u Tehronning sharqidagi bir mahallasi.

Rustam – Firdavsiy «Shohnoma»sidagi afsonaviy qahramon.

Sabron – o‘rta asrlarda Sirdaryoning o‘ng sohilidagi Turkistondan keyingi yirik shahar, hozir Savron qishlog‘i.

Sabuk Tegin Nasiruddavla – Somoniylarning 977–987-yillardagi Xurosondagi noibi, G‘aznaviylar saltanatiga asos solgan. Sulton Mahmud G‘aznaviyning otasi; asli Buxoro turklaridan bo‘lgan.

Sabzavor – Xurosonning shimolida Mashhaddan 300 km g‘arbda joylashgan shahar, Bayhaq nohiyasiga kiradi. XIV asrning 30-yillarida bu shaharda shia mazhabidagi fidoiylarning harakati yuzaga keladi. Ular shu qadar mutaassib dindorlar ediki, hatto dorga osilishga tayyor edilar va shuning uchun «sarbador» (ya‘ni «boshni dorga») deb ataganlar. Ular 1337–1381-yillar Sabzavor va uning atrofida sarbadorlar davlati va sulolasiga asos solib, hukm surdilar. Shayx Hasan Juvayniy va Vajihuddin Mas‘ud – sarbadorlarning sardorlari. Ko‘p o‘tmay Xuroson sarbadorlari ta‘siri ostida Samarqandda ham sarbadorlar harakati yuzaga keladi.

Sadriddin Ardabiliy – Amir Temur davridagi soʻfiy shayxlardan. Said Muhammad Alixon – Qoʻqon xonligi-ning xoni (1822–1841, noyabr). Oʻz ukasi Sulton Mahmud foydasiga taxtdan voz kechishga majbur boʻlgan. 1842-yil bahorida Buxoro amiri Nasrullo Qoʻqonni bosib olib, Sulton Mahmudxon, Muhammad Ali, ularning onasi shoira Nodirabegim va boshqalarni qatl etgan.

Saripul – Afgʻonistonning shimolida Mozori Sharifdan gʻarbroqdagi shaharcha.

Sayfuddinbek – moʻgʻullarning nikudar urugʻidan edi; turklashish bilan birga, urugʻning nomi ham oʻzgarib nukuz boʻlgan.

Sayhun – Sirdaryo.

Sayram – Toshkentdan 130 km shimoli-sharqdagi shahar, qadimgi Isfijob nomi bilan maʼlum boʻlgan.

Sayyid Baraka – Amir Temurning bosh piri, gʻoyaviy rahbari. Amir Temurning vasiyatiga koʻra uning jasadi Goʻri Amirda Sayyid Baraka qabrining oyoq tarafiga qoʻyilgan.

Sayyid Sharif Jurjoni (1340–1413, boshqa maʼlumotga qaraganda 1330–1414) – mashhur faylasuf, olim va mutafakkir. Toʻliq nomi Zaynuddin Abul Hasan Ali ibn Muhammad as-Sayyid ash-Sharif Jurjoni. Jurjon (Gurgon)da tugʻilib, Hirot, Kermon va Misrda oʻqigan. 1387-yili Amir Temur uni Samarqandga olib kelgan va u ulugʻ amirning «Dorushshifo»sida dars bergan va sohibqironning vafotigacha Samarqandda yashagan. 1405-yili Sherozga kelgan va shu yerda vafot etgan.

Semnon – Tehrondan 200 km sharqdagi shahar.

Sepoya – Xorazmning oʻrta asrlardagi kenti. Amudaryoning chap sohilida Hazorasp bilan Dargʻon ota oraligʻida boʻlgan.

Siyiston – oʻrta asrlarda Eronning janubidagi oʻlka, bosh shahri Zaranj boʻlgan. Avvallari saklar mamlakati boʻlgan. 1756-yili Afgʻoniston davlatiga asos solinganidan soʻng oʻlkaning shimoli-sharqiy qismi bosh shahri bilan Afgʻoniston tarkibiga kirdi.

Sivas (Sivos) – Kichik Osiyoning yirik qal’a-shaharlaridan; qal’asi o’ta mustahkam bo’lgan. Sultoniya–Tabriz – Qo’niyo yo’li ustida. Qizil irmoq daryosi havzasi-da joylashgan o’rta asr shahari (hozir Turkiyada).

Soli Saroy – Amudaryo bo’yida Termizdan yuqoriroqdagi shaharcha. Mo’g’ullarning Movarounnahrdaqi qarorgohlaridan biri bo’lgan. U 1220–1221-yil qishini Chingizxon shu yerda o’tkazgani natijasida yuzaga kelgan. Hozirgi Surxondaryo viloyatining Saroy degan qishlog’i.

Sovrun – o’rta asrlarda podshoh va xonlar, umuman oliy martabali kishilar bilan uchrashganda ularga qilinadigan tansiq mollardan iborat qimmatbaho tortiq.

Sulduz – nufuzli mo’g’ul qavmlaridan birining nomi. Turklarning sulduz urug’i Markaziy Osiyoga mo’g’ullar bilan kelib, Termizdan sharqroqda Amudaryoning ikki sohili bo’ylab o’rnashib ko’chib yurgan va o’zbeklarning tarkibiga kirgan. Masalan, Bayon Sulduzbek shu urug’ning eng yirik amiri.

Sulton Ahmad Jaloyir – 1382–1410-yillarda Iroq, Kurdiston va Ozarbayjonda hukmronlik qilgan.

Sulton G’iyosiddin – so’ngi kart maliki Sulton G’iyosiddin Pir Ali (1373– 1381).

Sulton Husayn – Amir Temurning qizi Og’a (Aka) begimdan bo’lgan nabirasi. 1406-yili Nushirvon Barlos tarafidan Zubayda bog’ida qatl etilgan.

Sulton Mahmudshoh – shimoliy Hindistonni 1320–1414-yillari idora qilgan Tug’luqiylar sulolasidan chiqqan podshoh Sulton Nosiriddin Mahmudshoh (1393–1413, boshqa ma’lumotlarga qaraganda 1393–1399-yillari boshqargan).

Sulton Mahmudxon – Chig’atoy ulusining Temur davridagi ikkinchi hukmdori (1388–1402). Birinchi hukmdori Suyurg’atmishxon (1370–1388).

Sulton Sanjar Ibn Malikshoh – 1038–1194-yillari Eron bilan Iroqni idora qilgan saljuqiylar sulolasidan bo’lgan podshoh (1118–1157).

Sultoniya – Eronning shimoliy g’arbida Tehron Tabriz

yo'lidagi shahar. Unga XIII asrda Elxon Arg'un davrida asos solinib XIV asr boshida Sulton O'ljaytu davrida qurilishi tugatilgan va shuning uchun Sultoniya deb atalgan. O'ljaytu Eronning poytaxtini shu shaharga ko'chirgan va u Amir Temur davrigacha poytaxt bo'lib turgan.

Tabriz – VIII asr oxirida xalifa Horun ar-Rashidning (786–809) xotini Zubayda Xotun tomonidan Tabrizga asos solingan. Avvaliga u uzoq muddat kichik shahar bo'lib turdi va XIII asrda mo'g'ullar davrida Eronning poytaxti bo'lib, ulkan shaharga aylandi. Amir Temur davrida u faqat Ozarbayjonning poytaxti edi.

Tahurtan – Arzinjonning mustaqil amiri. Amir Temur bu yerga kelganiga qadar u sulton Boyazid Yildirimning kelishidan qo'rqib turardi, chunki agar u Arzinjonga kelsa, Tahurtanning mulkini butunlay olib qo'yishi mumkin edi. Shuning uchun bu ziyrak arbob 1387-yili Amir Temurga o'z xohishi bilan bo'ysunub, mulkini saqlab qoldi. Amir Temurga ham mulkning chegarasida sodiq mahalliy amirning Arzinjonda bo'lishi nihoyatda qulay va maqsadga muvofiq edi.

Takina Xotun – Amir Temurning onasi. Amir Tarag'ayning bundan boshqa tag'in bir xotini, Qadoq Xotun bo'lgan.

Talliqon – Afg'onistonning shimolidagi nohiya va shahar. O'tmishda Tohariston davlatining poytaxti. O'rta asrlarda yana ikkita Talliqon mavjud bo'lgan: ulardan biri – Hirot dan g'arbroqda, ikkinchisi – Kaspiydan janubi-g'arbda joylashgan edi.

Tarmashirin – Chig'atoy ulusidagi 19-nci mo'g'ul xoni, Islomni qabul qilgan Alovuddin Tarmashirin (hindcha «dharmashila»), ya'ni «qonunga amal qiluvchi» iborasidan olingan) nazarda tutiladi. U 1326–1334-yillar hukm surgan.

Temir Kapug' va Qahlaga – Surxon vohasida Termizdan uch kunlik masofadagi dara. Hozir u yerda Darband shahri joylashgan.

Temuchin – Chingizxon.

Temur Malik O'g'lon – O'rusxonning to'rt o'g'lidan tirik qolgan oxirgisi, u Oltin O'rdada 1376-yil oxiridan 1378-yilgacha xonlik qilgan.

Temurshoh O'g'lon – Movarounnahrda Chig'atoy sulolasidan 27-nchi xon, 1359–1361-yillar hukm surgan. Ovrupo manbalarida u Shoh Temur nomi bilan yuritiladi.

Termiz daryosi – Amudaryoning o'rta asrlardagi nomlaridan.

Tira – g'arbiy Anatoliyada Kichik Menderes daryosidan janubdagi shahar.

Toi' Billoh – abbosiylar xalifalaridan (974–991).

Toshkand sahrosi – bir tarafdin hozirgi Bo'ka, Alimkent, Oqqo'rg'on va ikkinchi tarafdin Sirdaryo orasidagi qumloq cho'llarni nazarda tutilgan.

Totkand – o'rta asrlarda Samarqand g'arbidagi shu nomli shaharcha va viloyat, hozir Samarqanddan 25 km cha g'arbdagi shu nomli qishloq.

Tug'luq Timurxon, To'qluq Timurxon – Chingizxon avlodi. Mo'g'iliiston xoni (1348–1362). Chig'atoy ulusining 28-nchi mustaqil xoni. Mo'g'iliiston yoki Jeta – Chig'atoy ulusi parchalanish natijasida uning Movarounnahrda sharqdagi qismi, ya'ni Sharqiy Turkiston va Yettisuv yerlarini o'z ichiga olgan davlat. Xon 1360–1361-yillar bahorida Movarounnahrda ikki marta yurish qilib, Qashqadaryo vohasigacha yetgan. 1362-yili vafot etgan.

Tumanayxon – Chingiz ajdodlaridan biri.

Turkiston – Sirdaryodan Qashg'argacha bo'lgan yerlar nazarda tutiladi.

Turshiz – Xuroson o'lkasida Nishopur viloyatiga kiruvchi Pusht nohiyasining bosh shahri bo'lgan. Hozir uning nomi Turbati Haydariya.

Tus – hozirgi Mashhaddan 25 km shimolda Kashafrud daryosi bo'yida joylashgan qadimgi shahar; 809-yili mashhur xalifa Horun ar-Rashid shu yerda o'lgan va dafn etilgan. Tus Chingizxonning o'g'li To'luy tomonidan vayron qilinib yana tiklangan.

Tustar – o'rta asrlarda Xurosondagi yirik shahar, Ahvozda shimolda.

Hozir Shushter deb ataladi.

To'xtamishxon (To'qtamish O'g'lon) – Oq O'rdaning o'zbek amiri, Jo'chi avlodi, To'y Xoja O'g'lonning o'g'li. Ma'lumki, Chingizxonning katta o'g'li Jo'chi 1227-yili o'lgandan so'ng buning kichik o'g'li Botuxon otasining mulki bo'lmish Dashti Qipchoq va Sharqiy Ovruponi Jo'chi ulusi deb atalmish mulkka birlashtiradi va o'ziga Volga bo'yida poytaxt qilib Saroyi tanlaydi. Mo'g'ullarning o'zi bu ulusni ko'proq Ko'k O'rda deb atagan. Lekin u bilan bir vaqtning o'zida g'arbiy Sibirda undan bir yosh katta bo'lgan akasi Oq O'rdaga asos soladi. Bu O'rdaning poytaxti avvaliga g'arbiy Sibirdagi Tura shahrida bo'lib, keyinchalik Sirdaryo bo'yidagi Sig'noqqa ko'chiriladi. Avvaliga xon faqat Ko'k O'rdada Saroyda bo'lib, Oq O'rdani amirlargina boshqarardi. Lekin keyinchalik Oq O'rdada ham Jo'chining katta o'g'li O'rdning avlodlaridan xonlar boshqara boshlaydi. Ko'k O'rda xoni O'zbekxon (1312–1342) davrida ikkala O'rda birlashtirilib, yuksak qudratga erishadi. Bu birlashgan o'rda Ovrupoda Oltin O'rda nomi bilan mashhur bo'ladi. O'zbekxonning davrida uning ko'proq Jo'chi urug'iga mansub bo'lgan saralangan navkarlari Oq O'rdada ham xizmat qiladi. Ular bu yerda «o'zbekiylar», ya'ni «O'zbekxonning odamlari» deb taniladi. Keyinroq ular to'g'ridan-to'g'ri o'zbek deb aytilaveradi. To'xtamishning otasi To'y Xoja O'g'lon ana shu o'zbeklardan bo'lib, Mang'ishloqning amiri edi. U o'zbeklardan chiqqan Oltin O'rda xoni O'rusxonga (1361–1376) qarshi chiqqani uchun qatl qilinadi. To'qtamish (yoki To'xtamish) otasi qasosini olish uchun O'rusxon bilan kurashadi va yengilib, 1376-yili Amir Temur huzuriga panoht izlab qochib kelishga majbur bo'lgan edi.

Uljaytu Sulton (1304–1317) – Elxoniylardan. Musulmon bo'lgani uchun Sulton Muhammad Xudobanda nomi bilan tanilgan.

Ulug' Maydon – Keshdan janubdagi cho'l.

Umar Ibn Abdulaziz – umaviya sulolasi (661–750)ga mansub sakkizinchi xalifa (712–720).

«Uufuu bi ahdiykum» – Ahdiga vafo qiladilar.

Vosit – oʻrta asrlarda Iroqning janubida shu nomli shahar va viloyat. Shaharning xarobalari as-Saʼdiya koʻlining gʻarbiy sohilidan 10 km cha masofada.

Xabushon – Ashxoboddan janubdagi Xuroson shahri, hozirgi nomi Kuchon.

Xalab – Shom (Suriya)ning shimolida joylashgan qadimiy shahar (milod. av. 20-asrdan maʼlum), Aleppo nomi bilan mashhur.

Xalifa Muti – abbosiy xalifalaridan (946–974).

Xevaq – hozirgi Xeva.

Xisori Shodmon – shu nomdagi viloyat markazi; qadimgi nomi Shumon (asosan hozirgi Hisor vodiysi).

Xizr Xoja – 1396–1398-yillar Jeta (Moʻgʻuliston) xoni edi.

Xizr Yasuriy (Yasuriy) – nufuzli Chigʻatoy amirlaridan, Samarqand viloyatidagi yasuriylar urugʻining begi.

Xoja Barlos – Hoji Barlos ibn Nurali ibn Namula ibn Yasu Munka ibn Qorachar Noʻyon Movarounnahrning XIV asr ikkinchi yarmidagi yirik amirlaridan. Amir Temur kabi barlos qabilasidan edi va uning amakisi boʻlib, avvaliga unga raqib, keyinchalik esa u Amir Temurning dushmani.

Xoja Shams – Amir Temurning pirlaridan biri boʻlgan.

Xoja Tarxon – hozirgi Astraxan. Toʻxtamishning yirik iqtisodiy tayanchlaridan biri edi. Shuning uchun ham Amir Temur Toʻxtamishning qudratini sindirish uchun bu shaharni buzishga qaror qildi.

Xotam – saxovat va saxiyligi bilan dong taratgan mashhur arab, u Arabiston yarimorolining shimolidagi Toy qabilasidan boʻlgani uchun Xotam Toyi deyilgan. Saxiyligi shu darajada boʻlganki, mehmon uchun oxirgi tuyasini soʻygan.

Xulm – Afgʻonistonning shimoliy qismidagi shahar; hozir shu nomdagi shaharcha, shimol-janub va sharq-gʻarb yoʻnalishdagi xalqaro savdo yoʻllari chorrahasida joylashgan.

Xumis (qadimgi Emessa) – Osi (Orient) daryosi bo'yida joylashgan va Shomga qarashli qadimiy shahar.

Xuroson – Xuroson geografik tushunchasi turli davrlarda o'zgarib turgan. Ilk o'rta asrlarda Xuroson (qadimgi forschada – «sharqiy yer» demakdir) tarkibiga Eronning Koshon shahridan sharq va shimoli-sharqdagi yerlar. Turkmanistonning Darg'on ota paralleligacha bo'lgan qismi, Shimoli-g'arbiy Afg'oniston yerlari kirgan. X asrda Somoniylar davlatini Xuroson davlati deyilgan. Holbuki, bu davlat tarkibiga hozirgi Eron va Afg'oniston yerlari va deyarli butun Movarounnahr kirgan. Amir Temur davrida bu tushuncha bilan asosan hozirgi Eronning shu nomli ostoni va Afg'onistonning shimoli-sharqini qamragan.

Xurramobod – Luristondagi shahar. Bo'rjirdan janubi-g'arbda.

Xusrav Parviz – sasoniylar sulolasiga mansub podshoh (581–628).

Xuttalon – Vaxsh va Panj daryolari oralig'idagi tarixiy o'lka, eng yirik shahri Munk bo'lgan. Lekin Xuttalon amirining qarorgohi Xulbuk shahrida bo'lgan. XVI asrdan boshlab Ko'lob deb atalgan. Bu shahar o'rniida hozir Ko'lobdan janubroqdagi Xulbog' qishlog'i joylashgan. Nomi qadimgi arab va fors manbalarda Xuttal yoki Xuttalon shakllarida yozilgan.

Xuziston – Eronning janubi-g'arbidagi viloyat, poytaxti Ahvoz.

Xuzor – Qashqadaryo vohasidagi qadimgi shahar, hozirgi tuman markazi G'uzor.

Xo'jand – O'rta Osiyodagi eng qadimgi shaharlaridan biri. Uni Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) miloddan avval 328-yili saklarga qarshi qal'a sifatida barpo qilgan deb hisoblanadi. Hozirgi Tojikistonning Xo'jand viloyati markazi.

Xo'jand daryosi, Xo'jand suvi – Sirdaryo e'tiborga olingan. Sirdaryoning o'rta asrlardagi nomlaridan.

Yabg'u sahrosi – hozirgi Turkmanistonning janubida Saraxs bilan Toshko'prik oralig'idagi sahro.

Yassi Dabon – Farg‘ona vodiysining boshlanish yerida sharqidagi tog‘ dovoni.

Yasun Temurxon – Chig‘atoy ulusida 22-xon.

Yasur O‘g‘lon – Chig‘atoy avlodlaridan.

Yazdon – xudo, tangri.

Zanjir Saroy – mo‘g‘ul xoni Qazonxon tomonidan Qarshidan 50 km g‘arbda qurilgan saroy va uning atrofida yuzaga kelgan mavze.

Zaynuddin Abu Bakr Toybodiy (1389-yili 28-yanvarda vafot etgan) – Mashhur shayx, ulug‘ shayxulislom asli Hirotning Toybod qishlog‘idan. Amir Temurning pirlaridan biri.

Zovuliston (Zobuliston) – Afg‘onistonda bosh shahri Qalot bo‘lgan viloyat.

O‘ljay Bug‘a Sulduz – sulduzlar urug‘ining ikkinchi yirik amiri.

O‘ljay Turkon og‘o – Amir Qazag‘anning nabirasi va Husaynbekning singlisi bo‘lib, Amir Temurning ikkinchi xotini va Jahongir Mirzoning onasi edi. Amir Temurning birinchi xotini Turmish og‘o Joku Barlosning qizi bo‘lib, Umarshayxning onasi edi. O‘ljay Turkon og‘oning o‘limi 1366-yil yozda yuz bergan edi.

O‘ljaytu Sulton (1304–1317) – elxoniylardan. Musulmon bo‘lgani uchun Sulton Muhammad Xudobandi nomi bilan tanilgan.

O‘rusxon – Jo‘chi naslidan bo‘lgan Oq O‘rda xoni (1361–1376). U har ikkala o‘rda: Oltin O‘rda va Oq O‘rdani birlashtirish uchun ko‘p kurashdi, lekin bunga erisha olmadi.

O‘tror – turklarning Sirdaryo bo‘yidagi yirik shahri, shu nomli daryoning Sirdaryoga quyilish joyida uning o‘ng sohilida bo‘lgan. Qadimda Turarband deyilgan.

G‘azna – Kobulning janubida, Qandahor orqali Lohur va Shimoliy Hindistonning boshqa shaharlariga olib boradigan yo‘l ustida joylashgan poytaxt shahar.

G‘azonxon ibn Argunxon ibn Halokuxon – 1256–1353-yillarda Eron, Ozarboyjon va Iroqni idora qilgan va tarixda Elxoniylar nomi bilan mashhur bo‘l-

gan mo'g'ul sulolasi namoyondasi. U 1295–1304-yillari saltanat qurgan; islom dinini qabul qilib, qator ijtimoiy-siyosiy islohotlar o'tkazgan.

Gard ko'h – Ray shahridan sharqroqda tog'dagi qal'a.

Gilon (Jilon) – Kaspiy dengizining janubi-g'arbidagi viloyat; ipak mollari bilan mashhur bo'lgan.

Shahriyor – Ro'yon o'lkasida Tehrondan g'arbroqdagi mavze. Shahrizur – Iroqda Sirvon daryosining irmog'i Tanjaro bo'yidagi o'rta asrlardagi shahar. Hozir uning o'rni suv omborining ostida qolgan. Shakarbeka – Oq Sufiyning xotini Shakarbeka Oltin O'rda xoni G'iyosiddin Muhammad O'zbekning (1312–1342) qizi edi. Bu esa so'fiylarning O'rda xonlari bilan qattiq bog'liqligini ko'rsatadi. Oq so'fiyning qizi Sevinbeka onasi tarafidan xonzoda edi. Amir Temur 1374-yili to'ng'ich o'g'li Jahongir Mirzoni Sevinbekaga uylantiradi. Bu nikohdan Muhammad Sulton tug'iladi. Bu esa 1403-yili 29 yoshda vafot etadi. Biroq bundan ancha avval, 1376-yili Jahongir Mirzo o'lganidan so'ng Xonzodaga Mironshoh Mirzo uylanadi va bu nikohdan 1384-yili Xalil Sulton tug'iladi.

Shamoha – Shimoliy Ozarbayjon Sumgaitdan 100 km cha g'arbdagi shahar.

Shanbi G'ozon – XIII asr oxirida Tabriz yaqinida Eronning mo'g'ul xoni G'azonxon (1295–1304) tomonidan barpo qilingan shaharcha. G'azonxonning maqbarasi shu shaharchadadir.

Shayx Ali Jarjariy – Termiz bekларidan biri. Amir Temur faoliyatining boshlanishida raqibi bo'lgan.

Shayx Ibrohim Hamaviy – xurosonlik yirik shayx Sadriddin Ibrohim. Shayx Sadruddin Ardabiliy – Amir Temur davridagi so'fiy shayxlaridan.

Shayx Sayfuddin Boxarziy – islomda tasavvuf oqimining eng yirik namoyandalaridan, asli Hirot yaqinidagi Boxara qishlog'idan bo'lgan. Tug'ilgan yili aniq ma'lum emas, lekin XII asrning oxirgi choragiga to'g'ri keladi.

Hayotining asosiy qismini Movarounnahrda va ko'proq Buxoroda o'tkazgan, shahardagi Xoniya madrasasining

mudarrisi va mutavalliysi bo'lgan. 1261-yil 20 oktyabrida vafot etgan va Buxoroda dafn etilgan. Mozori va xonaqosi hozirgi kungacha saqlangan.

Shayx Yassaviy (Xoja Ahmad Yassaviy) – (XI asr) turkiy xalqlardan chiqqan mashhur shoir va diniy arbob. Uning qabri hozirgi Turkiston shahridadir.

Shayx Zaynuddin Abu Bakr Toyyibodiy (Toybodiy, Toyobodiy) – Amir Temurning pirlaridan biri. Asli Hirot yaqinidagi Toyobod qishlog'idan edi. Xurosonlik yirik shayx va shayxulislom.

Sheki – Ozarbayjonning shimolida Mingechaurdan 50 km masofadagi shahar; Amir Temur davrida poytaxti shu shahar bo'lgan viloyat alohida beklik bo'lgan.

Sher Bahrom – Xuttalon amiri.

Sheroz – Fors viloyatining markaziy shahri.

Shibirg'on – Xurosonning shimoli-sharqidagi qadimgi shahar. Chig'atoy ulusiga qaram bo'lgan. Hozir u Afg'onistonning shimoli-g'arbida. Asosiy aholisi o'zbeklar. Shahar Eronning Sosoniylar sulolasidan shahanshoi Shopur I (241–272) tomonidan qal'a sifatida barpo qilingan va uning nomi bilan Shopurakan («Shopurning shahri») deb atalgan, keyinchalik bu nom hozirgi shaklini olgan.

Shibirg'onot viloyati – Balxning g'arbiy tarafida joylashgan viloyat.

Shirinbeka og'o – Amir Temurning singlisi.

Shirkent – hozirgi Beshkent, Qarshi tumanining markazi.

Shirvon – o'rta asrlarda Kura daryosi bilan Kaspiy oralig'idagi alohida o'lka, uning hokimlari Shirvonshohlar bo'lgan.

Shodiyon tog'i – Mozori Sharif janubidagi tog'.

Shoh Mansur – muzaffariylar sulolasidan, 1387–1393-yillari Fors bilan Iroqi Ajamni idora qilgan hukmdor. 1393-yil 26 aprelda urushda halok bo'lgan.

Shohrux – Amir Temurning kenja o'g'li (1377–1447), 1405-yildan Xuroson noibi, 1409–1447-yillarda Temuriylar saltanatining oliy hukmdori.

Shosh – Toshkentning avvalgi nomi.

Shurob qudug'i – Chorjo'y bilan Marv oralig'idagi quduq.

Chakchak – Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari-ning tutash yeridagi hozirgi Chakchak mavzeining o'rta asrlardagi nomi.

Chakchak darasi – Boysun tog'ida joylashgan. Chakchak tizmasining janubiy etagida joylashgan mavze, hozirgi nomi Chakdara (Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumani hududida).

Chekdalik – Shahrisabzdan janubdagi daryocha, hozirgi nomi Kichik Ura daryo.

Chig'atoy ulusi – Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxon (1227–1241) tarafidan tuzilgan feodal davlat. Uning tarkibiga Yettisuv o'lkasi, Sharqiy Turkiston (Koshg'ar), Ili vohasi, Movarounnahr, Xorazmning sharqiy-janubiy qismi va Amudaryoning so'l sohilidagi yerlar (to Hinduqush tog'iga qadar bo'lgan yerlar) qaragan.

Chig'atoyxon – Chingizxonning ikkinchi o'g'li va uning o'limidan avval 1227-yili qilgan vasiyatiga ko'ra Chig'atoyga ulus sifatida butun Markaziy Osiyo Sharqiy Turkistongacha va hozirgi Afg'oniston yerlari tekkan. U 1227–1241-yillar xonlik qilgan.

Chin-u Mochin – Chin – Xitoyning markaziy va sharqiy qismi; Mochin – Janubiy Xitoy. Mochinning boshqa nomi Tabg'ach.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Islom Karimov. Milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namunasi. / Temur tuzuklari. T.: «O'zbekiston», 2013.

Amir Temur Ko'ragon. Tuzuki Temuriy. T.: 1999. So'z boshi, tabdil, lug'at va izoh mualliflari H. Bobobekov, H. Boboyev, A. Quronbekov.

Amir Temur Ko'ragon. Qissayi Temur («Malfuzoti Temuriy»). T.: 2000. (So'z boshi, tabdil, lug'at va izoh mualliflari H. Bobobekov, H. Boboyev, A. Quronbekov).

Amir Temur Ko'ragon. Zafarnoma. T.: 2000. (So'z boshi, tabdil, lug'at va izoh mualliflari H. Bobobekov, H. Boboyev, A. Quronbekov).

Temur tuzuklari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. (A. Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimalari. B. Ahmedov tahriri ostida.)

Temur tuzuklari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. (A. Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimalari. O'zbek, ingliz va fransuz tillarida. So'z boshi va izohlar, umumiy tahrir B. Ahmedovniki. Ingliz tiliga M. Devi tarjimasi. Fransuz tiliga L. Langle tarjimasi).

Temur tuzuklari. – T.: «O'zbekiston», 2013. (A. Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimalari. Mas'ul muharrir Ashraf Ahmedov. Taqrizchi Omonulla Bo'riyev.)

Temur tuzuklari. – T.: 2013. (A. Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimalari).

«Amir Temur va uning jahon tarixidagi o'rni» mavzuidagi xalqaro konferensiya tezislari». – T.: 1996. (Mualliflar guruhi. O'zbek, rus va ingliz tillarida chop etilgan.)

Уложение Темура. – T.: 1999. (Tarjimon Hamidulla Karomatov).

Amir Temur va vatanparvarlik tarbiyasi. – T.: 1997.

Mualliflar guruhi. (Nashrga tayyorlovchi H.N.Bobobekov.)

H. Dadaboyev. Amir Temurning harbiy mahorati. – T.: 1996.

Dastur ul-amal. – T.: 2000. (Soʻz boshi, tabdil, lugʻat va izoh mualliflari H. Bo bobekov, H. Boboyev, A.Quronbekov).

Ibrohimov Husan. Sohibqironni anglash. – T.: «Fan va texnologiya», 2013.

Muhammadjonov A., Rajabov Q. Amir Temur. – T.: «Oʻzbekiston», 2013.

Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – T.: 1996. Tarjimonlar, izoh va lugʻat tuzuvchilari hamda nashrga tayyorlovchilar Y. Hakimjonov, A. Oʻrinboev, H. Karomatov, O. Boʻriyev.

Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T.: 1997. Tarjimon Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al-Buxoriy, 1519. (Soʻz boshi, tabdil, izohlar va koʻrsatkichlar mualliflari Ashraf Ahmad va Haydarbek Bobobekov.)

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
Avvalgi fasl kengashlar va tadbirlar bayoni	23
Tugʻluq Temurxonni koʻrishda koʻnglim sharqidan koʻtarilgan avvalgi kengash	26
Ikkinchi kengashni podshohlik maqomida qildim	28
Oʻz podshohligimni tiklashda amalga oshirgan uchinchi kengashim	30
Toʻrtinchi kengashni saltanatim boshlarida qildim	31
Oʻzimcha [beshinchi] kengash qilib, Boxtar zamin va Qandahor tarafiga ravona boʻldim	33
Oltinchi kengashni podshohlik mansabiga koʻtarilishim chogʻida qildim	34
Yettinchi kengashni taxtga chiqish ayyomida qildim	36
Sakkizinchi kengashni jeta lashkariga zarba berishda qildim	37
Toʻqqizichi kengashni podshohligimni tiklashda qildim	38
Oʻninchi kengashni podshohligimni mustahkamlashda qildim	39
Oʻn birinchi kengashni saltanatim rivojida qildim	40
Oʻn ikkinchi kengashni lashkarimni birlashtirish bobida qildim	41
Oʻn uchinchi kengashni jeta va Ilyosxojaning lashkari ustidan gʻalaba qilishda amalga oshirdim	42
Undan soʻng saltanatim istiqlolida kengash qildim	44
Men Qarshi qalʼasini olish kengashini mundoq qildim ...	46
Uning makr-u hiylasidin xalos boʻlishga mundoq kengash qildim	48
Turon zaminni oʻzbek toifasining oʻlmay qolganidan pok etmakda qilgan kengashim	49
Uni [Amir Husaynni] yoʻq qilmoq kengashini mundoq qildim	50
Ularni el etmakda mundoq kengash qildim	51
Xuroson mintaqasini egallashda qilgan kengashim	51

Siyiston, Qandahor va Afg'oniston mulkini qo'lga kiritishda qilgan kengashim	52
O'rusxonni yo'q etish va Dashti qipchoqni qo'lga kiritmoq uchun qilgan kengashim	52
Gilon, Jurjon, Mozandaron, Ozarbayjon, Shirvon, Fors va Iroq mulkini egallashda qilgan kengashim	53
Fors va Iroq mulkini egallashda qilgan kengashim	54
To'qtamishxonni tor-mor keltirishda qilgan kengashim	54
Poytaxt shahri Bag'dodni va Arab Iroqini egallashda qilgan kengashim	55
To'qtamishxonni yo'q etmoq uchun qilgan kengashim	56
Hindustonni qo'lga kiritishda qilgan kengashim	56
Hindustonga lashkar tayin etmak kengashini shunday qildim	58
Hinduston yo'lini afg'onlardan pok etarda mundoq kengash qildim	58
Dehli hokimi Sulton Mahmud va Malluxonning qulatishda qilgan kengashim	59
Gurjiston mulkini egallashda qilgan kengashim	59
Misr va Shomni ishg'ol etishda shunday qaror qildim	61
Rum yurtini egallashda va qaysarga zarba berishda qilgan kengashim	62
Ikkinchi maqola	63
Din rivoji tuzukini mundoq qildim	69
Saltanatimni saqlamoq tuzukini bu yo'sunda qildim	73
Fasl. Turk va tojik va ajamdin dargohimga panoh tortib kelgan toifalarga shunday tuzuk qildim	77
Fasl. Saltanatim istiqloli tuzukini bunday qildim	78
Lashkar saqlamoqning tuzuki	81
Fasl. Lashkar ulufasi qarorining tuzuki	81
Fasl. Lashkarga maosh yetkazmoqning tuzuki	82
Fasl. Farzand va nabiralar maoshi martabalarida amr etdim	84
Fasl. Farzand va oila ahli va qarindoshlar va amir va	

vazirlarga siyosat qilmoq bobida amr etdim	84
Vazirlar bobidakim, davlat silsilasining ishonchli odamlari va mo‘tabarlaridurlar, amr etdim	85
Fasl. Vazir saqlamoqning tuzuki	87
Amirlik va voliylik martabasining tuzuki	91
Amirlar va vazirlar va sipoh va aholiga in’om bilan tarbiyat qilmoqning tuzuki	94
Nog‘ora va bayroq bermakning tuzuki	97
Sipoh saranjomining tuzuki	97
Bazm majlislari va jang ma’rakalarining tuzuk va nizomining tahriri	98
Vazirlar xizmatining tuzuki	99
Ulus va qo‘shin, tumanlar amirlari va voliylarining tuzuki	100
Navkar suluki va navkar egasi maoshining tuzuki	101
Do‘st va dushman bilan suluk va maosh etmak	104
Yig‘inlarda joy egallash tuzuki	105
Mulk olmoqning tuzuki	106
Mulkdorlikning tuzuki	109
Mamlakat va raiyat va sipoh ahvalidin ogohlik va xabardorlikning tuzuki	110
Har shahar-qishloq ahllarining o‘zaro munosabati va yashash tarzi va avliyo mozoroti va ulug‘larining vaqflari va nazr-niyozlarini tartibga solish tuzuki	112
Aholidan mol va xiroj yig‘imi va mulk obodligi va mamlakatni boshqarish va posbonligi tartibining tuzuki	112
Urushga kirmoq va chiqmoq va safga tuzish va qo‘shinlarga zarba berish tuzuki	115
Qo‘shinlarning tuzuki	116
Va qo‘shinni safga tizish tartibini shunday belgiladim ..	117
Hirovulning o‘n to‘rt bo‘linmasini saflamoq tartibi	119
Tamg‘oga yetkazilgan o‘n ikki o‘ymoq lashkaridan qirq bo‘linmani safga tizish tartibi	122
Ilova	124
Foydalanilgan adabiyotlar	155

Amir Temur Ko‘ragon

TEMUR TUZUKLARI

Muharrir:	<i>O.Qanayev</i>
Dizayner:	<i>R.Tashmatov</i>
Musahhih:	<i>M.Xoliqova</i>
Sahifalovchi:	<i>G.Kurbanbaeva</i>

Nashriyot litsenziyasi: AI №270

Bosishga 26.04.2019 yilda berildi. Qog‘oz bichimi 84x108 1/16

“Virtec Times UZ” garniturasida ofset usulda bosildi.

Nashr bosma tabog‘i 10,0 Adadi 3000 Buyurtma №45

“IJOD-PRESS” nashriyotida nashrga tayyorlandi.

“Dizayn-Print” MCHJ O‘ICHK bosmaxonasida chop etildi.

100054. Toshkent shahri, Cho‘pon ota ko‘chasi, 28-a uy.

Telefon: (371) 273-19-51

Faks: (371) 273-19-50

Email: book@ijodPress.uz

www.IjodPress.uz

TEMUR TUZUKLARI



ISBN 978-9943-5628-4-4



9 789943 562844

